



Umida AXMEDOVA,
Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti assistenti
E-mail: kmuhammadrahim1212@gmail.com

ADU professori, t.f.d.O.Komilov taqrizi asosida

QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA FERMER XO'JALIKLARINI AHAMIYATI. (FARG'ONA VODIYSI MISOLIDA)

Annotatsiya

Mazkur maqolada Mustaqillikdan keyingi yillarda Farg'ona vodiysi qishloq xo'jaligini rivojlantirishda ulkan islohotlar olib borilgani aytilgan bo'lib, bu islohotlar zamirida fermerlik harakatiga asosiy e'tibor berilgani haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Qishloq xo'jaligi, agrar islohotlar, fermer xo'jaligi, shirkat xo'jaligi, dehqon xo'jaligi, Andijon viloyati, Farg'ona viloyati, Namangan viloyati.

THE IMPORTANCE OF FARMS IN THE DEVELOPMENT OF AGRICULTURE. (ON THE EXAMPLE OF THE FERGANA VALLEY)

Annotation

In this article, it was said that in the years after Independence, huge reforms were carried out in the development of Agriculture of the Fergana Valley, the reforms of which were given the main attention to the farming movement in Zamiri.

Key words: Agriculture, Agrarian Reform, Farm, Company, Farm, Andijan region, Fergana region, Namangan region.

ВАЖНОСТЬ ФЕРМЕРСКИХ ХОЗЯЙСТВ В РАЗВИТИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА. (НА ПРИМЕРЕ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ)

Аннотация

В этой статье говорится, что в годы после обретения независимости в сельскохозяйственном развитии Ферганской долины были проведены масштабные реформы, в основе которых лежит основное внимание к фермерскому движению.

Ключевые слова: Сельское хозяйство, Аграрная реформа, Фермерское хозяйство, Акционерное общество, Андижанская область, Ферганская область, Наманганская область.

Kirish. Jahon oziq-ovqat xavfsizligida tashvishli holatlar yuzaga kelayotgan bir sharoitda, mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ham miqdor, ham sifat jihatdan muntazam oshirib borish va shu orqali oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu sababli mamlakatimizda qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirish bo'yicha bir qator samarali islohotlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida milliy iqtisodiyotning eng muhim va ustuvor tarmoqlaridan biri – qishloq xo'jaligi hisoblanib, uning taraqqiyoti boshqa ko'p sohalar rivoji uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi» ham qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish masalalari muhim ustuvor yo'nalish sifatida e'tirf etilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning strategiyasi” asarida ham qishloq xo'jaligini jadal rivojlantirish masalalari bo'yicha “Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va iste'mol ratsionini yaxshilash davlat siyosatining asosiy maqsadlardan biri bo'lib qolaveradi”[1] - degan fikrlari qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilishdan dalolatdir. Sohani rivojlantirishga qaratilgan vazifalardan biri “2020 – 2030 yillargacha qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish strategiyasi”da quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilab berildi:

oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash va iste'mol ratsionini yaxshilash, talab etiladigan miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni nazarda tutuvchi oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xarid qilish va sotishda bozor tamoyillarini keng joriy etish, sifat nazorati infratuzilmasini rivojlantirish, eksportni rag'batlantirish, maqsadli xalqaro bozorlarda raqobatbardosh, yuqori qo'shilgan qiymatli qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni nazarda tutuvchi qulay agrobiznes muhitini va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish;

fermer xo'jaliklarida mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga qaratilgan tarmoq dasturlarini ishlab chiqish orqali davlat xarajatlarini samaradorligini oshirish va bosqichma-bosqich qayta taqsimlash [2] va boshqalar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirish masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Ayniqsa qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i hisoblangan fermer xo'jaliklarining faoliyati yuzasidan A.Abdullaev [3], M.Mirzaabdullaeva [4], O'.Umurzoqov, B.Salimov [5], A.Abdug'aniev, A.A. Abdug'anievlar [6] fermer va dehqon xo'jaliklarini shakllantirish, fermer xo'jaliklarida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlari, shuningdek ularning iqtisodiy masalalarini ochib bergan. Shu bilan bir qatorda Farg'ona vodiysida fermer xo'jaliklarining shakllanishi va faoliyatini o'rganish bo'yicha O'zbekiston Milliy arxividagi M.190-fond, 683-yig'majild, Andijon viloyati davlat arxivi 522-fond, 14, 1281-yig'majild, Farg'ona viloyat davlat arxivi 3317, 1295, 1220-fondining 3, 7, 375, 792-yig'majild, Namangan viloyat davlat arxivi 5-fond, 1370, 1353, 1271-yig'majildlarida yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani yozishda tarixiylik davrlashtirish hamda tizimlilik, shuningdek qiyosiy, muammoviy va dinamik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Mustaqillik sharofati bilan O'zbekiston Respublikasi xalq xo'jaligining asosiy tarmog'i bo'lgan agrar sohani rivojlantirishda qator islohotlar olib borildi. Qishloq xo'jaligida mulkchilikka asoslangan erkin tovar ishlab chiqaruvchi sub'ektlar shakllandi. Agrar sohadagi xo'jalik yuritishning bu turli shakllari kooperativ (shirkat), dehqon, fermer xo'jaliklari bo'lib, respublika qonunchilik organlari tomonidan ularning huquqiy asoslari yaratilib, xalq muhokamasidan so'ng qonuniy asos sifatida amaliyotda o'z ijobiy natijalarini berib bordi.

Respublika agrar sohasida faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklari boshqa subyektlarga nisbatan, amaliyotda o'zining bir qancha ijobiy hamda iqtisodiy ustunliklarini ko'rsatdi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan davrda qishloq xo'jaligida va uning boshqaruvida ma'muriy-buyruqbozlik tizimi mavjud bo'lgan. Mulchilik va xo'jalik yuritishning asosiy shakllari kolxoz va sovxozlar hisoblangan. Bizga ma'lumki, kolxozlar o'tgan asrning 1929 yildan boshlab sovet hukumati tomonidan agrar sohani rivojlantirish maqsadida qishloqda yoppasiga jamoalashtirish sari yo'l orqali tuzila boshladi. [7] Kolxozlarni tuzishdan maqsad agrar siyosatni rivojlantirishgina emas, balki sobiq Ittifoq rahbariyati tomonidan mulkdorlar sinfini tugatilishi ham nazarda tutilgan. Kolxozlar bilan bir qatorda davlat xo'jaliklari – sovxozlar yuzaga kela boshlagan. O'zbekistonda 1932 yilda paxta yetishtiradigan tumanlarda yalpi kolxoz va sovxozlarga o'tkazish tugallangan. Bu davrda kolxoz va sovxozlarga qishloq aholisining 81,7 foizini birlashtirgan. 880 ming dehqon xo'jaligi negizida 9734 ta kolxoz va 94 ta sovxoz tashkil etilgan [8]. Kolxoz va sovxozlar, eng avvalo mamlakatda barqaror taraqqiyotni ta'minlashga qodir emas edi. Chunki mazkur usullar, birinchidan, o'zbek dehqonining bunyodkorlik, ijodkorlik imkoniyatlarini har tomonlama chekladi va ularni barbod qilishga xizmat qildi. Ikkinchidan, kolxoz va sovxoz o'zbek dehqoniga ajdodlaridan meros bo'lib qolgan dehqonchilik madaniyatini inkor qildi hamda xususiy mulk va yerdan begonalashuvini tezlashtirdi. Bu borada O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov ham shunday degan edi- "Endi bir zum "kolxoz", "sovxoz" degan so'zlarning atamalarining ma'no-mazmunini chaqib ko'raylik. Xalqimiz shunchalik soddiki, mohiyatan Sharq tabiatiga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan begona so'zlarga ham o'rganib qolgan. Yodingizda bo'lsa, har bir viloyatda kamida yigirmata Lenin nomli kolxoz, kamida o'ttizta Lenin nomli sovxoz bo'lardi. O'zi aslida "kolxoz"- "kollektivnoe xozyaystvo" degani, "sovxoz"- "sovetskoe xozyaystvo" degani. Ikkalasi ham – sovetlar zamonida qolgan sarqit tushunchalar" [9]. Shu sababli Sobiq Ittifoq davrida mavjud bo'lgan, yer va suvga mulchilik masalasini butunlay izdan chiqargan "kolxoz" va "sovxoz"lar o'rni qishloq xo'jaligida ko'p ukladli iqtisodiyotga asoslangan yangi munosabatlarni olib kirish vazifasi islohotlarning bosh masalasi edi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq xo'jalik yuritishning eng samarali, taraqqiy etgan davlatlar tajribasida

o'zini har tomonlama oqlagan fermerlik harakatiga o'tilishi soha rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Qishloq xo'jaligini rivojlanishida fermer xo'jaliklari bilan bir qatorda dehqon xo'jaliklarining ham roli kattadir. Fermer xo'jaliklarni qishloq xo'jaligi taraqqiyotiga ta'siri haqida Prezident I.Karimov quyidagi fikrlarni keltirgan – "Vaholanki, fermerlik harakati butun dunyoda necha yuz yillik tarixga ega. Biz ularning tajribasini, yutuqlarini o'rganib, o'zimizda joriy etishimiz kerak" [10]. Mamlakatimizda iste'mol bozorini to'ldirish va aholining qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish masalasi ko'proq dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatiga bog'liqdir. Respublikamizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar asosan xalqimiz turmush darajasini yaxshilashga, farovonligini oshirishga qaratilgan. Shu ma'noda, aynan qishloq xo'jaligi sohasiga davlat tomonidan berilayotgan katta e'tibor alohida ahamiyatga egadir.

Fermerlik harakatini rivojlantirishda Farg'ona viloyatida ham yetarlicha ishlar amalga oshirilgan. 1997 yil "Shohrux" dehqon (fermer) xo'jaligiga 15,0 ga, "Oq kiyik" fermer xo'jaligiga 23,0 ga, "Nosirobod" fermer xo'jaligiga 14,0 ga, "Olmoz" fermer xo'jaligiga 26,0 ga va boshqa dehqon (fermer) xo'jaliklariga yer maydonlari ajratib berilgan [12]. Bu borada Namangan viloyatida 1996-1997 yillar davomida faoliyat yuritayotgan Chust tumanidagi "Sherbilak" jamoa xo'jaligi 37072 ming so'm zarar bilan yilni yakunlagandan so'ng "Baymoq" dehqon (fermer) xo'jaligiga, "Xuston" jamoa xo'jaligi esa 27161 ming so'm zarar bilan yilni yakunlagani bois "Zarafshon" dehqon (fermer) xo'jaliklariga birlashtirildi.

Ma'lum bir davrda, ya'ni 1996-1997 yillarda fermerlik harakatini tashkil etish sur'atlari bir oz pasaydi (bu davrda 7,2 ming fermer xo'jaligi mavjud bo'lgan). 1998 yil 30 apreldagi "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi 602-I-sonli Qonunining qabul qilinishi mamlakatimizda fermerlik harakatining yangi bosqichini boshlab berdi va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tadbirkorlik sub'ektlari tarkibida fermer xo'jaliklarining salmoqli o'rin egallashini isbotladi.

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, sobiq sovet tuzumi davrida qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida tuzilgan kolxozlar va sovxozlar o'z faoliyatini oqlay olmagan. Kolxoz va sovxozlarga yuklatilgan rejalar bajarilmaganligi, o'sha davrda qishloq xo'jaligi sohasiga e'tiborsizlik bilan qaralganligi iqtisodiyotni inqirozga olib kelishiga sababchi bo'lgan omillardan biri ekanligi keltirilgan. Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab qishloq xo'jaligini rivojlantirishda tub islohotlar amalga oshirilgani, yerga mulchilik masalalari alohida e'tibor qaratilayotganligi keltirilgan. Bu borada kolxoz va sovxozlar, shirkatlar tugatilib, yerning haqiqiy egasi – fermerlarning paydo bo'lishi bo'lishi haqida aytilgan. O'tgan yillar mobaynida fermer xo'jaliklarini yurtimizni qishloq xo'jaligi sohasini rivojiga qo'shgan hissasi juda kattadir.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh. "Yangi O'zbekiston strategiyasi".-Toshkent : O'zbekiston, 2021 y.
2. <https://lex.uz/docs/4567334>
3. Abdullaev A. Fermer xo'jaligi iqtisodi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2006 y.
4. Mirzaabdullaeva M. Fermer xo'jaligi faoliyatini huquqiy tartibga solish. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010 y.
5. Umurzoqov O., va boshq. Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti (o'quv qo'llanma). – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2007 y.
6. Abdug'aniev A., Abdug'aniev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. – Toshkent: TDIU, 2010 y.
7. Shamsutdinov R. Qishloq fojeasi: Jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun: (O'rta Osiyo respublikalari misolida). – Toshkent: Sharq, 2003 y.
8. Xaitov Sh.I. O'zbek fermerlik maktabi falsafasi.- Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015y
9. Karimov I.A.Xavfsizlik va barqarorlik taraqqiyot yo'lida.-T.6.-Toshkent:"O'zbekiston", 1998 y.
10. Karimov I.A. Bizning yo'limiz- demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. T.20. Toshkent: O'zbekiston, 2012 y.
11. Farg'ona viloyat davlat arxivi 1220-fond, 1-ro'yxat, 375-yig'majild, 3-varaq
12. Namangan viloyat davlat arxivi 5-fond, 4-ro'yxat, 1271-yig'majild, 5-varaq.



Shuxrat BOYMURODOV,
Qarshi Xalqaro universiteti dotsenti, t.f.f.d
E-mail:Boymurodov75@gmail.com

QarMII dotsenti D.Vasieva taqrizi asosida

O‘ZBEKISTONDA O‘RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA‘LIMI TIZIMIDAGI O‘ZGARISHLAR.

Annotatsiya

XX asrning ikkinchi yarmida ta‘lim tizimi jahon sivilizatsiyasining ilg‘or yutuqlaridan va xalqimizning tarixiy ildizlaridan ajralib qolganligi. Bu ahvolni tubdan o‘zgartirish O‘zbekistonda o‘rta maxsus ta‘limi, tizimidagi o‘zgarishlar, respublikada amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlar va bozor iqtisodiyoti talablari ta‘lim muassasalarining xuquqiy asoslarining tashkil etilishi, Ta‘lim islohatlarining jadallashishi bu yo‘nalishda izchillik va uziksizlikni ta‘minlashga xizmat qiladigan yangi qonun, kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish, ta‘lim tizimini isloh masalalari tahlil qilindi

Kalit so‘zlar: O‘rta bug‘in, o‘rta maxsus ta‘limi, kasb-hunarga o‘qitish, pedagogik kadrlar, ta‘lim islohatlar, kichik mutaxassis.

CHANGES IN THE SYSTEM OF SECONDARY VOCATIONAL EDUCATION IN UZBEKISTAN

Annotation

In the second half of the twentieth century, the education system was separated from the progressive achievements of world civilization and the historical roots of our people. Radical changes in the system of secondary specialized education in Uzbekistan, changes in the system, democratic changes in the country and the requirements of the market economy, the creation of a legal framework for educational institutions, issues of accelerating educational reforms are analyzed.

Key words: Secondary education, secondary specialized education, professional training, teachers, education reform, education law, junior specialist

ИЗМЕНЕНИЯ В СИСТЕМЕ СРЕДНЕГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.

Аннотация

Во второй половине XX века система образования была отделена от прогрессивных достижений мировой цивилизации и исторических корней нашего народа. Проанализированы радикальные изменения в системе среднего специального образования в Узбекистане, изменения в системе, демократические изменения в стране и требования рыночной экономики, создание правовой базы для образовательных учреждений, вопросы ускорения образовательных реформ.

Ключевые слова: среднее образование, среднее специальное образование, профессиональная подготовка, учителя, реформа образования, закон об образовании, младший специалист.

Kirish. O‘zbekistonda zamonaviy hayotni ta‘limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Zero, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada bilan chambarchas bog‘liqdir. Bugun mamlakatimizda ta‘lim soxasining barcha bug‘inlarida olib borilayotgan islohotlar yoshlarni qamrab olinishini yanada kengaytirish, ularni bilim va etuk mutaxassis etib tarbiyalash, qaratilgan. Mustaqillik dastlabki yillarida ma‘muriy buyruqbozlik tizimidan demokratik jamiyat qurishga o‘tishga harakat, ta‘lim tarbiyadagi eski ma‘naviy qarashlarning ayrimlaridan voz kechishga milliy xususiyatga ega ta‘lim va tarbiyaviy ishlarni yangi uslublarini izlab topishga, yoshlarning kelajakda o‘z o‘rnini topishi ularni kasb xunarga o‘rgatish dolzarb masala edi. Istiqolning dastlabki yillarida kasb-hunar ta‘limi sovetlarning cheklangan ta‘lim tizimidan yangi ijordkorlikka asoslangan, ta‘lim mazmuni milliydashgan yo‘nalishlarga o‘tayotgan bo‘lsa, O‘zbekiston ta‘lim tizimi esa sovetlarning inqirozga yuz tutgan tizimidan keng ko‘lamdagi pedagogik tajribalar asosida tubdan o‘zgarayotgan hamda bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga kirishayotgan tizimga o‘ta boshladi. Biroq o‘rta kasb xunar ta‘limi tizimidagi mavjud muammolar katta hajmdagi mablag‘ni, ta‘limning davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishini uning jamiyatimizni ustuvor yo‘nalishga aydanishini talab qilayotgan edi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada O‘zbekistonda o‘rta maxsus ta‘lim sohasidagi islohotlari va uning ahamiyati qabul qilingan tarixiy va sotsiologik metodlar – tizimli tahlil, qiyosiy-tarixiy, tuzilmaviy, funksional yondashuv, qiyosiy-

mantiqiylik, tahliliy, ketma-ketlik, xolislik, ob‘ektivlik tamoyillari asosida yoritilgan.

Tahlil va natijalar. Mamlakat ta‘lim tizimidagi kadrlar tayyorlash jarayoni respublikada amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlar va bozor iqtisodiyoti talablariga javob bermas ta‘lim muassasalarining sifatli o‘quv-uslubiy va ilmiy adabiyot hamda didaktik materiallar bilan to‘liq ta‘min etilmaganligi, ta‘lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o‘rtasida puxta hamkorlik va o‘zaro foydali integratsiyaning yo‘qligi yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarga bo‘lgan talabni qondirish imkoniyatini bermayotgan edi.

Sovetlar davrida ham o‘rta bug‘in kadrlarni tayyorlash tizimida ham o‘zgarishlar qilinishiga harakat qilgan “Hunar-texnika talim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”(1971y) “Hunar-texnika talimi tizimida o‘quvchilar talim-tarbiya jarayonini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi (1973) qarorlari qabul qilindi. 1984 yilga kelib-hunar talimi islohoti elon qilindi. 1990 yilda Respublikada 477 ta hunar-texnika bilim yurtlari faoliyat yuritayotgan bo‘lsada, ularda respublikamizning milliy manfaatlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivoji tuluq e‘tiborga olinmagan edi. 1991 yilda mavjud baza asosida 9 ta oliy o‘quv yurti shu jumladan O‘zbekiston oliy va O‘rta maxsus ta‘lim vazrligi tasarrufida 3 ta, dorulfunun, 4ta umumtexnika fak‘lteti xuddi shunegdek oliy o‘quv yurtlari va texnikumlar bozor iqtisodi sharoiti uchun zarur bo‘lgan qator mtaxassisliklar ochildi. Jumladan texnikumlarda kadrlar tayyorlashning tarkibi yaxshilanib 26 ta o‘quv yurtida 15 ta

mutaxassislik shu jumladan 6 ta texnikumda 0108-“Tijoratni tashkil etish” mutaxassiligi bo'yicha kadrlar tayyorlash boshlandi [8]. O'rta maxsus o'quv yurtlari boshqarmasi tomonidan o'quv yurti tayyorlanadigan mutaxassislarga talab va ulardan foydalanish masalasi, o'quv-moddiy bazasi va pedagogik xodimlari bilan ta'minlanganligi o'rganib chiqildi. Masalan, 1991 yilda qishloq xo'jaligi vazirligi o'quv yurtlari boshqarmasi Oliy ta'lim vazirligi bilan maslaxatlashmay 17 ta bilim yurtida 7 mutaxassislik bo'yicha kadrlar tayyorlay boshladi [9]. O'zbekbirlashuvga qarashli Andijon matlubot texnikumi, Leninsk sovet savdosi texnikumidan 15km uzoqlikda joylashgan bo'lib, o'quv-moddiy va uslubiy bazasi bo'lmaganligi xolda 2 yil maboynda o'quvchilar qabul qilgan.

Bunday dalillar Respublika sog'liqni saqlash vazirligi tizimida ya'ni Toshkent viloyatida 4 ta tibbiyot bilim yurti bo'la turib, sog'liqni saqlash vazirligi 1990 yili Olmaliq shahrida Angren tibbiyot bilim yurtini filialni, 1992 yil yanvar oyida esa uni o'quv-moddiy bazasi va pedagogik xodimlari bilan ta'minlamay turib yangi tibbiyot bilim yurtini ochish to'g'risida buyruq chiqardi. Yuqorida ko'rsatilgan dallillar shuni ko'rsatdiki, yangi mutaxassislklar yoki o'quv yurtlarini ochish mutaxassislarga extiyojni aniqlamay, Respublikadagi og'ir iqtisodiy vaziyatda, xamda mutaxassislar tayyorlash sifatiga putur etkazadi. O'zbekbirlashuv va Qishloq xo'jalik vazirligi o'quv yurtlari boshqarmalari Sog'liqni saqlash vazirligi Madaniyat vazirligi tasarrufidagi o'rta maxsus o'quv yurtlarini faoliyatga salbiy ta'sir ko'rsadi.

1992 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni mamlakatimizda ta'lim tizimini mustaqillik sharoitiga moslab tubdan o'zgartirishga zamin hozirladi. Ta'lim to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi 1992 yil 2 iyulda Davlat tasarrufida bo'lmagan ta'lim muassasalarini tashkil etish va faoliyat yuritish tartibini belgilab beradi. Respublika hududidagi ishlab turgan, davlat tasarrufidan bo'lmagan barcha ta'lim muassasalarni tashkil etish va faoliyati Ta'lim jarayonini amalga oshirish uchun shart-sharoitlarning, muayyan muassasa pedagogik xodimlari ta'lim senzining davlat va mahalliy sharoitlarga muvofiqligini aniqlashni, o'quv-moddiy negizning mavjudligi va holatini, muassasalar bitiruvchilarini tayyorlashning mazmuni, darajasi va sifatining davlat ta'lim andazalari talablariga muvofiqligini belgilashni, muqobil ta'lim muassasalari tarmog'ini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashni, maqsad qilib olindi. Unga ko'ra quyidagilar muassasalarning muassislari bo'lishlari mumkinligi belgilab quyildi, davlat boshqaruvining respublika va mahalliy organlari mulkchilikning barcha shakllaridagi muassasalar, tashkilotlar, korxonalar, jamoat birlashmalari, diniy tashkilotlar, alohida fuqarolar, xorijiy mamlakatlarning fuqarolari va tashkilotlari hamda xalqaro tashkilotlari. Biroq ta'lim faoliyati huquqini beruvchi litsenziya berilishidan oldin muassasalar ta'limni boshqarish mahalliy organlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi yoki Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ekspertizadan o'tkazilishi belgilab quyildi. Barcha muassasalar shu jumladan O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab turgan, ustavlarida ta'lim faoliyati nazarda tutilgan kichik korxonalar, tashkilotlar va ularning filiallari, shu jumladan, xorijiy mamlakatlar fuqarolari va tashkilotlari mazkur akkreditatsiyadan o'tkazildi Shu jumladan mahalliy boshqaruv organlari tomonidan ta'lim sohasida mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan, davlat tasarrufida bo'lmagan ta'lim muassasalari oshishga ruxsat beriladi. Biroq mutaxassisl malakasini oshirish, ularni qayta tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar ko'rsatish uchun tijorat tashkilotlariga davlat ish bilan ta'minlash xizmati tomonidan beriladi. Shungdek diniy ta'lim muassasalariga ta'lim faoliyati huquqini beruvchi litsenziyalar Vazirlar Mahkamasi huzuridagi din ishlari bo'yicha qo'mita bilan kelishilgandan keyin O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim

vazirligi tomonidan beriladi. Faoliyat yuritish uchun ruxsat berilganligi uchun quyidagi miqdorlarda davlat boji to'lanadi: oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlariga muvofiq keladigan muassasalar uchun — 8 ming so'm; mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan muassasalar — 4 ming so'm[10]. Shungdek ta'lim faoliyatini bepul amalga oshiruvchi, mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan muassasalar davlat bojini to'lashdan ozod qilinadi.

1992 yilda respublika hunar-texnika ta'limini rivojlantirishning yangi konsepsiyasi ishlab chiqildi. Mamlakatda ta'limi sifatini oshirishga muhim ahamiyat berib hamda iste'dodli yoshlarni o'qitishning ilg'or shakllarini ustuvor rivojlantirishni ta'minlash maqsadida respublikada dastlabki litseylar faoliyatini tashkil etildi

1992 yilda Turkiya Respublikasi bilan birgalikda Qoraqalpog'iston Respublikasida, Buxoro, Samarqand, Namangan, Farg'ona, Xorazm viloyatlarida va Toshkent shahrida tashkil etildi 1993-1994 o'quv yili boshlangunga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasida, har bir viloyat markazida va Toshkent shahrida yigitlar va qizlarni o'qitish bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxiotosh shahri, Orolbo'yi birlashmasining maktablararo o'quv-ishlab chiqarish kombinati negizida, Andijon viloyati Andijon shahri, 8-maktabda, Buxoro viloyati G'ijduvon tumani, «Guliston» jamoa xo'jaligi, 151-uydagi maktabda, Vobkent shahri, 1-maktabda, Jizzax viloyati Jizzax shahri, yangi qurilayotgan 2-maktabda, Qashqadaryo viloyati Qarshi shahri, Nodira nomidagi 34-maktabda, Navoiy viloyati Navoiy shahri, 3-uy, 14-maktabda. Namangan viloyati To'raqo'rg'on shahri, 3-maktabda. Samarqand viloyati Samarqand tumani, Gulobod shaharchasi, qurilayotgan maktab binosida. Surxondaryo viloyati Angor tumani, 1-maktab, Sirdaryo viloyati Yangier shahri, Guliston universiteti negizida, Toshkent shahri Hamza tumani, maktablararo o'quv-ishlab chiqarish kombinati negizida, Toshkent viloyati Angren shahri, 13 maktabda. Farg'ona viloyati Qo'qon shahri, bolalar uyi negizida, Farg'ona shahri, yangi qurilayotgan maktabda, Xorazm viloyati Xonqa shahri, 784-maktab negizida foaliyati yurita boshladi[11].

Litseyga 9-sinf hajmida bazaviy ma'lumotga ega bo'lgan va test tanlovidan o'tgan yigit va qizlar qabul qilinadi. Ayrim hollarda ijodiy qobiliyatlar va talabgorlarning tayyorgarligi hisobga olingan holda litseyga tugallangan bazaviy ma'lumotga ega bo'lmagan o'quvchilar qabul qilinishiga yo'l qo'yiladi.

1993 yil 7 mayda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi Unga ko'ra «Davlat tasarrufida bo'lmagan respublika ahamiyatiga molik ta'lim muassasalarining rahbarlari muassislar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishib tayinlanishi hamda Ta'limni boshqarish davlat idoralari bilan davlat tasarrufida bo'lmagan ta'lim muassasalarining o'zaro munosabatlari belgilab olindi

1994 yilda Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari davlat inspeksiyasi negizida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzurida Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarini davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasidan o'tkazish hamda nazorat qilish Bosh boshqarmasi tashkil etilib uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat buldi. Ya'ni oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida, ular qaysi idoraga qarashliligi va mulkchilik shaklidan qat'i nazar, ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarini davlat talablariga muvofiq attestatsiya va akkreditatsiyadan o'tkazish, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida davlat ta'limi standartlariga rioya qilinishini nazorat qilish belgilab quyildi.

Shu bilan birga Mustaqillikning dastlabki yillarida o'rta maxsus ta'limni rivojlantirish undagi muammolarni bartaraf etish maqsadida Toshkent davlat universitetining sotsiologik tadqiqotlar markazi negizida Oliy va o'rta maxsus

maktab muammolari institutini tashkil etildi[12]. instituti faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib, jahon tajribasini hisobga olgan holda oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimini takomillashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, bozor iqtisodiyoti talablariga, respublikaning ijtimoiy sohasidagi o'zgarishlarga moslashishga qodir bo'lgan ko'p bosqichli ta'lim muassasalarining zamonaviy modellarini barpo etish, kasb-hunar ta'limi hamda oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari mutaxassislari va o'qituvchilari malaka darajasini oshirish tizimini takomillashtirish, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarini mablag' bilan ta'minlash va o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlash mexanizmini, shuningdek, o'qituvchilar mehnatini rag'batlantirish shakllarini yaratish, bozor iqtisodiyoti sharoitlarida o'quv yurtlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va mustahkamlashning eng maqbul yo'llarini topishdopn iborat buldi.

Respublikada hunar texnika ta'limini yanada takomillashtirish va uning uzliksizligini taminlash maqsadida 1994 yilda "Hunar texnika ta'limini rivojlantirishning 1994-1999 yillarga muljalangan dasturi" ishlab chiqildi. Bu hol yoshlarga turli kasb – hunar o'rgatishga, bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh kichik mutaxassis kadrlarni tayyorlashga turtki bo'ldi. Natijada 1995 yildan boshlab Respublikadagi hunar-texnika bilim yurtlari va o'rta maxsus o'quv yurtlariga ega bo'lgan boshqa vazirliklar va idoralarda qishloqdagi hunar-texnika bilim yurtlari faoliyati yo'nalishini, ularni tadbirkorlik o'quv markazlari, kasb-hunar litseylari va biznes-maktablarga, maxsus o'quv yurtlarini kichik va o'rta biznes, fermer xo'jaliklari, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari uchun mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha kollejlarga aylantirish hamda bozor islohotlari talablarini hisobga olgan holda qishloq hunar-texnika bilim yurtlari va o'rta maxsus o'quv yurtlari yo'nalishini o'zgartirish kichik va o'rta biznes, fermer xo'jaliklari, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari uchun mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha kollejlarga aylantirildi. Shunengdek 1995-96 o'quv yilidan boshlab viloyat markazlaridagi oliy o'quv yurtlari huzurida qishloq hunar-texnika bilim yurtlari negizida biznes-maktablari qishloq yoshlarini tadbirkorlik faoliyatining har xil turlariga qayta o'qitish kurslari va o'quv-maslahat markazlari faoliyati yo'lga quyiladigan bo'ldi. Ularning faoliyatini tartibga olish maqsadida hunar-texnika bilim yurti, kasb-hunar litseyi, biznes-maktab va kollej to'g'risidagi nizomlar[13] ishlab chiqildi.

1996 yildan boshlab respublika iqtisodiyotining yuqori malakali ishchi kadrlarga bo'lgan talablarini to'laroq qondirish, kasbga o'qitishning uzliksizligini ta'minlash, fuqarolarning ijtimoiy himoyalanganligini kuchaytirish va mehnat bozorida ularning raqobat qila olish qobiliyatlarini oshirish. Ishchi kadrlarni uzluksiz tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini shakllantirish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Natijada Yangi tipdagi maktablar va umumta'lim o'quv yurtlari tarmog'i rivojlanib 238 litsey va 136 gimnaziya shakllandi. Mehnat bozorini, eng avvalo qishloq joylarda mehnat bozorini shakllantirishning hududiy xususiyatlarini hisobga olgan holda hunar-texnika ta'limini qayta tashkil etishga kirishildi. bu tizimda jami 221 ming kishini ta'lim bilan qamrab olgan 442 o'quv yurti, shu jumladan, 209 kasb-hunar maktabi, 180 kasb-hunar litseyi va 53 biznes-maktab

faoliyati yulga quyildi. 1996 yilga kelib boshlang'ich kasb-hunar ta'limi o'quv yurtlarida qariyb 20 ming o'qituvchi va malakali mutaxassislarni ishlagan bo'lsa, respublikada jami 197 ming kishi ta'lim olayotgan 258 o'rta kasb-hunar ta'limi o'quv yurti ishlab ularda qariyb 16 ming o'qituvchi va muhandis-pedagog xodimlar mehnat qilgan[14].

Mamlakat ta'lim tizimidagi mavjud holatni tahlil qilish shundan dalolat beradiki, kadrlar tayyorlash jarayoni respublikada amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlar va bozor iqtisodiyoti talablariga javob bermas edi. Buning ustiga ta'lim muassasalarining sifatli o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyot hamda didaktik materiallar bilan to'liq ta'min etilmaganligi, ta'lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o'rtasida puxta hamkorlik va o'zaro foydali integratsiyaning yo'qligi yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan talabni qondirish imkoniyatini bermayotgan edi.

Ta'lim islohotlarining jadallashuvi bu yo'nalishda izchillik hamda uzliksizlikni taminlashga xizmat qiladigan yangi qonun qabul qilinishni taqozo etayotgan bir vaqtda mamlakat miqyosida ta'lim tarbiya, ilm fan, kasb-hunar o'rgatish sohalarini isloh qilishga nihoyatda katta zarurat sezila boshladi.

1997 yil 10 martda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ishlab chiqish to'g'risida qaror qabul qildi. Ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyot sohasida ustivor deb belgilanishi milliy tajribaning tahlili va ushbu tizimdagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak ma'naviyat ega, umumiy va kasb-hunar madaniyatiga asoslangan ijtimoiy – bsiyosiy hayotda mustaqil fikr yurita oladigan qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgan edi.

Yuqorida aytib o'tkanimizdek yoshlarni kasb-xunarga o'rgatish, ta'lim uzliksizligini ta'minlash masalasi davlat siyosati darajasiga kutarilishi yangidan tashkil etilishiga, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarni nafaqat faoliyat yuritshining balki moddiy -texnik bazasini yaxshilash uchun ham xuquqiy asoslar yaratib berildi.

Xulosa. Mamlakatimiz ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish, uni xalqaro standartlarga integratsiyalash, mehnat bozori talabiga mos yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bo'yicha hayotga tatbiq etilayotgan islohotlar e'tiborga molik. Lekin shunga qaramay, sifat borasida o'zgarishlar sezilmadi. Ta'lim sifatini yaxshilash, o'quv ishlarini bozor ehtiyojlaridan kelib chiqib tashkil etish masalasi e'tiboridan chetda qolib ketdi.

Mustataqillikning daslabki yillarida mamlakatimizda jamiyatning rivojlanish tendensiyalari, aholining demografik o'sishi, salmoqli qatlam bo'lgan yoshlarning intilishi, global texnologik jarayonlarni hisobga olmagan holda o'rta maxsus ta'lim ta'lim tizimida o'tkazilgan islohotlar kutilgan samarani bermadi. Uning asnosida muammolar kamaymadi.

Jamiyat taraqqiyoti amalga oshirilayotgan islohotlarning ko'lamini va mantig'iga bog'liq. Qaysi soha e'tiborga muhtojligini ilg'ab, chuqur va har tomonlama o'ylanib amalga oshirilgan islohotlarga xalqning mushkulini oson, og'irini engil, turmushini farovon qiladi, muammolariga echim topib beradi. Bajirilayotgan ishlar zamirida bugungi muammolarni echish bilan birga uzoq kelajak ham ko'zlangan bo'lishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus ta'lim vazirligi ishning yakunlari hamda 1992 yildagi vazifalari xaqida - O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus ta'lim vazirligi kollegiya qarori 31 yanvar // O'zMA 2653-fond, 1-ruyxat, 6460-yig'ma jild, 17-varaq
2. O'zbekiston Respublikasi o'rta maxsus o'quv yurtlarining 1991 yildagi shahodatlash yakunlari xaqida - 2653-fond, 1-ruyxat, 6460-yig'ma jild, 53-varaq
3. Davlat tasarrufida bo'lmagan ta'lim muassasalarini tashkil etish va litsenziyalash tartibi to'g'risida nizom 3-ilovasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 6 oktyabrdagi 462-son qarori

4. Oliy va o'rta-maxsus maktab muammolari institutini tashkil etish to'g'risida O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining qarori 1995yil 31 iyul № 302
5. Kasb-hunar ta'limi o'quv yurtlari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining qarori 1996 yil 11 dekabr, 439-son
6. Muammolar va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish omillari Milliy dastur. 1997 yil
7. O'zR O'MKHTM joriy arxivi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi tomonidan 2006 yilda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida hisoboti. 1-16 varaqlar
8. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus ta'lim vazirligi ishning yakunlari hamda 1992 yildagi vazifalari haqida - O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus ta'lim vazirligi kollegiya qarori 31 yanvar // O'zMA 2653-fond, 1-ruyhat, 6460-yig'ma jild, 17-varaq)
9. O'zbekiston Respublikasi o'rta maxsus o'quv yurtlarining 1991 yildagi shahodatlash yakunlari haqida - 2653-fond, 1-ruyhat, 6460-yig'ma jild, 53-varaq
10. Davlat tasarrufida bo'lmagan ta'lim muassasalarini tashkil etish va litsenziyalash tartibi to'g'risida nizom 3-ilovasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 6 oktyabrdagi 462-son qarori
11. O'zbekiston — turkiya litseylarining faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 27 maydagi 255-son qarori 2-ilova
12. Oliy va o'rta-maxsus maktab muammolari institutini tashkil etish to'g'risida O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining qarori 1995yil 31 iyul № 302
13. Kasb-hunar ta'limi o'quv yurtlari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining qarori 1996 yil 11 dekabr, 439-son
14. Muammolar va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish omillari Milliy dastur. 1997 yil



UDK:94-055.2(575.171)

Yulduz GAYBULLAYEVA,

Toshkent shahridagi Webster dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

O'zMU katta o'qituvchisi O.A.Radjabov taqrizi asosida

SUPPLYING TEXTILE FACTORIES WITH RAW MATERIALS IN THE SOVIET ERA AND ITS PROBLEMS

Annotation

In the territory of Uzbekistan, women's clothes have been made of various types of fabric since ancient times. This situation is related to the economic and cultural types that exist in the region, the specific character of the area where the population is located, and the social and household lifestyle of the population. For example, people engaged in animal husbandry made cloth from wool of sheep, camels and goats. People with a sedentary lifestyle cultivated cotton and reared silkworms. Residents of these areas made silk and cotton fabrics and sewed clothes. Economic and cultural ties with neighboring regions are also reflected in clothes. In particular, several types of fabrics were brought and clothes were made from them.

Key words: National clothes, Soviet power, factory gauze, krepsatin, cashmere.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ СЫРЬЕМ ТЕКСТИЛЬНЫХ ФАБРИК В СОВЕТСКОЕ ВРЕМЯ И ЕГО ПРОБЛЕМЫ

Аннотация

На территории Узбекистана женскую одежду издревле шили из различных видов тканей. Такая ситуация связана с экономическим и культурным типами, существующими в регионе, спецификой местности, где находится население, и социально-бытовым образом жизни населения. Например, люди, занимавшиеся животноводством, изготавливали ткани из шерсти овец, верблюдов и коз. Люди, ведущие оседлый образ жизни, выращивали хлопок и разводили тутовых шелкопрядов. Жители этих мест изготавливали шелковые и хлопчатобумажные ткани, шили одежду. Экономические и культурные связи с соседними регионами также отражаются в одежде. В частности, привозили несколько видов тканей и шили из них одежду.

Ключевые слова: Национальная одежда, Советская власть, фабричная марля, крепсатин, кашемир.

SOVET DAVRIDA TIKUVCHILIK FABRIKALARINI MATO XOM-ASHYOSI BILAN TA'MINLASH VA UNING MUAMMOLARI

Annotatsiya

O'zbekiston hududida qadimdan ayollarning kiyimlari tayyorlangan mato turlari xilma-xil bo'lgan. Mazkur holat mintaqada mavjud bo'lgan xo'jalik madaniy tiplari, aholi joylashgan hududning o'zgi xosligi, aholining ijtimoiy va maishiy turmush tarzi bilan bog'liq bo'lgan. Masalan, chorvachilik bilan shug'ullangan aholi qo'y, tuya va echki junlaridan mato tayyorlagan. O'troq turmush tarziga ega bo'lgan aholi g'o'za parvarishlagana va ipak qurti boqqan. Mazkur hududlaridagi aholi ipak va paxtadan matolar tayyorlab, kiyimlar tikkan. Shuningdek, qo'shni mintaqalar bilan iqtisodiy va madaniy aloqalar ham kiyimlarda o'z aksini topgan. Xususan, bir qancha turdagi matolar olib kelingan va ulardan kiyimlar tikilgan.

Kalit so'zlar: Milliy kiyimlar, Sovet hokimiyati, fabrika gazlamalari, krepsatin, kashmir.

Kirish. XX asrda milliy kiyimlar transformatsiyasida uchragan dastlabki holatlardan biri bu fabrika gazlamalarining keng qo'llanilish bo'lgan. Fabrika gazmollari O'rta Osiyoga dastlab chet davlatlardan olib kelingan. Bu XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Sovet hokimiyati mintaqada o'rnatilgandan so'ng gazlama to'qiydigan fabrikalar O'rta Osiyoning o'zida ham ochila boshladi va ular ushbu turdagi gazlamalarni ishlab chiqara boshlagan. Bu bir tmondan, mahalliy hunarmandlar tomonidan ishlab chiqarilgan gazlamalar aholining ushbu mahsulot turiga bo'lgan talabani butunlay qondirmaganligi sababli ham yuzaga kelgan. Bu esa O'rta Osiyoda kустar usulida tayyorlangan gazlamalar bilan raqobatni olib kelgan. Keyinchalik fabrika gazlamalari butun mintaqaga yoyila boshlagan va milliy kiyimlar ushbu gazalamalardan tikish rivojlangan. Umuman olganda, 1920 yillarda gazlamalarni sanoat uslubida ishlab chiqarilish boshlagan. Ushbu sanoat korxonalarini artellarga birlashgan. 1930 yillardan mahalliy shoyi yoki atlas kabi matolarni to'qiydigan korxonalar yirik fabrikalariga aylana boshlagan. Bunda nafaqat mahalliy mato turlari balki, krepdeshin va va ipak mato kabi Yevropa andozasidagi mahsulotlar ham ishlab chiqarilgan. Shu tarzda bir fabrika ham mahalliy va ham chet el andozasidagi gazmol to'qish fabrikasiga aylanib qolgan[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sovet davrida bir qancha turdagi mato turlari mavjud bo'lgan. Ikkinchi Jahon urushi arafasida O'zbekiston SSRdagi fabrikalarda chit, satin, may, shifon, batist, krepsatin va kashmir kabi matolar ishlab chiqarilgan hamda ular kустar uslubida to'qiladigan mahalliy mato turlarini bozordan siqib chiqarayotgan edi. Biroq, urush boshlangandan so'ng respublikaga fabrika uslubda to'qiladigan xom-ashyolarning kelishi sekinlashgan va natijada yana hunarmandlar ishlab chiqargan mahalliy gazmollarga bo'lgan talab oshib ketgan. Xususan, mazkur davrda paxtali matolar hisoblangan qalami, olacha, janda va sarpinka kabi gazlamalar ishlab chiqarish yana yo'lga qo'yilgan[2].

1950-yilda "Uzshveytrest" Toshkent Modalar Uyini yetarli darajada xom-ashyo bilan ta'minlay olmagan. Xususan, matolara turli fabrikalardan va bazalardan sotib olingan hamda bunda xom-ashyolarning miqdori yetarli bo'lmagan. Furniturlar asosan magazinlardan kichik hajmda sotib olingan. Bunday tartibsizlik modalar uyini xom-ashyo bilan ta'minlamagan. Bundan tashqari, matolar assortimentining kamligi va kam rangli matolarning keltirilishi yangi kiyim modellarini yaratish va yangi dizaynerlik mahsulotlarini ishlab chiqishga halaqit qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning uslubiy asosini obyektivlik va tarixiylik prinsipi tashkil etadi.

Shuningdek, maqoladagi ma'lumotlarni tahlil etishda statistik usuldan ham foydalanildi.

Tahlil va natijalar. 1950 yilgacha O'zbekiston SSRda aholi orasida milliy matolardan shoyiga ehtiyoj ko'proq bo'lgan bo'lsa, 1950 yildan atlasdan kiyim-kechak tikish kuchaygan. Bu davrda atlasdan barcha turdagi kiyim-kechaklar tikib kiyilgan. Jumladan, atlasdan ayollarning bayram, to'y, va ko'cha kiyimlaridan tortib ish kiyimigacha bo'lgan mahsulotlar tikilgan. O'zbekiston SSRda o'rganilayotgan davrda fabrikalar o'zlari rejalashtirilgan barcha kiyim mahsulotlarini har doim ishlab chiqara olmagan. Bunga ish jarayonida vujudga kelgan turli holatlar sabab bo'lgan. Bu asosan turli matolar kabi xomashyo bilan bog'liq muammolarga bog'liq bo'lgan. Masalan, 1982 yilda Respublika Kiyim Modellarini Uyi sintetik trikotaj matolardan ayollar kiyim mahsulotlarini ishlab chiqarishni to'liq amalga oshira olmagan. Jumladan, bu mahsulotlar qatoriga polotno matosidan tikilgan ayollar ko'ylagi va kostyumi, famoz matosidan tikilgan ayollar yubkasi, krimplen matosidan tikilgan naqshli ayollar ko'ylaklari, krimplen matosidan tikilgan meduza ayollar ko'ylaklarini kiritishimiz mumkin. Mazkur ayollar kiyimlarining Respublika Kiyim Modellarini Uyi vaqtida ishlab chiqarilmaganligiga sabab xomashyolarning asosan xorij davlatlaridan olib kelingan va ushbu matolarning importi bilan muammolar edi. Buning natijasida 1982 yilda Respublika Kiyim Modellarini Uyi 2,7 ming dona ayollarning turli ko'ylaklarini ishlab chiqara olmagan va 203 ming rubl zarar ko'rgan. Sovet davrida ayollar liboslarini ishlab chiqarishda mato xomashyosining yetishmovchiligi asosiy kamchiliklardan biri sifatida qaralgan[3].

Respublika Kiyim Modellarini Uyi nafaqat Germaniya Federativ Respublikasi, balki Angliya va Yaponiyadan ham turli matolar olib kelgan. Ushbu matolardan biri Angliyadan import qilingan oq rangdagi krimplen matosi bo'lgan. Fabrika ushbu matodan 1982 yilda 100 dona ayollar ko'ylagini ishlab chiqarmoqchi bo'lgan, biroq mazkur matoni olib kelish narxi ko'tarilganligi hamda matoga rang berish qimmatga tushganligi uchun mazkur turdagi ayollar ko'ylagi ishlab chiqarilmagan. Oqibatda muassasa 8,7 ming rubl zarar ko'rgan[4].

1980 yillarda ham 1950 yillarda bo'lgani kabi modalar uylari o'zlari yaratgan kiyim andozalari uchun matolarni fabrikalarga borib tanlagan. Bu holatda fabrikalarga asosan modalar uylarining modelyer va dizaynerlari yuborilgan. Chunki aynan ular o'zlari yaratgan kiyim andozalari qanday matolar mos tushishini va kerakligini yaxshi bilgan. Masalan, Respublika Kiyim Modellarini uyi 1981 yil 3 iyulda o'sha Modalar uyining dizayner-rassomlari Berezina va Konstantinovskayalari Chirchiq shahridagi ip-gazlama fabrikasiga, 2 iyulda dizayner Simonenkoni Qo'qon shahridagi ip-gazlama kombinatiga hamda 3 iyulda dizaynerlar Smolyakova, Klimenko va Aliosmanovalarni Toshkent tekstil kombinatiga mato tanlash uchun ish safariga yuborgan.

1982 yilda Respublika Kiyim Modellarini Uyi umumiy narxi 3650 ming rubl bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqishni rejalashtirgan. Amalda esa mazkur muassasa jami narxi 3614 ming rubl bo'lgan kiyim-kechak mahsulotlarini ishlab chiqargan. Yalpi mahsulotlarni ishlab chiqarishdagi pasayish kiyim-kechaklarning hamda xomashyolarning o'rtacha narxi pasayishi hisobiga yuz bergan. 1981 yildagi dasturda jami xomashyoning 80-85 foizi import qilinadigan va qimmat turadigan xomashyodan iborat bo'lgan. Xususan, ushbu matolarning bir metr o'rtacha narxi 30-35 rublni tashkil etgan. 1982 yilda O'zbekiston SSRga kerakli hajmdagi xomashyolarning import qilish keskin qisqargan. Shu sababli

1982 yilda import qilinadigan qimmat matolar o'rniga mahalliy ishlab chiqarish xomashyolari bo'lgan shifon, krepdeshin, sun'iy ipak kabi mahsulotlardan kiyim-kechaklar tikilgan. Ushbu matolarning bir metr narxi o'rtacha 15 rublni tashkil etgan. Boshqacha aytganda, 1982 yilda ham yalpi ishlab chiqarish hajmi 1981 yil bilan taqqoslaganda deyarli o'zgarishsiz qolgan. Jumladan, 1979 yilda yalpi ishlab chiqarish hajmi amalda 441, 1980 yilda 450, 1981 yilda 460 bo'lgan bo'lsa, 1982 yilda 462 bo'lishi rejalashtirilgan. 1960 yillarda gazlamalarning asosiy qismi yengil sanoat tizimiga qarashli korxonalarda ishlab chiqarilgan. Bu faqatgina Yevropa andozasidagi matolarga taalluqli bo'lmay, balki mahalliy matolar ham fabrikalarda ishlab chiqarilgan. Natijada mazkur davrda nafaqat tabiiy xom-ashyolardan, balki sintetik va sun'iy iplardan matolar to'qish rivojlanib borgan. Boshqa tomondan, 1970 yillarda tabiiy xom ashyolardan matolar to'qishga talab kuchli edi va amalda respublikadagi bir qancha fabrikalar ipak va boshqa mahsulotlardan gazlamalar ishlab chiqargan. Masalan, Marg'ildagi shoyi korxonasida krepdeshin, krepshifon va krepjorjet, Marg'ildagi "Atlas" korxonasida ipakdan atlas, xonatlas, beqasam va shoyi, Namangan shoyi ishlab chiqarish birlashmasida shtapel, viskoza, Samarqanddagi korxonada tukli va jakard gazlamalar hamda Qo'qon shoyi to'qish fabrikasida sun'iy iplardan abrli gazlamalar ishlab chiqarilgan. O'z navbatida sovet davrida o'zbek milliy matolari turli xorijiy davlatlarga eksport qilingan. Bunda xorijda o'tgan xalqaro ko'rgazmalar muhim o'rin tutgan. Aynan shunday ko'rgazmalarda milliy matolar reklama qilingan. Masalan, atlas matosi 1967 yilda Kanadaning Monreal shahrida o'tkazilgan xalqaro ko'rgazmaga qo'yilgan bo'lsa, 1978 yilda Yugoslaviyaning Zagreb shtatida bo'lib o'tgan xalqaro yarmarkada xonatlas "Oltin medal" bilan mukofotlangan.

1970-1980 yillarda O'zbekiston SSRda yengil sanoat mahsulotlarining aholi jon boshiga ishlab chiqarilishi yetarli bo'lmagan. Bu xom-ashyo va tayyor kiyim mahsulotlari hisobida ham yuz bergan. Masalan, 1970-1980 yillarda ip gazlamaning aholi jon boshiga iste'mol normasi 33,41 pogon metrni tashkil etishi kerak bo'lgan bo'lsa, O'zbekiston SSRda bu ko'rsatkich 1975 yilda 16, 2 pogon metr va 1983 yilda 15,6 pogon metrni tashkil etgan. Deryali ikki baravar kam raqamlarni ko'rsatgan. Shoyi bilan ham shu manzara kuzatilgan.

Xulosa. Shuningdek, Respublika Kiyim Modellarini Uyi Yaponiyadan har yili ma'lum miqdordagi krimplen matolarini import qilgan. Mazkur matodan odatda meduza ayollar ko'ylaklari tikilgan. Biroq, 1982-yilda mazkur matoning ko'tarilishi natijasida korxonalar ushbu matoni import qila olmagan. Buning oqibatida 6 ming rubl zarar ko'rgan. Yuqoridagi ma'lumotlar ko'rsatadiki, xorijdan olib kelingan matolar bilan odatda turli moliyaviy tushunmovchiliklar yuz bergan. sovet davrida kiyim-kechaklar uchun mato xomashyosini topish mushkul vazifa hisoblangan. Bu bir tomondan, mato turlari soni chegaralanganligi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, respublikadagi va xorijdagi korxonalaridan buyurtma qilingan matolarni o'z vaqtida olib kelish oson kechmagan. Shu sababli, amalda tikuvchilik fabrikalari o'z mutaxassislarini mato tanlash va saralash uchun mato ishlab chiqaruvchi korxonalariga yuborgan va ularning tavsiyalari asosida o'zlariga kelgan bo'lgan xom-ashyolarni sotib olgan. Bu yerda mahalliy ishlab chiqarilgan va xorijdan eksport qilingan matolar narxlari orasida katta tafovut mavjud bo'lgan. Shunga qaramasdan, sovet davrida ayollar kiyimlarini ishlab chiqaruvchilar doimiy tarzda mato yetishmovchiligiga duch kelgan.

ADABIYOTLAR

1. Ibragimova M. - Surxondaryo vohasi aholisining an'anaviy kiyimlari va taqinchoqlari (XIX asr oxiri –XX asr boshlari). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent. 2004. B. 37.

2. Davlatova S. - Qashqadaryo vohasi o'zbeklari an'anaviy kiyimlarining transformatsiyasi (XIX asr oxiri – XX asr). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent. 2006. B. 106-108.
3. O'zMA, R.2872-fond, 1-ro'yxat, 5-ish, 87-varaq.
4. O'zMA, R.2872-fond, 1-ro'yxat, 396-ish, 34-varaq.



Jo'rabek JUMAYEV,

Jizzax davlat pedagogika universiteti O'zbekiston tarixi kafedrasida o'qituvchisi

E-mail: jurabekjumayev738@gmail.com

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, I. Baxtiyorov taqrizi asosida

SOVET HOKIMIYATINING YANGI YERLARNI O'ZLASHTIRISH VA AHOLINI KO'CHIRISH SIYOSATINING MANBALARDA YORITILISHI (NUROTA VOHASI MISOLIDA)

Аннотация

Ushbu maqolada muallif tomonidan Sovet hokimiyatining yangi yerlarni o'zlashtirish va aholini ko'chirish siyosatining manbalarda yoritilishi O'zbekistonning Nurota vohasi misolida tahlil qilingan. Unda qo'riq yerlarni o'zlashtirish, yangi joylarga aholini ko'chirish uchun o'tkazilgan targ'ibot ishlari, qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan siyosat zamirida paxta yakkahokimligini yanada kuchayib borishi, mehnat migratsiyasi masalalari sovet davri va mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqotlarda qanday aks ettirilganligi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Nurota vohasi, qo'riq yerlarni o'zlashtirish, Turkiston, mustamlakachilik, Sovet hukumati, migratsiya, aholi migratsiyasi, Samarqand viloyati, Mirzacho'l, paxta, O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti.

ОСВЕЩЕНИЕ ПОЛИТИКИ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ ПО ОСВОЕНИЮ НОВЫХ ЗЕМЕЛЬ И ПЕРЕСЕЛЕНИЮ НАСЕЛЕНИЯ В ИСТОЧНИКАХ (НА ПРИМЕРЕ НУРАТИНСКОГО ОАЗИСА)

Аннотация

В данной статье автор анализирует освещение в источниках политики советской власти по освоению новых земель и переселению населения на примере Нуратинского оазиса в Узбекистане. В нем рассмотрено освоение новых земель, проводимая пропагандистская работа по переселению людей на новые места, дальнейшее укрепление хлопковой монополии в рамках политики, направленной на развитие сельского хозяйства, как отражены вопросы трудовой миграции в созданных исследованиях в советское время и годы независимости.

Ключевые слова: Нуратинский оазис, освоение заповедных земель, Туркестан, колониализм, советская власть, миграция, миграция населения, Самаркандская область, Мирзачоль, хлопок, Совет Министров Узбекской ССР.

COVERAGE OF THE POLICY OF THE SOVIET AUTHORITY ON THE DEVELOPMENT OF NEW LAND AND RESETTLEMENT OF THE POPULATION IN THE SOURCES (BASED ON THE EXAMPLE OF THE NURATA OASIS)

Annotation

In this article, the author analyzes the coverage in the sources of the policy of the Soviet government on the development of new lands and resettlement of the population using the example of the Nurata oasis in Uzbekistan. It examines the development of new lands, the ongoing propaganda work to resettle people to new places, the further strengthening of the cotton monopoly within the framework of policies aimed at developing agriculture, and how the issues of labor migration are reflected in the studies created in Soviet times and the years of independence.

Key words: Nurata oasis, development of protected lands, Turkestan, colonialism, Soviet power, migration, population migration, Samarkand region, Mirzachol, cotton, Council of Ministers of the Uzbek SSR.

Kirish. Sovet hokimiyatining O'zbekistonda yangi yerlarni o'zlashtirish uchun amalga oshirgan ko'chirish siyosati va uning natijalari Samarqand viloyati miqyosida, jumladan, uning qadimdan aholi yashab kelayotgan Nurota vohasi (tog' va tog'oldi qishloqlari) misolida hozirgacha maxsus tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Shuni hisobga olib ushbu mavzuga oid tadqiqotlarni ilmiy jihatdan shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin. Ular sobiq sovet davri tadqiqotlari va O'zbekiston mustaqilligi yillarida amalga oshirilgan izlanishlardir.

Qayd etilganidek, birinchi guruhni sovet hokimiyati yillarida yaratilgan asarlar tashkil etadi. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligini davom ettirgan sobiq Sovet hukumati XX asrning 20- yillaridan boshlaboq xalq manfaatlariga xizmat qiladigan siyosiy va ijtimoiy yo'nalishlardan butunlay voz kechdi. Rossiya imperiyasi ochiqdan ochiq mustamlakachilik siyosatini yuritgan, tub xalqlar turmushining kamsitilishini qonunlashtirgan davlat bo'lgan bo'lsa, sovet davriga kelib turli xil balandparvoz va dalar bilan xalqni aldab, ochiqchasiga zo'ravonlik va talash siyosati olib borildi. Shunga bog'liq holda mavzuga oid adabiyotlar sharhi Rossiya imperiyasi

mustamlakachiligi davridan boshlanadi. Turkiston o'lkasini xom ashyo bazasiga aylantirgan Rossiya imperiyasi rus burjuaziyasining talabiga ko'ra Turkiston qishloqlarida paxta yakkahokimligini o'rnatish uchun barcha zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirdi.

Rossiya sanoati uchun arzon xom ashyo yetkazish uchun birinchi navbatda paxta ekin maydonlarini ko'paytirish talab etilardi. Buning uchun imperiya hukumati yangi yerlarni o'zlashtirish va u yerlarda sug'orish tarmoqlarini barpo etishni tobora avj oldirdi. Natijada, 1900 yilda Turkiston paxtasi rus sanoati ehtiyojining 25 foizini tashkil qilib, bu raqam yil sayin oshib bordi va I jahon urushi arafasida 50 foizga yetdi. Imperiya gazlama sanoatining gurkirab o'sishi ana shu paxta tufayli edi.

1889-1916-yillar orasida Amerika navi ekiladigan Turkiston o'lkasi paxta maydonlarining 7 barobar kengayganligining boisi ham ana shunda edi [1]. Ushbu dalillarning o'zi Rossiya imperiyasi to'qimachilik sanoatini paxta xom ashyosi bilan ta'minlashda ro'y bergan o'zgarishlarni yaqqol ifodalaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. “Shoʻrolar davlatining paxta mustaqilligi” toʻgʻrisidagi masalasi oʻtgan asrning 20-yillari oxirida emas, balki ilk bor XIX-asr oxiri XX-asr boshlarida “Rossiya imperiyasining paxta mustaqilligi” koʻrinishida namoyon boʻlgan edi. Turkiston oʻlkasida yangi yerlarni oʻzlashtirish bilan bogʻliq masalalar tarixchilar tomonidan Rossiya imperiyasi davridayoq oʻrganila boshlangan [2].

Ushbu asarlarda taʼkidlanishicha, Oʻrta Osiyoning boy xom ashyo resurslariga katta ehtiyoj sezgan Rossiya imperiyasi koʻplab dasht va choʻl hududlarni oʻzlashtirishga kirishgach, bu yerlarga aholini majburiy ravishda koʻchirish siyosatini ham amalga amalga oshirgan. Aholini koʻchirish uchun maxsus “Koʻchirish boshqarmasi” tuzilib, uning oldiga Rossiyaning markaziy rayonlaridan “ortiqcha” aholini koʻchirish, yangi oʻzlashtirilgan yerlarning sugʻorish tizimini yoʻlga qoʻyish vazifasi topshirildi. Shu maqsadda 1899-yili Davlat kengashi Mirzachoʻlda 65 km.lik kanal qazish uchun 2025 ming rubl ajratdi [3]. Sugʻorish tarmoqlari qurilishi va yangi aholi maskanlarini tashkil etish maqsadida 1913-1915-yillarda Mirzachoʻlda uzunligi 63 km, chuqurligi - 3 metr, eni 6 metr boʻlgan dastlabki kanal qilib qurilgan. 1915-1920-yillarda zovurning Sardoba tarmogʻi ham qurildi [4]. Manbalardan koʻrinib turibdiki, paxta uchun kurashda Rossiya hukumati oʻz maqsadini amalga oshirish uchun barcha vositalarni va imkoniyatlarini ishga solgan. Bosqichma-bosqich Mirzachoʻl yerlarini, uning tuprogʻini oʻrganish, tadqiq qilish ishlari davom ettirilgan [5].

1893 yildan boshlab tadqiqotchi N.M.Virskiy masʼul muharrirligida Samarqand viloyati statistika qoʻmitasi tomonidan nashr etila boshlangan toʻplamlarda Rossiya imperiyasi maʼmuriyatining turli vakillari, olimlar, tadqiqotchilarning maqolalari va hisobotlari berib borilgan. XX-asr boshlarida Mirzachoʻl hududida sugʻorish shahobchalarining qurilishi, va yaylovlardan foydalanish masalasiga eʼtibor qaratilgan [6]. A. Middendorfning Fargʻona vodiysi aholisining dehqonchilik madaniyati va sugʻorish tizimi haqidagi maʼlumotlari ham mavzuni oʻrganishda ahamiyatli hisoblanadi [7]. Rus tadqiqotchisi A. Shaxnazarovning 1908-yilda oʻlka qishloq xoʻjaligiga bagʻishlab nashr qilingan 27 bobdan iborat asarida dehqonchilik uchun yerlarning oʻzlashtirilishi, chorvachilik turlari va qishloq xoʻjaligi zararkunandalari va ularga qarshi kurash kabi masalalar yoritilgan [3]. Mashhur rus arxeologi M.Ye. Masson tomonidan Jizzax vohasidagi sardobalar tarixi oʻrganilgan [8].

Taʼkidlash lozimki, Shoʻrolar davrida yaratilgan adabiyotlarda davlatni baynalmilalchilikka asoslangan, nazariy jihatdan barcha millat va elatlarga teng huquq va imkoniyatlar berishi haqidagi mafkurasi ustunlik qilardi. Biroq, amalda esa Sovet Ittifoqi oldingi imperiyaning vorisi sifatida totalitar davlat tizimini yuzaga keltirdi, bunda u davlat tuzilmalarining avvalgi hukmronligini rivojlantirdi va mustahkamladi, mintaqa iqtisodiyotini xom ashyo yetishtirishga yoʻnaltirdi [9]. Bu esa Sovet davlatining qishloq xoʻjaligi sohasidagi bir tomonlama siyosatiga keng yoʻl ochib berdi.

Bu kabi masalalar oʻsha davr mafkurasi tamoyillaridan kelib chiqib tadqiqotlarda bir tomonlama yoritilgan. Shunday boʻlsa-da, ularda oʻsha davrning haqiqiy manzarasini ochib beradigan katta hajmdagi maʼlumotlar tahliliy asosda, kerakli oʻrinlarda jadval va raqamlar asosida berilgan. Ular orqali XX-asrning ikkinchi yarimidagi koʻchirish siyosati bilan bogʻliq murakkab tarixiy jarayonlar toʻgʻrisida aniq maʼlumotlar olish mumkin. Aytish joizki, ular qatorida paxtachilikni rivojlantirish muammolari, yangi yerlarni oʻzlashtirish, yangi barpo etilgan sovxoz va kolxozlardagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot, mavjud muammolar, yangi tashkil etilgan xoʻjaliklarda erishilgan yutuqlar, istiqbolda kutilayotgan natijalar, paxta hosildorligini oshirish va uni

rivojlantirish masalalariga bagʻishlangan asarlar ham talaygina.

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi kabi yangi qoʻriq yerlarni oʻzlashtirish va sugʻorishga oid asarlarni uch guruhga boʻlish mumkin. Bular suv xoʻjaligi mutaxassislari, iqtisodchi va tarixchilarning asarlaridir. Birinchi guruhdagi nashr qilingan kitoblarda loyiha-qidiruv, muhandislik, qurilish va ekspluatatsiya, shuningdek ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari va qisman oʻrganilayotgan maʼlum rayonning qisqacha tarixi beriladi. Demak, bu ishlarda masalaning muhandislik-texnik tomonlari asosiy oʻrinni egallaydi [10].

Yangi yerlarni oʻzlashtirish va aholini koʻchirish bilan bogʻliq manbalar qatoriga oʻsha paytdagi respublika hukumati va Markaz tomonidan chiqarilgan qarorlar va berilgan topshiriqlarni ham qoʻshish mumkin. Bularga misol qilib 1946 yil 2 fevralda SSSR XKSning “Oʻzbekistonda 1946-1953 yillarda paxtachilikni tiklash hamda yanada rivojlantirish rejasi va tadbirlari haqida”gi Qarori [11], 1947 yil martda boʻlib oʻtgan VKP(b) MK Plenumining “Qishloq xoʻjaligini urushdan keyingi davrda rivojlantirish tadbirlari haqida”gi Qarori [12], SSSR Ministrlar Soveti va VKP(b) MKning “Oʻzbekiston KP(b) MK va Oʻzbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1947 yilda paxtachilikda yoʻl qoʻygan xatolari haqida”gi maxsus Qarori, SSSR Ministrlar Soveti va KPSS MKning 1954 yil 27 martdagi “1954-1955 yillarda qoʻriq va boʻz yerlarni oʻzlashtirish hisobiga don yetishtirishni koʻpaytirish haqida”gi hamda 1956 yil 6 avgustdagi “Oʻzbekiston SSR va Qozogʻiston SSRda sugʻorish va qoʻriq yerlarni oʻzlashtirish hisobiga paxta yetishtirishni oshirish haqida”gi bir qancha Qarorlari [13] ni sanab koʻrsatishimiz mumkin. Shu va boshqa koʻplab qabul qilingan qaror va direktivalardan ham bilish mumkinki, Oʻzbekistonda qoʻriq yerlarni oʻzlashtirish jadal surʼatlarda olib borilgan.

Maʼlumki, Oʻzbekistonning togʻ oldi va togʻli hududlarida qadimdan aholi dehqonchilik va chorvachilik xoʻjaligini yuritib, oʻtroq va yarim oʻtroq tarzda hayot kechirib kelgan. Nurota tizma togʻlari hududiy jihatdan Oʻzbekistonning markazida joylashgan boʻlib, qadimdan bu joy koʻchmanchi chorvador aholining bir joydan ikkinchi joyga koʻchishida oʻziga xos darvoza vazifasini oʻtgan, shuningdek muhim etnomuloqot hududi sifatida harbiy strategik ahamiyatga ega “sharqiy darvoza” vazifasini ham oʻtgan.

Darhaqiqat, SSSRda XX asrning 50-yillaridan boshlangan koʻchirish siyosati davrida Nurota vohasida yashaydigan xalq vakilari ishsiz aholi sifatida roʻyxatga kiritila boshlandi. Natijada, ularni koʻchirish kompaniyasi boshlab yuboriladi. Arxiv hujjatlarida taʼkidlanishicha, ishsiz aholini ishchi kuchiga talab yuqori boʻlgan yangi yerlarga koʻchirishda ham asosiy masalalardan biri mehnat resurslarini teng taqsimlash boʻlgan [14].

1959-yil 9-iyunda Samarqand viloyati kolxoz qurilish boshqarmasi boshligʻi Lazarevning maʼlumotnomasida Ishtixon rayon ijroiya komiteti raisining arizasiga binoan tumanga 400 xonadonni koʻchirib keltirish soʻralganligi qayd etilgan. Oblast ijroiya komiteti esa bu qarorni maʼqullagan va Qoʻshrabot-1 sovxozidan 100 xoʻjalikni koʻchirish haqida buyruq chiqarilsada, lekin birorta xonadon koʻchirilmagan. Vaholanki, Qoʻshrabot-1 sovxozida istiqomat qiluvchi 1000 dan ortiq mehnatga layoqatli aholining ishsizligi taʼkidlangan [15]. Yoki Samarqand viloyat koʻchirish boʻlimi boshligʻi P.F.Kinshakovning ushbu viloyat sovxozlar tresti boshligʻi A. Karimovga Oʻzbekiston SSR Ministrlar Sovetining 20-fevral 1958-yildagi №118-qarori ijrosi boʻyicha bergan bildirishnomasida ortiqcha mehnat resurslarini Mirzachoʻlga koʻchirish borasidagi ishlarini davom ettirib, 1958-yilda 700 ta xoʻjalikni koʻchirish rejalashtirilganligi taʼkidlanadi. Bunda koʻchirish boʻlimi bilan hamkorlikda oldindan ortiqcha ish kuchi boʻlgan sovxozlarni aniqlash va ularni sovxozlar

bo'yicha taqsimlash hamda mazkur rejani viloyat ijroiya komitetida tasdiqlash masalalari yoritilgan [14].

Aholini yangi yerlarga ko'chirish uchun amalga oshirilgan targ'ibot-tashviqot xarakteridagi masalalar aks etgan qator asarlar ham yaratilgan. Jumladan, K. Kurbonov, A.Kamionskiyning asarlari, shuningdek I.Frolkov va V.Kuliklarning hammualiflikda yozgan asarlari bunga misol bo'ladi [16]. 1950-1970-yillarda O'zbekistonda yangi yerlarni o'zlashtirish, unda yoshlarning ishtiroki masalalari ham ushbu davrda yaratilgan ilmiy adabiyotlarda o'z aksini topgan [17].

XX-asrning 50-80-yillaridagi Samarqand viloyatining tog' va tog' oldi tumanlaridagi qadimdan yashab kelayotgan, asosan lalmi yerlardan aholini yangi qo'riq yerlarni o'zlashtirish uchun bu yerlarda barpo etilgan xo'jaliklarga ko'chirilishi masalasi paxta xom ashyosining yalpi hajmini keskin oshirish kontekstida o'rganilgan. Ko'chirish siyosati aynan aholi migratsiyasining asosiy qismini tashkil etadi. Bu mavzu doirasida amalga oshirilgan tadqiqot ishlari ayrim hududlar misolida tadqiq etilgan. Shu o'rinda sovet davridagi agrar o'zgarishlarni respublika hududlarida tatbiq etilishiga bag'ishlangan, shuningdek, aholi migratsiyasi, O'zbekiston aholisining migratsion aloqalari va milliy madaniyatlar ravnaqiga bag'ishlangan asarlarni ham qo'shish mumkin.

Bu mavzuga bag'ishlangan tadqiqotlardan U. Mirzaaliyev, V. Boboyev, I. Mullajonov va L. Maksimovlarning izlanishlari va ilmiy asarlarini ko'rsatish mumkin [18]. Mazkur tadqiqotlarda qishloq aholisining yangi o'zlashtirilgan yerlarga ko'chirilishi va uning oqibatlarini yoritib berilgan. Aynan ko'chirish siyosati va uning mazmun-mohiyati, sodir etilgan tartibsizlik va qonunbuzarliklar hamda mazkur jarayondagi muammolar, ko'chirishni tashkil etishga bag'ishlangan asarlarga V.Stepanov, M.Yo'ldoshev, O. Verbiskayalarning tadqiqot ishlarini misol qilish mumkin [19]. Joylarda o'tkazilgan ko'chirish jarayonida rayon rahbarlari tomonidan vazifalarning o'z vaqtida bajarilmasligi oqibatida kelib chiqqan tartibsizliklar va aholida bu tadbirga nisbatan salbiy kayfiyat paydo bo'lganligi haqidagi ma'lumotlar arxiv materiallarida mavjud.

Masalaga bag'ishlangan arxiv hujjatlariga e'tibor qaratar ekanmiz, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Ishlab chiqaruvchi kuchlarni o'rganish Kengashi (SOPS) Mirzacho'l bo'yicha to'rtta to'plam chop ettirgan. Ularda respublikada irrigatsiyaning o'sha davrdagi holati va rivojlanish istiqbollari, texnikaviy darajasi va tashkil etilish masalalari asosiy o'rinni egallaydi [20]. Ushbu mavzuga oid adabiyotlarda sovet hokimiyati yillarida O'zbekiston kompartiyasining jamiyatdagi rahbarlik roli, qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish, bu yerlarda yangi kolxoz va sovxozlarning tashkil qilinishi, respublikaning boshqa viloyatlari jumladan, Samarqand

viloyatida paxta yetishtirishni ko'paytirish masalalari, cho'lquvarlarning madaniy-maishiy turmushi va faoliyati bilan bog'liq murakkab jarayonlar hamda ijtimoiy muammolar tadqiqot obyekti bo'lgan.

Ushbu tadqiqotlarda tanlangan muammo urushdan keyingi yillarda Samarqand viloyatida qishloq xo'jaligining rivojlanishini o'rganish kontekstida tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu izlanishlarda Mirzacho'l, Qarshi, va Farg'ona vodiysidagi yangi yerlarni o'zlashtirish jarayonida irrigatsiya va melioratsiya masalalariga e'tibor qaratilgan. Bu mavzu doirasida E. X. Xojiyev, A.Boltayev [21], R. Aminova, S. Mamarasulov, A. Mamedov, N. Jabborov, T.Abduraxmanova, A. Razzoqov, M. Vaxobov, N.Ergashev kabi ko'plab tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Ikkinchi guruh- mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqotlarda bir muncha tahliliy ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, ularda ko'chirish siyosati va yangi yerlarni o'zlashtirishdagi muammolar izchil tahlil qilingan. Bu kabi tadqiqotlarda sovet hukumatining O'zbekistondagi agrar siyosati, qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish hamda irrigatsiya-melioratsiya tizimiy rivoji ob'yektiv va xolisona asosda, asl manbalar orqali o'rganilgan. Bu mavzu doirasida bajarilayotgan dissertatsiyalarning ko'lamiga qarab aytish mumkinki, ko'chirish siyosati mustaqillik yillaridagi eng munozarabop va ko'p tadqiqotlar olib borilayotgan mavzular qatoriga qo'shildi [22]. Dissertatsiya ishlaridan tashqari bu mavzuda nashr qilingan monografiya, risola va ilmiy maqolalar ko'lami ham anchagina bo'lib, ular asosida xulosa chiqaradigan bo'lsak, mavzuning o'rganilganlik darajasi bir muncha mukammal kasb etgan [23].

Xulosa va takliflar. Mazkur guruh tarixshunosligi uchun xarakterli bo'lgan jihatlardan biri – O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligining ziddiyatli holati, xalq xo'jaligida asosiy e'tibor yangi yerlarni o'zlashtirish va paxtachilikning rivojlantirishga qaratilganligidir. Shu bilan birga mazkur jarayon respublika va oblastlarda aholi migratsiyasi, o'zlashtirilayotgan yangi yerlarni ekin maydonlariga aylantirish bilan bog'liq holda yoritib berilgan.

Xulosa qilib aytganda, o'rganib chiqilayotgan manbalar yangi yerlarning o'zlashtirilishi natijasida respublikaning paxta maydonlari kengayganligini ko'rsatmoqda. Yangi hududlarning o'zlashtirilishidan birinchi navbatda Markaz manfaat ko'rsa-da, infratuzulmalarning yaratilishi va ijtimoiy o'zgarishlar ma'lum ma'noda mahalliy aholining uy-joy, yangi ish o'rinlari bilan bog'liq ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilgan. Kelgusida sobiq Ittifoqning ko'chirish siyosatini viloyatlar kesimida yoki qishloqlarning joylashishiga qarab, ularni vohalar misolida yoritish masalalari ham o'z tadqiqini kutmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Qodirov A. O'zbekiston irrigatsiyasi tarixidan lavhalar. Toshkent: 1998, 79-80 betlar.
2. Караваев В. Ф. Голодная степь в ее прошлом и настоящем. П етроград, 1914.
3. Шахназаров А.И. Сельское хозяйство в Туркестанском крае. СПб., 1908. С. 107,512.
4. Boltayev A. Mirzacho'lining dastlabki sug'orish tarmoqlari //“Qadimiy Jizzax vohasi – Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tizimida (siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayot)”. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Jizzax 2019. B.240.
5. Коровин Е. Г. Освоение Голодной степи. Ташкент, 1949.
6. Вирский Н.М. Очерк Янгы-Курганской волости Джизакского уезда Самаркандской области / Справочная книжка Самаркандской области. Выпуск X. Самарканд, 1912.
7. Миддендорф А. Ф. Очерки Ферганской долины. СПб, 1882.С.289. Справочная книжка Самаркандской области. Самарканд. 1895. Вып. 3. С.606.
8. Массон М.Е. Проблема изучения цистеры-сардоба. //Материалы Узкомстариса. Т.: 1935. № 8.
9. Abduraximova N.A., Ergashev F.R. Turkistonda chor mustamlaka tizimi. “Akademiya”, Toshkent, 2002. B.3.
10. Усманов В. К. Социально-экономические последствия комплексного освоения целинных земель. Ташкент, Узбекистан, 1975. С.139.
11. Очерки истории коммунистической партии Узбекистана. Ташкент: Узбекистан, 1974. С.471768.
12. Коммунистическая партия Узбекистана в резолюциях и решениях съездов и пленумов ЦК. Том второй. 1938–1959. Ташкент: Узбекистан, 1988. С.270-296.
13. Ирригация в Узбекистане. В 4-х т. Ташкент, 1975.С. 7.

14. O'zR MDA. 2347-fond , 1-ro'yxat,53-ish, 119, 168, 170-varaqlar.
15. Samarqand viloyat davlat arxivi. 74-fond,1-ro'yxat, 952-ish, 48-varaq.
16. Курбонов К. Территориальная организация сельского хозяйства. (На примере Голодной степи и Джизакской степей Узбекской ССР). Ташкент, Фан, 1988.
17. Qalimbetov.J., Jalilov.D. Mirzacho'lni o'zlashtirishda O'zbekiston eshlarining ishtiroki. Toshkent: O'zbekiston, 1958.B.23.
18. Mirzaaliyev U.B. O'zbekistonda tarixiy-demografik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari (Sirdaryo va Jizzax viloyatlari misolida, 1956-2020 yy.) Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini oldish uchun yozilgan (PhD) diss... Toshkent, 2022.
19. Stepanov V. Kompleks o'zlashtirish problemalari// O'zbekistonda qishloq xo'jaligi. Toshkent, 1985. №10.B.56-58.
20. Egamberdiyev R.Razzoqov A. O'zbekistonda qo'riq yerlarni sug'orish, o'zlashtirish va va melioratsiyalash tarixi (Mirzacho'l misolida). Toshkent. 1984.
21. Boltayev A. Mirzacho'l - Jizzax: o'tmishi va buguni. Toshkent: 2007. B. 226.
22. Обломуродов Н. Развития аграрного производства Узбекистана в 1971-990 гг. Опыт уроки, проблемы. Автореф.дисс. ист. наук. Ташкент, 1994.
23. Tursunov S. N. O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirish yo'lidagi urinishlar. (1945-1965 yy). Niyatlar va natijalar. Toshkent, O'zbekiston, 1994. B.194.



UDK:930

Kamoliddin QOBULOV,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi

TISU prof., t.f.d N.Tursunov taqrizi asosida

BUXORO AMIRLIGINING IQTISODIY HAYOTIDA ICHKI SAVDO ALOQALARINING RIVOJLANISHI

Аннотация

Mazkur maqolada XVII asr oxiri – XX boshlarigacha Buxoro amirligidagi bekliliklar va ularning ichki savdo aloqalarida mahalliy aholi tomonidan yetishtirilgan qishloq xo'jalik, chorvachilik va hunarmandchilik mahsulotlari yetakchi o'rinni egallaganligi to'g'risidagi ma'lumotlar ilmiy manbalar, arxiv materiallari va tarixiy adabiyotlarga asoslangan holda yoritilgan. Rossiya imperiyasi davrida bekliliklardagi bozorlarda, asosan, xalqning kundalik hayoti uchun zarur bo'lgan eng muhim mahsulotlar naqda va ko'pincha tovar ayriboshlash yo'li bilan sotilganligi maqolada o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: Sharq, shahar, qishloq, Buxoro amirligi, Surxon vohasi, SHERobod bekligi, Denov bekligi, savdo, bozor, do'kon, rasta, mahsulot, oziq-ovqat.

РАЗВИТИЕ ВНУТРИТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЙ В ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА

Аннотация

На основе научных источников, архивных материалов и исторической литературы освещаются сведения о продукции земледелия, животноводства и ремесла, выращиваемой местным населением, занимавшей ведущее место в бекствах Бухарского эмирата и их внутренних торговых связях в период с конца XVII по начало XX веков. В статье отражено, что в период Российской империи важнейшие продукты, необходимые для повседневной жизни народа, продавались на базарах за наличный расчет и нередко в обмен.

Ключевые слова: Восток, город, село, Бухарский эмират, Сурханский оазис, Шерабадский бекства, Денавский бекства, рынок, магазин, ларёк, продукт, еда.

DEVELOPMENT OF INTRA-TRADE RELATIONS IN THE ECONOMIC LIFE OF THE BUKHARA EMIRATE

Annotation

On the basis of scientific sources, archival materials and historical literature, information about the products of agriculture, animal husbandry and handicrafts grown by the local population, which occupied a leading place in the bekgy of the Bukhara Emirate and their internal trade relations in the period from the end of the 17th to the beginning of the 20th centuries, is covered. The article reflects that during the period of the Russian Empire, the most important products necessary for the daily life of the people were sold in the bazaars for cash and often in exchange.

Key words: East, city, village, Bukhara Emirate, Surkhan oasis, Sherabad bekstva, Denava bekstva, market, shop, stall, product, food.

Kirish. Surxon vohasi bekliliklarida ichki savdo aloqalarining rivojlanishida muhim hisoblangan shaharlarning iqtisodiy hayoti, bozorlarning turlari, karvon yo'llari, savdo markazlari, qishloqlarda aholining joylashuvi va tabiiy-geografik muhit bilan bog'liq jihatlar maqolada o'z aksini topgan.

O'zbekiston hududida savdo-sotiq eng qadimiy davrlarda yuzaga kelgan. Ayniqsa, o'rta asrlarga kelib nafaqat shaharlarda, balki juda ko'p yirik qishloqlarda ham bozorlar aholi bilan gavjum bo'lgan. Butun Sharqdagidek, bu yerda ham mahalliy bozorlarni o'lkaning ko'zgusi desa bo'ladi. Juda ko'p shahar va qishloqlarda muayyan kunga belgilangan katta bozorlar bo'lib, ularga butun O'rta Osiyodan va chet ellardan savdogarlar kelgan[1].

Tarixiy manbalardagi ma'lumotlarda qayd etilishicha, O'rta Osiyo shaharlarida bozorlar IX – X asrlarda turli oziq-ovqat, hunarmandchilik va kundalik maishiy mahsulotlar turiga qarab ixtisoslashib borgan va XV asrning oxiri - XVI asr boshlarida yanada rivojlangan. Ayniqsa, bu davrda ichki va tashqi savdo ham ancha taraqqiy etib borgan va bu holat, xususan, Samarqand va Buxoro kabi shaharlarning qiyofasida yorqin namoyon bo'lgan.

Buxoro amirligi miqyosida yirik va mayda bozorlar faoliyati jadallashib borgan. Odatda, shaharlarning mavjudligini va yurt aholisining to'kin hayotini bozorlar ko'rsatgan. Bozorlarning katta-kichikligi, boyligi va boshqa

jihatlar shaharlarning mamlakatda tutgan o'rni va siyosiy vaziyat bilan bog'liq bo'lgan[2].

O'rta Osiyo bozorlari qurilishi jihatidan bir qancha umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan. Odatda, bozorlar odamlar gavjum bo'ladigan shaharning markaziy qismida katta ko'chalar kesishgan yerlarda va ko'chalar bo'ylab barpo qilingan. Yirik shaharlarda tijoriy ishlab chiqarishni o'zida aks ettirgan bitta asosiy bozor bo'lgan. Bunday bozor ko'pincha asosiy ko'chalar kesishadigan joylarda o'rnamashgan bo'lib, chorsu deb yuritilgan. Chorsular, asosan, usti yopiq gumbazli bozorlar bo'lib, ularning mayda bo'limlarida ham ma'lum mollar sotilgan. XIX asr yozma manbalarida, Samarqand shahri Chorsusiga Registon yaqinidagi chorrahada joylashgan usti yopilgan va har tomondan chiqish mumkin bo'lgan g'ishtdan qurilgan inshoot deb ta'rif berilsa, Shahrisabz va Qarshi shaharlari Chorsusi "uncha katta bo'lmagan, usti gumbaz bilan yopilgan aylana shaklidagi inshootdir" - deb ta'riflanadi [3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu maqolani yozish davomida bir qator ilmiy manbalar va tarixiy adabiyotlar tahlil etildi. Mazkur maqolada XVII asr oxiri - XX boshlarigacha Surxon vohasidagi bekliliklarda ichki savdo aloqalarining rivojlanishida mahalliy aholining yetishtirgan qishloq xo'jalik, chorvachilik va hunarmandchilik mahsulotlari hamda Rossiya imperiyasi davrida esa bekliliklardagi bozorlarda, asosan, xalqning kundalik hayoti

uchun zarur bo'lgan eng muhim mahsulotlar naqdga va ko'pincha tovar ayriboshlash yo'li bilan sotilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar ilmiy manbalar, arxiv materiallari va tarixiy adabiyotlarga asoslangan holda yoritilgan.

Maqolani yozishda arxiv hujjatlaridan tashqari, XIX asrning o'rtalarida A.P.Xoroshin asarlarida O'rta Osiyo, xususan, Buxoro amirligining ichki va tashqi savdo aloqalari, pul tizimi hamda savdo aloqalari, sharqshunos N.Mayevning ilmiy asarlarida Surxon vohasi beklklarining XVIII asr oxiri - XX asr boshidagi hududiy chegarasi, aholisi, qishloq xo'jaligi va hunarmandchiligi hamda karvon yo'llari haqida ba'zi ma'lumotlar berilgan.

I. Jabbarov va B.X.Karmishevalarning tadqiqot ishlarida vohaning tabiati va geografik holati, joylashuvi va o'rta asrlarda O'rta Osiyo bozorlari, mahalliy ichki bozorlar va ulardagi aloqa yo'llarida savdo munosabatlarining rivojlanishi va shakllanishi haqida ma'lumotlarni bayon etgan.

G.A.Agzamova "So'nggi o'rta asrlar O'rta Osiyo shaharlarida hunarmandchilik va savdo" asarida O'rta Osiyo xonliklarining shaharlari hayoti va aholisining mashg'ulotlari, hunarmandchilik va savdoning holati, shuningdek, Rossiyaning savdo markazlari bilan iqtisodiy aloqalari, hududlarni o'zaro bog'lovchi yo'llar va ularning faoliyatida yuz bergan o'zgarishlarni tarixiy taqqoslash orqali ko'rsatib berishga harakat qilgan. Shuningdek, Buxoro amirligida savdo munosabatlari, Surxon vohasida ijtimoiy-iqtisodiy hayot, aholining ijtimoiy ahvoli, bozorlardagi narx-navoneng qanday belgilanganligi tarixi bo'yicha R.Xoliqova, E.A.Qobulovlar tomonidan yozilgan tadqiqot ishlari va monografiyalarda ham bu to'g'risidagi ma'lumotlarni keltirib o'tishgan.

Tadqiqot metodlogiyasi. Maqola umum qabul qilingan tarixiylik, manbashunoslik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik va xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, XVII asr oxiri - XX boshlarigacha Buxoro amirligidagi beklklar va ularning ichki savdo aloqalari tarixi tadbiiq etilgan.

Tahlil va natijalar. Buxoro amirligining barcha hududlarida ichki bozorlar haftada ikki kun faoliyat ko'rsatgan. Qorako'l shahrida payshanba va yakshanba, Chorjo'y shahrida dushanba va payshanba, Kerki shahrida chorshanba va yakshanba, Kelif shahrida dushanba va juma, SHERobod shahrida payshanba va yakshanba, Boysun shahrida dushanba va payshanba, G'uzor shahrida payshanba va yakshanba, Qarshi shahrida seshanba va shanba, Chiroqchi shahrida chorshanba va yakshanba, Shahrizabz shahrida dushanba va payshanba, Yakkabog' shahrida chorshanba va yakshanba, Kitob shahrida seshanba va shanba kunlari bo'lgan [4].

Surxon vohasi qishloq xo'jaligi va chorva mahsulotlari yetishtirish bo'yicha Buxoro xonligida o'z o'rniga ega bo'lgan. Agarda xonlikda asosiy g'alla bozorlari Buxoro va Qarshi beklari hisoblan-sa, undan keyin G'uzor, Yurchi, Denov va SHERobod beklklari bozorlari turgan. Vohada yetishtirilgan g'alla mahsulotlari Boysun shahri orqali Qarshiga, SHERobod shahri orqali Karki shahriga olib borilgan [5].

Ma'lumotlarga qaraganda, har yili Qarshi bozoriga 1000 ta tuya guruch, bug'doy, kunjut, zig'ir kabi umumiy og'irligi 15 000 pud bo'lgan qishloq xo'jalik mahsulotlari jo'natilgan [6]. Surxon vohasining qo'shni beklklar bilan bo'ladigan savdo aloqalarida chorva mahsulotlari ham alohida o'rin tutgan. Sharqiy Buxorodan yig'ilgan chorva mollari Mirshodi bozorida to'plangan. Mirshodi bozoriga yig'ilgan qo'y va echkilar Boysunga, so'ngra G'uzor va Qarshiga haydalgan. Har yili vohadan o'rtacha 10000 dan - 20000 boshgacha chorva mollari haydab ketilgan [6].

Surxon vohasining iqtisodiy hayotida ichki savdo yo'llari va savdo-sotiqning alohida o'rni bo'lgan. Tog' va

tog'oldi hududlari aholisining tekisliklarda yashaydigan aholi bilan savdo aloqalari faol olib borilgan.

Savdo aloqalari, asosan, shahar markazlarida aholi gavjum joylashgan yerlarda tashkil qilinib, deyarli vohaning barcha ichki bozorlari haftaning ikki kunida faoliyat yuritgan hamda bu bozorlarga qo'shni beklklardan va qishloqlardan turli qishloq xo'jalik.chorva hamda hunarmandchilik mahsulotlari olib kelinib.ko'pincha mahsulot ayriboshlash yo'li bilan savdo-sotiq ishlari amalga oshirilgan. Surxon vohasi beklklaridagi eng katta bozorlar Termiz, SHERobod, Denov va Boysun bozorlari edi.

Bulardan tashqari mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan bozorlar ham bo'lib, aholining bozor mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishga xizmat qilar edi. SHERobod beklkligining tog'li Ko'hitang qishlog'idagi bozor haftaning chorshanba va shanba kunlari faoliyat yuritib, bu bozorga Amudaryodan G'uzorgacha bo'lgan yerlardan aholi chorva mollari, qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish va evaziga hunarmandchilik mahsulotlari xarid qilish uchun keladi [7]. Bugungi kunda ham bu bozor faoliyat yuritib, asosan, chorva va qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotishga ixtisoslashganligi bilan ajralib turgan.

Vohadagi yirik va gavjum bozorlar SHERobod beklkligi bozorlari hisoblangan. Ayniqsa, beklklning katta qismida rus armiyasi va fuqarolarining istiqomat qilishi hamda Sharq davlatlari bilan Rossiya o'rtasida savdo aloqalariga e'tiborning oshib borishi bilan SHERobod, Termiz, Pattakesar bozorlarining ombor vazifasini o'tashlari, eng muhimi vohaga temir yo'l tarmog'ining kirib kelishi savdo-sotiqning jadal o'sishiga olib kelgan. Bu esa bu bozorlarning dunyoning turli mamlakatlardan, xususan Rossiya fabrikalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan to'lib borishiga imkon bergan.

Beklklida uning amlokldorliklari markazlarida Xatak, Poshxo'rd, Zarabog', Ko'hitang, Jarqo'rg'on, Kakaydi va Xo'jamulkda bozorlari bo'lgan. Pattakesar bozori ancha gavjum bozor bo'lib bu yerda Rossiyadan fabrikalarida ishlab chiqarilgan matolarni ancha qulay narxda sotib olish imkoni bo'lgan. Beklik markazi sanalmish SHERobod shahri don mahsulotlari va paxta sotishda eng katta bozor sanalgan. Bu bozorga vohada yetishtirilgan paxtadan tashqari, Kelif beklklidan paxta sotish uchun aynan shu bozorga olib kelingan.

SHERobod bozori yakshanba va payshanba kunlari ishlagan. Rus amaldorlari tomonidan bu bozor faoliyati ancha sinchiklab o'rganilgan. Har bozor bug'doyning lalmi va tiramoi (kuzgi) turining har biridan 250 botmondan yangi hosil yig'ilgan paytda 500 botmongacha, lalmi bug'doyning har botmoni 3 rubl 60 kopeykadan - 4 rubl 23 kopeykagacha. tiramoi bug'doyning har botmonini 2 rubl 80 kopeykadan - 3 rubl 29 kopeykagacha, yorma 15 botmongacha 8 rubldan - 9 rubl 40 kopeykagacha, un 25 botmongacha 3 rubl 80 kopeykadan, lalmi bug'doydan tayyorlangani 4 rubl 47 kopeykagacha, tiramoi bug'doydan tayyorlangani 3 rubl 53 kopeykagacha, arpa 250 botmongacha har botmoni 2 rubldan - 2 rubl 35 kopeykagacha, har 100 bog' beda 3 rubldan-3 rubl 53 kopeykagacha, har 4 pud somon 20 kopeykadan - 23 kopeykagacha narxlarda sotilgan. Yangi hosil yig'ishtirib olinganidan so'ng, yoz oylarida SHERobod beklkligida 20.000 botmon bug'doy, 10.000 botmon arpa, 1000 botmon guruch yormasini (oktabr oyida) sotib olish mumkin bo'lgan [4].

Bozorda o'tin ham sotilgan. Beklik aholisi yoqilg'i sifatida yulg'un ishlatgan. Tog'lardan o'tinni tuyada (12 pud) gacha bo'lgan og'irlikda olib kelingan, o'tin yoz oylarida 50 kopeykadan, qishda esa 60 kopeykadan - 70 kopeykagacha sotilgan. Agar o'tinga talab bo'lsa, 1.200 pud yoki 100 tuya o'tin bilan bozorni ta'minlash imkoni bo'lgan. SHERobod beklkligining yirik harbiy-strategik va iqtisodiy markazlaridan biri hisoblangan Termiz shahriga o'tin, asosan, Qo'rg'ontepa-Qabodiyon beklklari va Jiliko'l amlakldorliklaridan qayiqalar

yordamida olib kelingan [10:1-varaq]. SHerobod bozorida kundalik ehtiyoj mahsulotlari quyidagi narxlarda sotilgan:

Ko'k choyning 1 funti 1 rubl 40 kopeykadan - 1 rubl 65 kopeykagacha, har bozor 6 funtgacha choy sotib olish mumkin bo'lgan.

Tuzning bir botmoni 40 kopeykadan - 47 kopeykagacha, ya'ni bir kunda bozorda 15 botmongacha tuz sotish mumkin bo'lgan.

Piyozning bir pudi 25 kopeykadan-30 kopeykagacha, bir kunda bozorda 4 pudgacha sotilgan.

Sovunning bir pudi 4 rubl 60 kopeykadan - 5 rubl 40 kopeykagacha, bir kunda bozorda 4 pudgacha sotish mumkin bo'lgan.

Mahalliy tamaki (nosvoy) ning bir pudi 1 rubl 60 kopeykadan - 1 rubl 88 kopeykagacha, bozor kunlari bir necha funtgacha sotish mumkin bo'lgan.

Mol go'shtining bir pudi 1 rubl 60 kopeykadan - 1 rubl 88 kopeykagacha, qo'y go'shtining bir pudi 2 rubldan - 2 rubl 35 kopeykagacha, qo'y yog'i (quyruq) 4 rubldan - 4 rubl 70 kopeykagacha, kuz oylarida esa bozor kunlari go'sht 8 pudgacha, quyruq 1 pudgacha sotilgan.

Sherobod aholisining katta qismi tog' va tog' oldi hududlarida istiqomat qilgani uchun chorvachilik mahsulotlari, xo'jalik faoliyatining muhim tarmog'i bo'lib, aholining katta qismi qo'y, qoramol boqib, uni bozorga chiqargan. Ushbu hududda katta mol bozori bo'lib, unda chorva mollari quyidagi narxlarda sotilgan: Masalan, 5 yoshli qoramol 12 (14 rubl 10 kopeykadan) rubldan - 20 (23 rubl 50 kopeykagacha) rublgacha, qo'y 4 (4 rubl 70 kopeykadan) rubldan - 6 (7 rubl 5 kopeykagacha) rublgacha, ot esa 30 (35 rub 25 kopeykagacha) - 40 (47 rublgacha) rublgacha, tuya esa 40 (47 rubldan) rubldan-60 (70 rubl 50 kopeykagacha) rublgacha baholangan.

Har bozor kuni 10 ta sigir, 150 tadan - 200 tagacha qo'y sotilgan. Xaridorlar talabiga ko'ra, asosan, bir oy davomida 50 ta sigir, 500 ta qo'y, 20 tagacha ot sotish mumkin bo'lgan[4].

Sherobod bekligida og'ir yuk tashishda, asosan, tuyalardan foydalanilgan. Bu ishlarni bajarish uchun qish oylarida 1000 tagacha, boshqa paytda esa 500 tagacha tuyalarni ijaraga olish mumkin bo'lgan. Tuyalarni ijaraga olib, oylar davomida ishlatish mumkin bo'lgan va ular uchun ham ma'lum bir narx belgilangan. Masalan, nor tuya 16 pud yuk ko'targani uchun kuniga 80 kopeykadan - 94 kopeykagacha kira haqi bilan belgilangan[4].

Buxoro amirligida og'ir yuk yoki g'alla mahsulotlarini tashishda quyidagi narxlar belgilangan. Masalan, G'uzor shahrigacha 2 rubl 60 kopeykadan - 3 rubl 5 kopeykagacha[4]. SHerobod shahridan G'uzor shahriga borish uchun avvalombor Rabotok orqali Oqqo'rg'onga, Karvontushdi - Bandixon -Ko'lqamish va Boysun orqali, Darbandgacha bo'lgan masofa hisobga olingan [7]. Darbanddan - Oqrobot qishlog'iga - Chashmaihofizon qishlog'i - Tangixoram qishlog'i - Qo'shilish qishlog'i va undan G'uzor shahriga kirib borilgan [11].

SHerobod shahridan - Cho'chqaguzar kechuvigacha yo'l haqi 1 rubl 60 kopeykadan - 1 rubl 88 kopeykagacha narxda belgilangan [4]. Ma'lumki, Cho'chqaguzar kechuvi Shimoliy Afg'oniston bilan olib boriladigan savdo aloqalarida muhim ahamiyat kasb etgan. Shu sababdan ham SHerobod bozoridan Cho'chqaguzar kechuvi tomon karvonlar harakati to'xtovsiz harakatda bo'lgan.

SHerobod - Cho'chqaguzar karvon yo'li nihoyatda qulay yo'l bo'lib, butun yo'l davomida 50 ta xo'jalik istiqomat qiladigan Beshqo'ton qishlog'i joylashgan [8].

Xulosa. Buxoro amirligidagi beklklar va ularning ichki savdo aloqalarida mahalliy aholi tomonidan yetishtirilgan qishloq xo'jalik, chorvachilik va hunarmandchilik mahsulotlari yetakchi o'rinni egallagan. Bozorlarda, asosan, xalqning kundalik hayoti uchun zarur bo'lgan eng muhim mahsulotlar naqdga va ko'pincha tovar ayriboshlash yo'li bilan sotilgan. Mahsulotlarni sotish va sotib olishda tovar ayriboshlash muhim o'rin tutgan.

ADABIYOTLAR

1. Жабборов Исо. Ўзбеклар (Анъанавий хўжалиги, турмуш тарзи ва этномаданияти). -Т.: "Шарқ", 2008. -Б.75.
2. Агзамова Г.А. Сўнгги ўрта асрлар Ўрта Осиё шаҳарларида хунармандчилик ва савдо. -Т.: "Ўзбекистон", 2000. -Б.39.
3. Хорошхин А.П. Самарканд (Листки из памятник книжки) // Сборник статей, касающихся до Туркестанского края.- Спб., 1876. -С.193.
4. Кап. Гинтылло. Индендантская сведения о Бухаре 1885 г. // Сборник геог. топогр. и стат материалов по Азии. - СПб., 1889.-С.4-43, 25, 28, 26-27.
5. Полк. Галкин. Краткий военно-статистический очерк в Бухарском ханстве и в южной части Самаркандской области // Сб.геог.топог. и статист. Мат.по Азии.Вып. 57.-СПб.,1894. -С.19.
6. Сб.геог.топог. и статист. Мат.по Азии.Вып. 57.-СПб., 1894.-С.374, 376.
7. Қобулов Э. Сурхон воҳаси хўжалиги. – Тошкент: Академнашр, 2012. – 390 б.
8. Кап.Васильев. Маршрутное описание дороги от г. Ширъабада до г.Байсуна 1889 г. // Сб.геог. топог. И стат. мат.по Азии. Вып.57. -СПб., 1894.-С.405-406, 404.
9. Қобулов Э. Россия ташки мунособатларида Сурхон воҳасининг стратегик ўрни // Республика илмий-назарий конференция материаллари.-Қарши, 2010.-Б.191.
10. Ўз МДА. 126-жамғарма, 2-рўйхат, 381-иш,1-варак.
11. Подполковник Матвеев. Поездка по Бухарским и Афганским владениям (1877) // Сборник геогр. топогр. и стат. Материалов по Азии. Вып.V. – СПб.: Воен. тип., 1883.-С.29-33.



Nozima MINGBOEVA,
Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti o'qituvchisi
E-mail: nozima_mingboeva@gmail.com

Andijon davlar pedagogika institutit dotsenti S.Yusupova taqrizi asosida

TOURISM IN UZBEKISTAN: PILGRIMAGE TOURISM

Annotation

The article highlights the progressive policy of the Republic of Uzbekistan in the field of tourism in the years of independence, material cultural monuments in the bosom of ancient times, steps of the ulama of the Islamic world and shrines cherished by our ancestors. The most common tourist opportunities of tourism sectors, the conditions under which they are obliged to be realized, are summarized.

Key words: Pilgrimage tourism, honest travel, Cultural Heritage, Tourism, Organization of Islamic Cooperation, kadamjo, shrine.

ТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПАЛОМНИЧЕСКИЙ ТУРИЗМ

Аннотация

В статье анализируется прогрессивная политика Республики Узбекистан в сфере туризма в годы независимости, материальные памятники культуры на древней земле, памятники и святыни ученых исламского мира, ценимые нашими предками. Обобщены наиболее распространенные возможности паломнического туризма туристских отраслей, условия их реализации.

Ключевые слова: Паломнический туризм, халяльное путешествие, культурное наследие, туризм, Организация исламского сотрудничества, мавзолей, святыня.

O'ZBEKISTONDA TURIZM: ZIYORAT TURIZMI

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillaridagi turizm sohasidagi ilg'or siyosati, qadim zamin bag'ridagi moddiy madaniy yodgorliklar, ajdodlarimiz tomonidan qadrlanib kelingan islom olami ulamolarining qadamjolari va ziyoratgohlar xususida ma'lumotlar taxlil etilgan. Turizm tarmoqlarining eng keng tarqalgan ziyorat turizmi imkoniyatlari, ularni ro'yobga chiqarish shart sharoitlari xulosalangan.

Kalit so'zlar: Ziyorat turizmi, halol sayohat, madaniy meros, sayyohlik, Islom hamkorlik tashkiloti, qadamjo, ziyoratgoh.

Kirish. XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida turizm jahon iqtisodiyotida muhim o'rin egalladi. Dunyo aholisi moddiy farovonligi darajasining ortishi dam olish va sayohat qilishga bo'lgan ehtiyojning kuchayishiga olib keldi. Natijada, har bir mamlakatda turizm jozibadorligini oshirish orqali sayyohlar oqimini boshqarish zarurati vujudga keldi. Jahonning barcha mintaqalarida, hususan, O'zbekistonda ham turistlarning reklama-axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish, mavjud infratuzilmani mukammallashtirish, turistlar xavfsizligini ta'minlash strategik maqsadlardan biriga aylandi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzu yuzasidan ilmiy tadqiqot natijalari mavjud. Xususan ularga Ya. G'.G'ulomovning tadqiqotlarida O'zbekistonda mavjud moddiy madaniyat yodgorliklarini asrash va muhofaza qilish masalalari o'z ifodasini topganligini tushunish mumkin[1]. Ammo ularning tadqiqotlari sovet mafkurasi ostida hamda areizm ruxida bayon etilgan manbalar bilan tenglashtirildi. Mustaqillik tufayli diniy madrasalar va masjidlarining tarixini ilmiy taxlil etish va bu borada mafkuradan xoli etish borasida ham tadqiqotlar olib borildi. Bu borada etnograf N.Abdulaxatovning tadqiqotlari diqqatga sazovordir[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Ziyorat turizmi mamlakat iqtisodiy va madaniy hayotini tubdan yaxshilashga hismat qiluvchi tarmoqlardan biri bo'lib, uni taxlil etishda xulosalash, adabiyotlarni taqqoslash, ilmiy xulosalash metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Ziyorat turizmi – turizm sohasining jadal rivojlanib borayotgan va XXI asrning yetakchi trendiga aylanayotgan yo'nalishlaridan biri bo'lib,

xalqlar orasida tinchlik va do'stlik aloqalarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ziyorat turizmining aholi turmush darajasini yuksaltirish va jamiyatning o'zgarishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ziyorat turizmining barqaror rivojlanishi butun dunyo bo'ylab madaniy va insonparvarlik aloqalarini rivojlantirish bo'yicha ulkan salohiyatga ega. O'zbekistonda ham hali ishga solinmagan imkoniyatlar mavjud bo'lib, moddiy va ma'naviy meros ob'ektlaridan turizm resursi sifatida foydalana boshlanishi natijasida, respublika mintaqalari orasida raqobat vujudga kelishi turizm rivojida ijobiy natajalarni bera boshladi[3].

Ziyorat sayyohligi O'zbekistonda faol rivojlanayotgan yo'nalishdir. Mamlakatimizda ko'plab diniy yodgorliklar va muqaddas qadamjolar joylashgan. Global Muslim Travel Index (GMTI) ning 2019 yil reytingiga ko'ra, O'zbekiston Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT) mamlakatlari orasida eng jozibali o'n mamlakatlar qatoriga kiradi[4]. O'zbekiston ziyorat turizmi uchun qulay manzil hisoblanadi. Islom olamida mashhur ko'plab ulamolar yurtimizda yashab ijod qilgan. Shu bilan birga, mamlakatimizda boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchilar uchun ham aziz bo'lgan tarixiy qadamjolar bor. Islom dunyosining eng qimmatbaho Qur'oni karim namunaridan biri – Xalifa Usmon Qur'on kitobi saqlanuvchi Hazrati Imom majmuasi, buyuk islom imomi Mahammad Al-Buxoriy maqbarasi, Naqshbandiya tariqati izdoshlari maqbalari va shu kabi ko'plab boshqa diniy markazlar mavjud. Bunday tarixiy va muqaddas qadamjolar ziyorat va sayohat qilish uchun har yili dunyoning turli burchaklaridan minglab sayyohlar O'zbekistonga tashrif buyuradi. Qator

mualliflarning fikriga ko'ra, musulmonlarning yer yuzi bo'ylab turli maqsadlarda, diniy ibodatlarini ado etish (haj va umra), rizq izlash va umuman boshqa sabablari bilan sayohat qilishi turizm sohasida o'ziga xos yondashuv va standartlarga asos solinishiga sababchi bo'ldi.

Xususan turizm mutaxassislari musulmonlarning diniy talablaridan chiqmagan holda har qanday sabab bilan sayohat qilishlarini barcha uchun birday tushunarli bo'lishi uchun qanday nomlanishi ustida fikrlar bildirganliklarini ta'kidlash lozim. Ziyorat turizmi, Islomiy turizm, diniy turizm, shar'iy turizm, halol turizm kabi taklif etilgan atamalarning muammoli jihatlari bo'lganligi sababli, bahs va munozara, diniy soha va turizm mutaxassislarining fikrlaridan kelib chiqib Muslim-friendly travel (musulmonlar uchun qulay turizm) atamasi ma'qul ko'rilgan[3].

Halol sayohat bo'yicha - Crescent Rating tashkiloti tomonidan 2017 yilda tuzilgan reytingda O'zbekiston 28-pog'onani egallagan edi. Reytingda mamlakatimiz - xavfsiz sayohat (100 dan 84 ball), ibodatxonaga kirish erkinligi (80), - ovqatlanish imkoniyatlari va kafolatlari (70) yo'nalishlarida yuqori baholangan. Ammo - viza (50), aeroport imkoniyatlari (48,3), - oilaviy ta'til (44,4), yashash sharoitlari (33,2), - musulmonlar uchun imkoniyatlar (25), - sayyohlarning kelishi (21,2), - kommunikatsiya imkoniyatlari (19) yo'nalishlarida esa o'rta va quyi pog'onalarni egalladi. 2018 yilda reytingda quyi darajada baholangan, kam rivojlangan yo'nalishlarni yaxshilashga e'tibor qaratildi. Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi - Crescent Rating tashkiloti bilan hamkorlikda mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqdi. Ushbu tavsiyalar asosida xalqaro aeroportlarda ibodat amallarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratildi. Malayziyaning MS 2610:2015 - Muslim friendly hospitality services. Requirements standarti bo'yicha mamlakatimizda - Oz DSt:2018 Turizm xizmatlari. Musulmon mehmondo'stligi. Talablar standarti loyihasi ishlab chiqildi. Ziyorat turizmi sohasidagi eng muhim voqealardan biri yurtimizda ilk bor - halol standarti joriy etildi.

Mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirish borasidagi tadbirlar 2019 yilda ham davom ettirildi. Jumladan, mazkur yilning 5 yanvaridan e'tiboran O'zbekistonning madaniy-tarixiy va diniy ma'naviy merosi hamda an'analarini o'rganish uchun tashrif buyuruvchi xorijiy fuqarolarga 2 oygacha bo'lgan muddatga ziyorat vizasi joriy etildi[6]. 2019 yilning 21-23 fevral kunlari Buxoro shahrida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan mamlakatning xalqaro maydondagi ziyorat turizmi bo'yicha mavqeini oshirish maqsadida ziyorat turizmi bo'yicha I Xalqaro forum o'tkazildi. Mazkur forum doirasida O'zbekistonning ziyorat turizm markazlaridan biri sifatida tan olinishiga doir Buxoro deklaratsiyasining imzolanishiga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi[7]. Bundan tashqari, mazkur yilning 24-25 may kunlari Samarqand shahrida Xitoy, Rossiya, Fransiya, Italiya, Janubiy Koreya, Turkiya, Bosniya va Gersegovina, Polsha, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iziston mamlakatlarining yetakchi olimlari, turizm sohasi mutaxassislari ishtirokida «Buyuk Ipak yo'li chorrahasida ziyorat turizmining renessansi» mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya bo'lib o'tdi[8].

O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida" gi qonunida ziyorat turizmi haqida unda nafaqat diniy ulamo va avliyolar mangu qo'nim topgan joylar, muqaddas sanaladi, balki diqqatga sazovor joylar — inson va

tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo'lgan hududlar va turli marosimlar bajo etiladigan joylar ham bunday joylar jumlasiga kirishi qayd etiladi [9]. Demak, ziyorat turizmi ob'ektlari bo'lgan ziyoratgohlar moddiy-madaniy meros ob'ektlari, yodgorliklar sifatida aholining azaliy orzu-umidlari, istaklari va urf-odatlarini o'zida mujassamlashtirgan g'oyalar majmuasi sifatida asrlar osha xalqni ezgulik sari chorlab kelgan, ularning ma'naviy qarashlarini shakllantirgan. Xalqimiz ruhiy ehtiyojini qondirish va diniy nuqtai nazardan taskin topish yo'lida turli qadamjo va ziyoratgohlarga tashrif buyuradi hamda u yerda turli marosimlarni bajarib, bu boradagi zimmasiga tushgan vazifalarni bajarganlik hissini o'zida shakllantiradi[10].

Ziyorat turizmini rivojlantirishda muhim jihatlardan biri ziyoratgohlarni saqlash, restavratsiya qilish, shuningdek, ushbu maskanlarni nafaqat mahalliy halq e'tiboriga balki, dunyo mamlakatlari miqyosida ham tanitishdan iboratdir. Yuqoridagilardan kelib chiqib, mavzuning dolzarbligi shukkdaki, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyodagi mamlakatlar orasida ba'zi davlatlarga nisbatan yirik turistik salohiyati, sohada yuqori darajadagi raqobatga bardosh bera oladigan hamda turizmni yanada rivojlantirish uchun potensial imkoniyatlarga ega bo'lgan mamlakatlardan biri ekanligidir[11]. Ushbu ziyorat maskanlarining ba'zilar ushbu maskanlarga ziyorat qilish va boshqa maqsadlarda viloyatning turli burchaklaridan odamlar tashrif buyuradi. Ziyorat qilish bahonasida ziyoratchilar o'zlarining orzulari, muammolarini hal etish hamda ko'pincha dam olish maqsadlarini ko'zlaydilar. Ko'plab ziyorat maskanlari ommaviy qabristonlar yonida joylashgan bo'lib, ularga kelgan odamlar ba'zi bir amallarni bajaradilar. Masalan, taom tayyorlash, duo fotih qilish, farzand so'rash, ehson qilish va boshqa bir qancha amallarni bajaradilar. Hozirda ushbu ziyorat maskanlariga tashrif buyurish maqsadlari biroz o'zgargan. Ya'ni tashrifchilarni ko'proq dam olish maskanlariga yaqin bo'lgan hamda tabiat manzarasi bilan ajralib turuvchi joylar ko'proq qiziqtiradi. Ushbu joylarning tarixi, madaniy ahamiyati, etnik xususiyatlari afsuski kam qiziqish uyg'otadi va bu xolat ba'zi salbiy oqibatlariga olib keladi. Shu bois viloyatda mavjud ziyorat maskanlariga nisbatan dunyoqarashning o'zgarib borayotganligini inobatga olib ularni ilmiy taxlil etish dolzarb vazifalardan biridir.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rinida shuni ta'kidlash o'rinliki, O'zbekiston o'zining boy tarixi va madaniyati bilan har doim sayyohlarni o'ziga ohangrabodek chorlab kelgan. Bu makon boy tarixidan dalolat beruvchi qadimiy obidalar, muqaddas ziyoratgohlari, moddiy madaniy qadriyatlar bilan ham cheksiz imkoniyatga ega. Xususan, mustaqillik tufayli moddiy madaniy boyliklarimiz, qadimiy ziyoratgohlarimizni qayta jonlantirish kabi savobli ishlar boshlab berildi. Natijada mamlakatga sayyohlar oqimi ortib bormoqda. Ushbulardan kelib chiqib quyidagilarni taklif etish mumkin:

Ziyorat maskanlarini qayta ta'mirlash va horijiy sayyohlar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish;

Sayohat kartasini tuzish va onlayn mobil ilovalar yaratish;

Mavjds resurslarni ilmiy o'rganish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solish;

Harijy sarmoyadorlarni mamlakat ziyoratgohlariga qiziqtirish orqali investitsiya muhitini shakllantirish.

ADABIYOTLAR

1. Ya.G'ulomov. O'zbekistonda moddiy-madaniy yodgorliklarni saqlash, o'rganish yo'llari. – Toshkent, 1934. B. 120
2. N.Abdulaxatov. Farg'ona vodiysi aholisi turmush tarzida ziyoratgohlarning o'rni. Diss..T.: 2008
3. Mansurov M.Sh. Farg'ona vodiysida turizmning rivojlanish jarayonlari va holati (1980-2018 y). Diss. Avtoreferati. T. 2020

4. Global Muslim Travel Index 2019. Master Card & Crescentrating 2019. URL: <https://www.crescentrating.com/reports/global-muslim-travel-indeks-2019.html>
5. Xolxo'jaev S. Ziyorat turizmi, Islomiy turizm, diniy turizm, shar'iy turizm va halol turizm? <https://azon.uz/content/views/ziyosat-turizmi-islomiy-turizm-diniytur>
6. <http://xs.uz/uzkr/post/birinchi-khalqaro-ziyosat-turizmi-forumi-zhahon-hamzhamiyatida-katta-qiziqishga-sabab-bolmoqda>
7. <http://xs.uz/uzkr/post/birinchi-khalqaro-ziyosat-turizmi-forumi-zhahon-hamzhamiyatida-katta-qiziqishga-sabab-bolmoqda>
8. <https://islaminstitut.uz/?p=6867>
9. <http://zarnews.uz/post/ozbekistonda-ziyosat-turizmi-uchun-katta-imkoniyat-bo>
10. O'zbekiston Respublikasining madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risidagi qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001 y., 9-10-son, 180- modda; // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004 y.
11. Akchaev F. Jizzax vohasi muqaddas qadamjolari va ziyoratgohlari. (Etnosotsiologik tadqiqot). Tarix fani bo'yicha falsafa dokt dissertatsiya. -T.. 2019. – B 55
12. YaR To'raeboeva. Farg'ona Vodiysi Shimoliy-Sharqiy Xududlarida Maxalliy Turizm. // Miasto Przyszłości 25, 14-17 <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/277/262>



Guzalxon NORMURODOVA,
Tashkent State University of law Second year student

Reviewer: A.A. Ashirov, Doctor of Historical Sciences, Professor

HISTORY OF LEGAL ANTHROPOLOGY AND ITS PERSPECTIVES

Annotation

The scientific article presents the concept and essence of legal anthropology, studying it from a world-class point of view, as well as paying attention to its development trends throughout the world, including the Republic of Uzbekistan. This article examines the main perspectives of legal anthropology, its place and influence in modern times.

Key words: Legal anthropology, anthropology, law, development trends, digital technologies.

ОБ ИСТОРИИ ЮРИДИЧЕСКОЙ АНТРОПОЛОГИИ И ЕЕ ПЕРСПЕКТИВАХ

Аннотация

Научная статья представляет собой понятие и сущность юридической антропологии, изучая его с точки зрения мирового уровня, а также обращая внимание на его тенденции развития во всем мире, включая и республику Узбекистан. В данной статье, изучаются основные перспективы юридической антропологии, его место и влияние в современное время.

Ключевые слова: Юридическая антропология, антропология, право, тенденции развития, цифровые технологии.

YURIDIK ANTROPOLOGIYA TARIXI VA UNING ISTIQBOLLARI HAQIDA

Annotatsiya

Ilmiy maqolada yuridik antropologiya tushunchasi va mohiyati, uning jahon miqyosida o'rganilishi, shuningdek, butun dunyoda, jumladan, O'zbekiston Respublikasida rivojlanish tendensiyalariga e'tibor qaratiladi. Ushbu maqolada huquqiy antropologiyaning asosiy istiqbollari, uning o'rni va hozirgi zamondagi ta'siri ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Huquqiy antropologiya, antropologiya, huquq, rivojlanish tendentsiyalari, raqamli texnologiyalar.

Introduction. Legal anthropology is understood as the study of human existence through the analysis of oral or written monuments of law, that is, the study of its practices and legal systems characteristic of a historical society. Legal anthropology covers not only the history of ancient times, but also studies the legal forms of social life of people of the modern period.

First of all, legal anthropology or the anthropology of law is the teaching of humanity itself, then about its rights. In the course of studying jurisprudence itself, the main focus is on the person himself, while at the same time the main object of anthropology is also the person himself. Based on this, humans are the main object in legal anthropology and following this, legal anthropology is the science of a person as a social being in its legal manifestations, dimensions and characteristics.

Main part. There are a variety of fields of science in the world, and many of them have not yet been sufficiently investigated by scientists, spanning from ancient times to the present day. Legal anthropology is a unique field of study that provides insight into the interactions between legal systems and human culture. It is worth noting that we know almost ten thousand different legal systems, which are diverse among themselves and impress us with the fact that even if we analyze them, we will be surprised by the fact how diverse a person is and can create a lot [1]. Legal anthropology gives us the opportunity to understand how law shapes and influences human behavior, while at the same time allowing us to study how local customs and traditions influence specific legal systems, and how, in general, these systems affect society itself.

If you plunge into history, you can see how people without a legal system, or rather no state, no police, no courts, could regulate everyday issues in cooperation, in the family, and in society as a whole. Anthropologists, studying this

mechanism of ancient people, analyzed this by the fact that, despite where a person comes from, absolutely all people live in accordance with different rules of law [2].

Researchers and anthropologists discuss terminology as legal anthropology in different ways. For example, P.I. Kostogryzov writes that “the subject of legal anthropology is the legal existence of a person in all its versatility, what pre-revolutionary Russian lawyers called “legal life.” It seems possible to define this subject more strictly within the boundaries of the behavior of individuals and communities of different orders in the legal field, determined by the context of a particular culture, with its inherent variability and invariants” [5]. The author sees the tasks of legal anthropology in the knowledge of the legal behavior of people of different cultures and, on the basis of this knowledge, to identify those universals that determine the framework of legal behavior inherent in the species homo sapiens” [5].

V. S. Nersesyants interprets this term as follows: “Legal anthropology is the science of man as a social being in his legal manifestations, dimensions, characteristics. It studies the legal forms of people’s social life from antiquity to the present day” [7].

A. I. Kovler not only specifies the objects of analysis, but also significantly expands the subject of science: “Legal anthropology, or the anthropology of law, is a scientific and educational discipline that, through the analysis of oral or written monuments of law, the practice of social life, explores the processes of jurisprudence of human existence, characteristic of each historical type of civilization, and seeks to identify the patterns that underlie the social and legal life of human communities” [6].

Legal anthropology first appeared as a specific science in the second half of the 19th – 20th centuries. It was during this period that law and anthropology advanced equally, since almost all scientific anthropologists received a legal education

or were lawyers [1]. The founder of legal anthropology was the English lawyer and historian Henry Maine (1822 – 1888), who first began his study in the legal-anthropological direction [3]. At that time, legal anthropology or the anthropology of law did not develop in many countries, but for the first time it received its general development in jurisprudence itself, in countries such as England, Germany, France and Italy [1]. Many academic anthropologists relied on the fact that anthropology and law would always be together and would continue to develop on a large-scale level. Unfortunately, the prosperity of anthropology was invisible, but today it is gradually regaining its meaning.

In order to raise the level of development of this industry, it is necessary to add a separate subject to the system of higher education in the field of jurisprudence, such as the anthropology of law or legal anthropology. After all, students receiving a legal education must also study the history of law and its relationship with different nations. Moreover, it should be noted that the role of studying the anthropology of law enables students to study in more depth the legal systems of different countries and its relationship with the principles of society, from ancient times to the present day. It must be emphasized that today the development of the anthropology of law is gradually improving. One striking example is the French Association of Legal Anthropology, created under the leadership of Norbert Roulan. This association unites the research efforts in this area of scientists from different countries and regions of the world [1].

The importance of legal anthropology can be seen in several aspects at a global level that will be needed in the near future:

First, its most important aspect is the study of cultural differences in legal systems. Because, with the development of globalization and increasing international interactions, understanding cultural differences in approaches to justice has become increasingly important.

Secondly, the study of legal anthropology's response to global problems may develop in the future, since it is important to note that climate change, migration, pandemics, etc., affect the law itself and often lead to some changes in the legal system itself.

Third, legal justice has always been a core aspect of jurisprudence, and legal anthropology provides an opportunity to contribute to the study of how legal systems promote or hinder the achievement of social justice, as well as to compare how different societies interact with the law and how these systems may develop in the future.

In addition, digital technologies are developing on a large scale in the 21st century. Consequently, this provides a huge opportunity to do more research on the field of legal anthropology and record sources of information, which makes it easier to find the information you need much faster. Thanks to digital sources, anthropologists, lawyers, scientists will find it easier to introduce research on legal anthropology. The role of digital technology in the field of history and law itself plays a significant role, since through this, historians have access to digital archives and collections, allowing them to research without the need for a physical presence in the archives themselves. In addition, the use of the Internet and network technologies allows anthropologists and lawyers to exchange knowledge, participate in collective research and discuss their discoveries online.

The Republic of Uzbekistan, as one of the developing countries, strives to be the best in every branch of science. It is pleasant to note that the anthropology of law is gradually developing and being taught to students of higher education. Also, it is worth noting that the President of the Republic of Uzbekistan Sh. M. Mirziyoyev, in his address to the participants of the Asian Forum on Human Rights in 2018, noted: "All civilizations, world cultures and religions, were created, as history shows, under the influence of humanistic ideas, on the basis of which the basic concepts of human rights were formed" [4]. From here, we can understand that legal anthropology occupies a very significant place in the legal system of each state. For example, at the Tashkent State University of Law, students study subjects such as legal history and theory of state and law, where one can find elements of legal anthropology and its mechanisms in different branches of law. The study of legal anthropology by students allows them to adapt to changes in the legal field, because it is known how the legal system can change under the influence of sociocultural and economic factors. It is also important to note that studying this branch of science allows students to develop critical thinking, since they will analyze and compare different legal systems.

To conclude, it can be concluded that legal anthropology is a unique field of study that provides insight into the interaction between legal systems and human culture in various parts of the world. Although the study of legal anthropology is the study of societies long gone in history, we believe that this branch of law has its own future. After all, the gradual introduction of this branch of science into the education system allows the anthropology of law to develop even further.

REFERENCES

1. Rulan N. Legal anthropology - M.: Publishing house NORMA, 2000. P. 310
2. Anthropology of law: textbook for universities / A. I. Kovler. — Rep. ed. 2019. 480 p.
3. Anthropology of Law - Wikipedia (wikipedia.org)
4. Mirziyoyev Sh.M. Address by the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M. Mirziyev to the participants of the Asian Forum on Human Rights\Asian Forum on Human Rights "Results of the 70th anniversary of the Universal Declaration of Human Rights: challenges of time and reality" (Materials of the Asian Forum on Human Rights November 22-23, 2018., Samarkand)
5. Kostogryzov P.I. Legal anthropology in search of a paradigm // Scientific yearbook of the Institute of Philosophy and Law of the Ural Branch of the Russian Academy of Sciences. 2017. T. 17, issue. 4. pp. 81–99.
6. Kovler A.I. Anthropology of Law: a textbook for universities. M., 2002.
7. Nersesyants V. S. Legal anthropology as a science and academic discipline (preface) // Rulan N. Legal anthropology. M., 1999. pp. 1–6.



UDK:930

San'atjon RAJABOV,

Buxoro davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi

E-mail: lawyear@mail.ru

Tarix fanlari doktori professor Sh.A.Hayitov taqrizi asosida

THE ROLE OF ACADEMIC BORIBOY AHMEDOV IN DELIVERING HAFIZ TANISH BUKHARY'S "ABDULLANOMA" TO THE BROAD SCIENTIFIC PUBLIC

Annotation

This article talks about the scientific merits of the historian Boriboy Akhmedov in bringing the work "Abdullanoma" ("Sharafnomayi Shahi") by Hafiz Tanish Bukhari, covering the history of the socio-political and cultural life of Bukhara in the 16th century, to the general scientific community.

Key words: History of Bukhara, Boriboy Akhmedov, translation, social and political situation, Abdullanom, Sharafnomayi-shahi, Hafiz Tanish Bukhari.

РОЛЬ АКАДЕМИКА БОРИБОЙ АХМЕДОВА В ДОСТАВЛЕНИИ «АБДУЛЛАНОМА» ХАФИЗА ТАНИША БУХАРИ ШИРОКОЙ НАУЧНОЙ ОБЩЕСТВЕННОСТИ

Аннотация

В данной статье говорится о научных заслугах историка Борибоя Ахмедова в доведении труда «Абдуллонома» («Шарафномаи Шахи») Хафиза Таниша Бухари, охватывающего историю общественно-политической и культурной жизни Бухары XVI века, до общего научного сообщества.

Ключевые слова: История Бухары, Борибой Ахмедов, перевод, общественно-политическое положение, Абдуллонома, Шарафномаи-шахи, Хафиз Таниш Бухари.

HOFIZ TANISH BUXORIYNING "ABDULLANOMA" ASARINI KENG ILMIY JAMOATCHILIKKA YETKAZISHDA AKADEMIK BO'RIBOY AHMEDOVNING TUTGAN O'RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Buxoroning XVI asr ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti tarixini yorituvchi Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" ("Sharafnomayi shohiy") asarini keng ilmiy jamoatchilikka yetkazishda tarixshunos olim Bo'ribov Ahmedov ilmiy xizmatlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro tarixi, Bo'ribov Ahmedov, tarjima, ijtimoiy-siyosiy ahvol, Abdullanoma, Sharafnomayi-shohiy, Hofiz Tanish Buxoriy.

Kirish. Buxoro tarixining muhim manbalaridan biri Hofiz Tanish Buxoriy qalamiga mansub "Abdullanoma" ("Sharafnomayi shohiy") asaridir. Mazkur asar nafaqat Buxoro balki, O'rta Osiyo xalqlarining shayboniylar hukmronligi davri ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotini o'rganishda alohida ahamiyatga ega manba hisoblanadi. Asarning aniq faktlarga boyligi va unda tarixiy voqealarning keng yoritilganligi bilan o'sha davr birlamchi manbalaridan ajralib turadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ingliz sharqshunosi K.Styuart "Abdullanoma"ning Tipu Sulton kutubxonasi (Maysur, Hindiston)da saqlanayotgan nusxasi to'g'risidagi dastlabki ma'lumotni keltirib o'tgan[3:10].

I.I.Umnyakovning fikriga ko'ra "Abdullanoma" XX asr boshlarida L.A.Zimin tomonidan rus tiliga tarjima qilingan va qisman 1918 yili Toshkentda nashr etilgan. I.I. Umnyakov L.A. Ziminning tarjimasini "Abdullanoma"ning uchta nusxasi va o'sha davrga oid boshqa qo'lyozmalar xususan, Mahmud ibn Valining "Bahr ul-asror fi-manoqib ul-ahyor" nomli asariga qiyosiy solishtirish asosida bajarilganligini aytib o'tgan [2].

Sharqshunos olim V.V. Bartold ham 1924 yilda Bokuda bo'lgan ilmiy anjumanda L.A. Zimin tarjimasini va "Abdullanoma" haqidagi materiallarni to'plab nashr qilish zurliligini ta'kidlagan[2].

Sankt-Peterburglik sharqshunos M.A. Salohiddinova asarning rus tilidagi nashri ustida katta ish olib borib, birinchi va ikkinchi jildlarini (Moskva. 1983,1989) chop ettirgan.

Ko'pgina olimlarning asar tarjimasini bo'yicha jiddiy mehnat qilganliklariga qaramasdan asarning faqatgina to'rtidan bir qismi o'zbek va rus tillariga tarjima qilingan va asar nashri nihoyasiga yetmay qolgan.

"Abdullanoma"ning batafsil tarjimasini Sodiq Mirzaev tomonidan 1944 yildan boshlab O'zbekiston FA sharqshunoslik institutining kutubxonasidagi 2207 raqam bilan saqlanayotgan nusxa asosida amalga oshirilgan. B. Ahmedov asrning tarjimasini yakuniga yetkazish ishiga kirishganida S.Mirzaev tarjimasida ayrim kamchiliklar mavjudligini aytib o'tgan. Jumladan, B. Ahmedov asarning S.Mirzaev tarjima nusxasida 1584-1588 yillar voqealari mavjud emasligini tanqidga olgan.

B. Ahmedov Yunusjon Hakimjonovning ko'magida "Abdullanoma"ning Sankt-Peterburg va Bokuda saqlanayotgan nusxalari (D-88 va 446) asosida tarjima qilib, kamchiliklarni to'ldirilishiga erishganligini ta'kidlab o'tgan[4].

Abdullanomaning mukammal tarjima qilinishida Bo'ribov Ahmedovning xizmatlari alohida ahamiyatga ega. Asarning Sodiq Mirzaev, Yunusjon Hakimjonov tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan nusxasini nashrga tayyorlash, so'zboshi, shuningdek, tarixiy, jug'rofiy atamalar va ayrim hodisalarga sharh yozishda Bo'ribov Ahmedov ilmiy metodologiyasi bugungi kunda ham o'z kuchini saqlab kelmoqda.

"Abdullanoma"ning ikkala tarjimoniga ham asarning mustaqillik yillarida Bo'ribov Ahmedov tomonidan amalga

oshirilgan to'liq nashrini ko'rish nasib etmagan bo'lsa-da, ushbu nashr orqali ularning xizmatlari xalqimizning ilmiy-ma'rifiy mulkiga aylandi va tarjimonlarning nomlari tarix sahifalariga qayta muhrlandi. Asarining o'zbek tiliga tarjima qilingan birinchi jildi fors tilidan Sodiq Mirzaev tarjimasi asosida Bo'riboy Ahmedovning ilmiy muharrirligi va so'zboshi, shuningdek, tarixiy, jug'rofiy atamalar va ayrim hodisalarga 2000 dan ortiq sharhlar bilan 1999 yilda, ikkinchi jildi fors tilidan Sodiq Mirzaev va Yunusjon Hakimjonov tarjimalari asosida 2000 yilda ushbu tarixiy asarni shartli ravishda ikki jildda to'rt qismda "Sharq" nashriyotida chop etilib, keng ilmiy jamoatchilikka taqdim etildi. "Abdullanoma"ning mazkur ikki jildlik nashri O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti hamda Xalqaro Amir Temur xayriya jamg'armasi hamkorligida qayta nashrga tayyorlangan.

Tadqiqot metodologiyasi. B. Ahmedov "Abdullanoma" asariga yozilgan so'zboshi qismida asar to'g'risida batafsil ma'lumotlarni keltirib o'tgan[5]. Umumun olganda asar muqaddima va ikki qismdan iborat. Muqaddimada Abdullaxonning naslu nasabi, uning o'sha zamonning yirik ruxoniylaridan xoja Muhammad Islomga muridligi, Chingizxon, Jo'jixon, Muhammad Shayboniyxon haqida, shuningdek Movarounnahrning XV asr oxiri va XVI asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli haqida qisqa ma'lumot keltirilgan.

Tahlil va natijalar. Asarning birinchi qismi Movarounnahr, Janubiy Turkiston (hozirgi Afg'onistonning shimoliy qismi) va Xurosonda 1557- 1583 yillar orasida bo'lib o'tgan voqealar, ya'ni Abdullaxon II ning taxtga o'tirishi va pul zarb ettirishigacha bo'lgan katta davrni o'z ichiga olgan. Ikkinchi qism 1583- 1588 yillar, ya'ni Abdullaxon II ning taxtga o'tirishidan to'g'ri uzoq muddat davom etgan qamaldan so'ng shayboniylar qo'shini tarafdin fath etilishigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan.

B. Ahmedovning Buxoro tarixi bilan bog'liq ilmiy tadqiqot ishlarida berilgan ma'lumotlarga qaraganda, asarda tarixiy voqealar bilan bir qatorda Buxoro xonligining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, madaniy hayoti, Shayboniylar davlati va qo'shinining tuzilishi, Buxoro xonligining Eron, Turkiya, Hindiston, Sharqiy Turkiston va Rossiya davlatlari bilan olib borgan siyosiy va savdo aloqalari bayon etilganligini kengroq anglash mumkin. Asarda mamlakat poytaxti Buxoro bilan bog'liq faktik ma'lumotlarni uchratamiz. Jumladan, XVI asrda fan va madaniyat ravnaq topgani, Buxoro shahri atrofidagi (6 – 7 km masofada bo'lgan) Sumiton (Jo'ybor) qishlog'i shaharga qo'shib olinib, uning janubiy-g'arbiy tomondan devor bilan o'rab olingani, Jo'ybor xojalarning bobokaloni Abu bakr Sa'd maqbarasi atrofida masjid, madrasa va xonaqoh bino qilinib, Buxoroning obod bo'lishi qariyb o'n yil davom etgani xususida qimmatli ma'lumotlar yeltirilgan[1:389].

Sumitonda qurilgan madrasa va boshqa binolar xususida, Hofiz Tanish Buxoriy mana bularni yozadi: "To'g'risi, (u) shunday (bir) oliy bino bo'ldiki, andisha muhandisi hech qanday mubolag'asiz va lofsiz u baland binoning suratini chizishdan, tabiat naqqoshi bu keng mavzularni tafsiflashdan o'zini qiziq qiladi. Bundan tashqari, Abdullaxon II davrida faqat Buxoroning o'zida Abdullaxon, Gavkashon, Fatxulla qushbegi, Xoja Muhammad Porso madrasalari, yangi Chorsu (1570 yili), Karmana yaqinidagi Zarafshon ustiga ko'prik (1582 yili), qurildi. "Abdullaxon timi" nomi bilan dong'i ketgan usti yopiq bozor esa nafaqat Movarounnahrda, balki butun jahonda mashhur bo'ldi. Karvon yo'llari ustida ko'priklar, sardobalar qurildi hamda daryo o'zanlaridan yangitdan kanallar qazilib qishloq va shaharlarning suv ta'minoti yaxshilandi"[1:389]. Bu kabi ma'lumotlarning tarjima natijasida batafsil kelirilishi asarning ilmiy manbaviy qiymatini oshiradi.

Asarda xonlik shaharlari (asosan poytaxt Buxoroda) ilm-fan, adabiyot va kitob san'ati ham rivojlanganligi to'g'risida, Buxoroda yashab ijod etgan Mushfiqiy, Nizom Muammoiy, Muhammad Darvish Oxund, Zozi Poyanda Zominiy, mulla Amir Muhammad Amin Zohid, mavlono Abdullhakim kabi ko'plab ilohiyot olimlari, tabiqlar va shoirlar haqida o'ziga xos naqqoshlik va xattotlik maktabi shakllangani bo'yicha qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Buxoro xonligining XVI asrda Eron, Hindiston, Turkiya, Koshg'ar va Rossiya mamlakatlari bilan tashqi-iqtisodiy, elchilik va madaniy aloqalari bo'yicha bir qator ilm-fan uchun o'ta muhim ma'lumotlar keltirilgan. Bu ma'lumotlar orasida Buxoro xonligi bilan Hindiston o'rtasidagi 1572 – 1573, 1577, 1578, 1586 yillari elchilik almashinuvi, 1583 yili Buxoro elchisining Moskvadan qaytib kelishi, 1584 yili Sharqiy Turkiston, Mo'g'uliston, Xorazm va Eron elchilarining Buxoroga kelishi, turkiyalik mergan o'qchilarning shayboniylar qo'shinida xizmat qilishi, Buxorodagi hind savdo uyushmasi to'g'risidagi ma'lumotlar Buxoro xonligi tashqi siyosatini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

"Abdullanoma"da Shayboniylar xususan, Abdullaxon II ning mamlakatni boshqarishda diniy ulamolar (Jo'ybor shayxlari) ko'magi va qo'llab-quvvatlashiga suyanligi yaqqol ko'rsatilgan. Buxoro xonligi hududida istiqomat qilgan turli millat va qavmlar to'g'risidagi ma'lumotlar o'zbek xalqining etnik tarixini o'rganishda muhim o'rin tutsa, saroydagi hadya va tortiq qilish tartibi, aholi orasida amalda bo'lgan urf-odatlar to'g'risidagi qiziq ma'lumotlar har bir kitobxonni befarq qoldirmaydi. Biz asarning mazmuniga batafsil to'xtab o'tirmaymiz, voqealarning ayrim va eng muhimlarinigina bayon etamiz. XVI asrning birinchi yarmidan boshlab Movarounnahrda feodal tarqoqlik va ichki ziddiyat nihoyat avj oldi. Buxoroda Ubaydullaxonning o'g'li Abdulazizxon (1540—1550), Samarqandda esa Ko'chkinchixonning uchinchi o'g'li Abdullatif hokimiyatni qo'lga oldi. Shu yillari Shayboniy sultonlar va feodallarning toju taxt uchun talashishlari shu qadar kuchaydiki, na Abdulaziz va na Abdullatif kun sayin O'sib borayotgan feodal tarqoqlikning oldini olishga va feodallarning boshboshdoqlik harakatiga barham berishga qodir bo'lolmay qoldilar. Abdulazizxon 1550 yili vafot etdi. Lekin uning o'ringa xon qilib ko'tarilgan Muhammadyor sulton hokimiyatni qo'lda tutib qololmadi. O'sha yiliyoq Buxoro taxtini Pirmuhammadxon egalladi. Lekin uning hukmronligi ham uzoqqa bormadi. Oradan bir yil chamasi o'tgach, 1551 yili Toshkent hokimi Baroqxon va Samarqand hokimi Abdullatifxon ittifoqlashib, Buxoro taxtini egallash uchun qo'shin tortdilar. Shu kunlari Miyonkol viloyatida turgan Rustamxon o'z o'g'li O'zbekxon bilan Buxoroga, Iskandar sulton bo'lsa Karmanani tashlab ketdi. Pirmuhammadxon bo'lsa Buxoroni Muhammadyor sultonga topshirib, Balxga qaytdi. Pirmuhammadxon bilan Abdullaxon o'rtasidagi ziddiyat kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Bu nizo Buxoro olingandan keyin (1557) kimni xon qilib ko'tarish masalasida yana chukurlashdi. Ma'lumki, shu vaqtga qadar Shayboniylar o'rtasidagi qoidaga binoan shu xonadondan bo'lgan sultonlar ichida yoshi ulug'i xon ko'tarilardi. Abdullaxon Pirmuhammadxonning taklifiga binoan, unga Movarounnahrni topshirishga, o'zi esa Balxga hokim bo'lishga rozi bo'lgan va 6u haqda har ikki o'rtada ahdnoma ham imzolangan edi. Lekin Pirmuhammadxon o'z ahdda turmadi. Shundan keyin Abdullaxon o'z otasini Miyonkoldan Buxoroga olib keldi va uni Movarounnahrning yagona hukmdori deb e'lon qildi. Hofiz Tanish o'z asarida XVI asrning ikkinchi yarmida Boburiylar imperiyasi (Hindiston) bilan O'rta Osiyo o'rtasidagi siyosiy munosabatlar, shuningdek, O'rta Osiyo bilan Rossiya o'rtasidagi savdo munosabatlariga oid ayrim qimmatli ma'lumotlarni ham

keltirgan. O'sha vaqtlarda Movarounnahr (Abdullaxon) bilan Boburiylarning podshohi Akbar (1556—1605) o'rtasidagi siyosiy munosabatlar zaminida, asosan, Badaxshon, Shimoliy Afg'oniston va Xuroson uchun kurash yotadi. Abdullaxon o'sha yillari Balx va Badaxshonni o'z qo'liga kiritib, Kobulga ham taxdid qila boshladi. Akbar esa 1583 yilda Sindni va 1586 yilda Kashmirni bosib olib o'zbeklar davlatining janubiy chegaralariga yaqinlashdi. Keyinchalik, Abdullaxon Akbarshoh bilan bitim tuzib ichki feodal urush-janjallar va Turkiya bilan to'xtovsiz olib borilgan urush tufayli kuchsizlanib qolgan Eronni o'zaro taqsimlab olishga intildi. Akbar esa Balx va Badaxshonni, qo'l kelsa, Xuroson va Movarounnahrn ham o'ziga qaratish niyatida edi. XVI asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo bilan Rossiya o'rtasidagi savdo munosabatlari haqida "Sharafnomayi shohiy"da faqat Abdullaxon tomonidan Moskvaga yuborilgan elchilarning 1583-yili qaytib kelganliklari va ularning Moskvadan tuyalarga juda ko'p o'qdori, ov qushlari va boshqa matolar ortib keltirganliklari hikoya qilinadi. Mashhur rus tarixchisi S.V. Jukovskiy Buxoro elchilarining 1589-1595 yillarda ham Moskvaga borganliklarini qayd qilgan. Akademik V.V. Bartold bu elchilarning asosan ov ashyolari - miltiq, qo'rg'oshin, o'q-dori va ov kushlari (shunqorlar) keltirish uchun yuborilganligini ta'kidlaydi.

Asarda Shayboniylar qo'shinining tuzilishi haqida ham qimmatli ma'lumotlar keltirilgan: XVI asrda o'zbeklarning qo'shini Chingizxon va Temur davridagi jangovar tartibni saqlab qolgan, ya'ni Hofiz Tanishning so'zlari bilan aytganda, ota-bobolarning borasi, to'rasi va yasoqlariga amal qilgan holda tuzilgan. O'zbeklarning qo'shini ham asosan maymana (o'ng qanot), maysara (so'l qanot), qalb yoki g'ul (markaz)dan tashkil topgan. Qo'shinning oldida yarovul (avanpost yoki kichik razvedka otryadi), qorovul (qo'shinning oldi va yon tomonlarida boradigan maxsus bo'linma) turgan. O'z navbatida flanglarning ham ma'lum qanotlari (chanoh) va avangardlari bo'lgan. Markaz (qalb, g'ul) deb atalgan, lekin, asosan, ehtiyot

(rezerv) vazifasini o'tagan qism butun qo'shinning uchdan bir qismini tashkil etgan va unga xon yoki sultonlardan, amirlardan biri boshchilik qilgan. Markaz ham bir necha saf (markaz)dan iborat bo'lib, oldingi safda turuvchilar bayroqdor jangchilar (tug'chi) deb atalgan. Bayroq yonida turuvchi qismga ham sultonlardan biri bosh qilib tayinlanar edi. Masalan, 1554-1555 yili Farab yonida bo'lgan jangda Abdullaxonning bayroqdor qismlariga Do'stim sulton boshchilik qilgan. Hofiz Tanish bayroqdor qismning umumiy sonini ham keltiradi. Masalan, 1556-1557-yili Ilono'tti mavzeida Abdullaxon bilan Toshkent hokimi Darvishxon o'rtasida bo'lgan jang tafsili hikoya qilingan joyda Darvishxon qo'shinining bayroqdor qismi 30 ming kishidan iborat bo'lganligi aytiladi. Urush maydonini belgilashga ham alohida e'tibor berilgan. Buning uchun, albatta, suv va boshqa tabiiy qulayliklar bo'lishi shart bo'lgan. Jang maydonini tanlash va u yerda qo'shinni o'rni-o'rniga joylashtirish tovochi deb atalgan amirlar zimmasiga yuklatilgan. O'zbeklarning qo'shini ham Chingizxon va Temur qo'shini singari ko'p sonli dushman qismlariga alohida-alohida hujum qilish taktikasini qo'llagan. Hofiz Tanish o'z asarida XVI asrning ikkinchi yarmida Boburiylar imperiyasi (Hindiston) bilan O'rta Osiyo o'rtasidagi siyosiy munosabatlar, shuningdek, O'rta Osiyo bilan Rossiya o'rtasidagi savdo munosabatlariga oid ayrim qimmatli ma'lumotlarni ham keltirgan. Hofiz Tanish o'z asarida yuqorida bayon qilingan tarixiy voqealarni, ya'ni Movarounnahrn XVI asrdagi siyosiy ahvolini batafsil yoritib berdi.

Xulosa va takliflar. Hofiz Tanish al-Buxoriyning "Abdullanoma" asarining akademik B. Ahmedov tomonidan o'zbek tilida yaxlit holda nashr etilishi, asarni xalqimizning ilmiy-ma'rifiy mulkiga aylantirdi va tarjimonlarning nomlarini tarix sahifalariga qayta muhrladi. B. Ahmedovning tarjima va sharh berish borasidagi metodologiyasi bugungi kunda ham tarixiy asarlarni tahlil etishda xususan, Buxoro tarixiga doir manbalarni keng va chuqurroq o'rganishda o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. "O'qituvchi". T. 1994.
2. Stewart Ch. A. Descriptive Catalogue of the Oriental Library of the Late Tippoo Sultan of Mysore. Cambridge, 1809. N XXVII, p. 10.
3. Умняков.И. "Абдулла-наме" Хафиз-и Таны-ша и ее исследователи, стр. 317
4. O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. Fan. T. 1997. 9-10-11-son. 140-b
5. Hofiz tanish al-Buxoriy "Abdullanoma". "Sharq". T. 1999. 3-b.
6. Ahmedov B.A. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari. – Toshkent: O'qituvchi, 1991.
7. Badriddin Kashmiriy. Ravzat ar-rizvon. O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmasi, inv. №2094.
8. To'raev H. Jo'yboriylarni mashhur etgan siymolar // "Ma'rifat nuri", 1999-yil 22-noyabr
9. To'raev H. Buxoro hukmdorlari va Jo'ybor xo'jalari // Buxoro: Tarix sahifalari. – Buxoro: "Buxoro" nashriyoti, 1998.
10. Rajabov S. Buxoro tarixida jo'ybor xo'jalarining tutgan o'rni // "Sohibqiron yulduzi" jurnali. №3-son (53) 2023.
11. <https://ziyouz.uz>
12. <https://www.natlib.uz>



UDK: 94:323 (575.1)

Muhriddin RAHMATOV,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail: muhriddinrahmatov9399@gmail.com

T.f.n. dots. B.Haynazarov taqrizi asosida

THE ROLE OF SAID NOSIR MIRJALILOV IN THE PROGRESSIVE MOVEMENT OF PATRIOTS OF THE EARLY XX CENTURY IN THE TURKESTAN REGION

Annotation

This article describes the activities of the activist-patriot, intellectual, leader of the nation Saydnosyr Mirjalilov in the historical conditions specific for the beginning of the XX century in the Turkestan region. With the help of historical documents, memory books and articles, it was analyzed that Saydnosyr Mirjalilov, was sponsoring young people who had strong willingness to knowledge, by helping them in obtaining education in foreign countries, contributed to the development of education.

Key words: Progressive, jadid, Shouroi Islam, Ulama, Komak, criminal case, entrepreneurship, Aliyah (Oliya), Londara (London), Darmstadt.

РОЛЬ САЙДНОСЫРА МИРДЖАЛИЛОВА В ПРОГРЕССИВНОМ ДВИЖЕНИИ ПАТРИОТОВ НАЧАЛА XX ВЕКА В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ

Аннотация

В этой статье рассказывается о деятельности активиста-патриота, интеллектуала, деятеля нации Сайдносyra Мирджалилова в исторических условиях, характерных для начала XX века в Туркестанском крае. С помощью исторических документов, книг памяти и статей было проанализировано, что Сайдносyr Мирджалилов, спонсируя молодежи, жаждущих знаниями, тесно помогал им в получении образования в зарубежных странах, способствовал развитию сферы образования.

Ключевые слова: Прогрессивный, Джадид, Шурои Ислам, Улама, Кумак, уголовное дело, предпринимательство, Олия, Лондара (Лондон), Дармштадт.

TURKISTON O'LKASIDA XX ASR BOSHJARIDAGI TARAQQIYPARVARLAR HARAKATIDA SAIDNOSIR MIRJALILOV O'RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada XX asr boshlariga xos bo'lgan tarixiy sharoitlarda Turkiston o'lkasida taraqqiyparvar, ziyoli, millat xodimi Saidnosir Mirjalilovning faoliyati haqida so'z yuritiladi. Saidnosir Mirjalilov ilm talabidagi talabgorlarga homiylik qilib, ularni chetellarda ilm olishiga yaqindan yordam bergani, ma'orif sohasini rivojlantirishda jon bozlik ko'rsatganligini tarixiy hujjatlar, xotira kitoblar va maqolalar yordamida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Taraqqiyparvar, jadid, Sho'roi Islom, Ulamo, Ko'mak, jinoiy ishi, tadbirkolik, Oliya, Lo'ndara (London), Darmshtadt.

Kirish. El xizmatida bo'lgan taraqqiyparvar "xodimi millat" Saidnosir Mirjalilov 1884 yili Turkiston shahrida tavallud topgan. Yoshligidan o'ta ziyarak, tadbirkor va mehnatkash bo'lgan Saidnosir tujjorlik faoliyatini kichik bir gazlama do'konini ochishdan boshlagan edi. Turkiston shahrida ilk jadid maktabi va paxta tozalash zavodini ochgan, keyinchalik Toshkentga kelib, jadiclarning safdoshi sifatida ularning ko'plab g'oyalarini moddiy qo'llab-quvvatlagan Saidnosir Mirjalilov o'z davrining ma'rifatparvar boylaridan edi. 1914 yil 25 desyatina yeri, 40-50 ming puli bilan paxta tozalash zavodini quradi. 1914-17 yillar davomida Turkistonning taniqli boyi va savdogarlaridan biri sifatida shuhrat qozongan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Muayyan davrning tarixiy sharoitlarida Turkistondagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy holatlarini bir qator tadqiqotchilarning izlanishlarida tahlil qilingan. Jumladan, akademik N.Karimov va S.Agzamxodjayevlar jadid marifatparvarlarini Turkistondagi siyosiy jarayonlarda tutgan o'rni yuzasidan tadqiqotlar olib borishgan. O'z navbatida Jadid marifatparvarlik harakatini g'oyaviy asoslari masalasi B.Irzayev tomonidan o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Saidnosir Mirjalilov podsho Nikolay II davrida musulmon xalqlari uchun yangi usulli maktablar ochishga ruxsat berilmagan bir paytda

Turkistonda yashirincha tarzda maktab ochadi. Hatto dars o'tishi uchun tatar millatiga mansub bir muallimni oilasi bilan ko'chirtirib olib ham kelgan[1]. "Sho'roi Islom" tashkilotining a'zosi sifatida Turkiston Muxtoriyati hukumatining 1917 yil noyabrda tashkil etilishida faol qatnashgan va hukumatning xazinachisi bo'lgan. Saidnosir Mirjalilov Turkiston Muxtoriyati hukumatining barpo etilishidagi faol ishtirokchilardan bo'lgan. Muvaqqat hukumat tarkibida Saidnosirboy xazinachi lavozimida ishlagan. S.Mirjalilov 1917 yil Turkiston shahar dumasiga saylanadi va siyosiy faoliyatga kirishadi. Fevral inqilobidan so'ng Toshkentda tashkil etilgan "Sho'royi islomiya" tashkilotining faol a'zolaridan biriga aylandi. Turkistondagi milliy ozodlik harakatining taniqli namoyandalaridan biri Saidnosir Mirjalilov Turkiston mustaqillikka erishishi orzuda 200 000 rubldan ortiq bor sarmoyasini Turkiston Muxtoriyati hukumati uchun hadya qiladi. O'zi uchun qanchalik xavfli bo'lishini anglagani holda Turkiston Muxtoriyatiga kirib, muvaqqat millat majlisi moliya komissiyasining raisi, hukumat g'aznachisi lavozimida ish olib bordi[2].

Tahlil va natijalar. S.Mirjalilov ochgan yangi usul maktabi haqida Zarifa Saidnosirova shunday yozadi: Dadam ichkari hovlining orqasiga yopishtirib maktab qurdirgan. Maktabga, bilmadim, Orenburgdanmi yo Qozondanmi,

Shokirjon Ibrohimov degan muallimni olib kelgan. Maktab bir, ammo nihoyatda katta xonadan iborat. Uzun-uzun partalar qo'yilgan. Undan bizning ichki hovliga kichkina eshik ham bor. Bu har ehtimol uchun qo'yilgan eshik. Agar chor hukumati taftish qilmoq uchun to'satdan biror odam yuborib qolsa, tashqaridagi kishilardan biri bu haqda darhol xabar qiladi. Maktabda ona tili, hisob, jug'rofiya, tarix darslari o'qitilar, butun darsliklar tatar tilida, Qozon va Orenburgdan keltiriladi edi. Kambag'allarning o'g'il-qizlari pulsiz o'qitilsalar, beklarning bolalari muallimga haq to'lar, buning badaliga dadam muallimni maosh bilan ta'minlar edi. Turkistondan chiqqan barcha ziyolilar shu maktabda tahsil ko'rganlar. Inqilobdan so'ng esa maktab yashirin-xufiya vaziyatdan tamomila erkin holatga o'tdi va burchakdagi sinfni tark etib, tashqaridagi baland, keng, qator derazali, ko'rkam xonalarga joylashib oldi[3]. Saidnosir Mirjalilovning Toshkentga kelib, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo'jayev, Cho'lpon kabi jadidlar bilan tanishuvi va ularning safiga qo'shilishiga ham aynan tijorat ishlari sabab bo'ladi. Savdo ishlari bilan Toshkentga tez-tez kelib turadigan Saidnosirboy (tijoratchi bo'lganidan uning ismiga boy so'zi qo'shib aytilgan) Shayxontohurdan ijaraga uy oladi. O'sha mahallada jadid ma'rifatparvarlar ham yashab, choyxona qilib, o'z g'oyalari haqida uzoq-uzoq suhbatlar qilishar ekan. Taomilga ko'ra, mahallaga yangi kelgan odam ular bilan tezroq tanishishi uchun choyxonada dasturxon yozib, osh berar ekan. O'sha paytda Munavvarqorining suhbatida bo'lgan odam jadid bo'lmasa ham, jadidlashib, ilm-ziyoli bo'lgan. Uning millat taraqqiyoti uchun jon kuydirishlari-yu g'oyalari Saidnosirboyning ham e'tiborini tortganidan va Turkistonning mustaqillikka erishishini xohlaganidan hech bir manfaatli o'z sarmoyalarini milliy istiqloq uchun olib borilgan kurashga tika boshlaydi. Jadidlarda buyuk maqsadlar bor edi, ammo ularni amalga oshirish uchun homiylar kerak edi. Saidnosirboygacha bunday odam bo'lmagan[4].

Saidnosir Mirjalilov, shuningdek, Hamza ta'qibda bo'lgan paytlari unga Turkistondagi uyidan boshpana ham beradi. Zarifa Saidnosirova buni shunday eslaydi: «Dadam azbaroyi adabiyotni sevganidan Hamza bilan ham yaqin do'st edi. U hatto Hamza qalamiga mansub bir necha she'riy to'plamlarning noshiri ham bo'lgan. Hamza Qo'qonda doimo xavf ostida yashaganidan 1917 yilda Toshkentga kelgan. Ammo dushmanlar bu yerda ham uni taqib qilganlar. Shu sababdan dadam bu iste'dodli sho'irni saqlab qolmoq zarurligini tushunib, uni Turkistonga, bizning uyga, zamonning notinch kunlari o'tib ketgunga qadar xufiya istiqomat etish uchun taklif qilgan va uni o'zi bilan olib kelgan»[5]. Muxtoriyat qonga botirilib, uning rahbarlari ta'qib ostiga olingach, S.Mirjalilov Qo'qondan chiqib ketishga majbur bo'ldi. Dastlab Samaraga borib, Turkistonda ro'y berayotgan xunrezliklarga chek qo'yish yo'llarini axtardi. So'ng Turkiya va Tiflisdagi bir muddat yashab, jahon hamjamiyatini Turkistonda kechayotgan dahshatlar haqida ogohlantirishga intiladi. Muxtoriyat qonga botirilib, uning rahbarlari ta'qib ostiga olingach, S.Mirjalilov Qo'qondan chiqib ketishga majbur bo'ladi. Bolsheviklarning Turkiston Muxtoriyati rahbarlariga nisbatan qidiruv va ta'qibi kundan kunga ortib borardi. 1918 yil mart oyida Toshkentdan Moskva shahriga yetib boradi. Shundan so'ng, 1918 yil yozida Kavkaz orqali Turkiyaga borib, Turkistonda kechayotgan dahshatlar haqida jahon hamjamiyatini ogohlantirishga qaror qiladi. Bu vaqtda Toshkentdan Turkiyaga Munavvar qori Abdurashidxonov tavsiyasi bilan mufti Sadriddinxon Sharifxo'jayev, "Ulamo" jamiyatidan Nuriddinbek Xudoyorxonov va G'ozzi Olim Yunusovlar kelgan edi. Rasmiy Turkiya bu vaqtda o'zining ahvolini nazarga olib, Turkiston muxtoriyati uchun bevosita yordam bera olmasligini, agar Turkistondan maxsus hay'at tashkil etilsa, "Antanta" hukumati rahbarlari bilan uchrashishiga imkoniyat yaratib berishi

mumkinligini ma'lum qiladi[6]. "Ulamo" jamiyati vakillari bu yordamni rad etib, Toshkentga qaytadi. S.Mirjalilov Istanbulda qolib, Turkiyada yashayotgan Shohid Ehsan Musayev, Nuriddin hoji Musoboyev kabi ko'plab vatandoshlar bilan uchrashadi. So'ngra Toshkentga kelib, Turkiyada olib borgan ishlari haqida Turkiston taraqqiyparvarlariga xabar beradi. Ikki hafta Toshkentda bo'lib, maxsus hay'at masalasini muhokama qiladilar. So'ng Krasnovodsk-Karki-Taxtabozor orqali Bokuga yo'l oladi va u yerda Turkistondan keladigan maxsus hay'atni kuta boshlaydi. Biroq Mahmudxo'ja Behbudiy va uning hamrohlarining Qarshida sirli o'limi barcha rejalarni o'zgartirib yuboradi. S.Mirjalilov 1919 yil yozida Tiflisga keladi va ikki yil davomida Tiflisdagi yashaydi. 1921 yil yozida Botumi orqali yana Istanbul shahriga borib, Turkistonning kelgusi masalasida muzokaralar olib boradi. Biroq vaziyat chigalligicha qolaveradi. 1921 yil so'ngida bolsheviklar e'lon qilgan umumiy afv tufayli Turkistonga qaytib, 1921 yil dekabrda Toshkentga kirib keladi. S.Mirjalilov hayotini Vatan va oilasidan uzokda tasavvur eta olmadi va qolgan umrini ham milliy ittihud va istiqloq uchun kurashga qaror qiladi. Toshkentga qaytib, bir muddat Tolibjon Musaboev, Najmiddin Sherahmadboyevlarning uyida turadi. Shundan so'ng "Turkiston" savdo-sanoat shirkatini tashkil qilib, undan tushgan foyda evaziga "Ko'mak" jamiyati orqali iste'dodli yoshlarni Germaniya va boshqa mamlakatlarga o'qishga yuborish, "Nashri maorif" jamiyati faoliyatini rivojlantirish ishiga o'z ulushini qo'shadi. 1923 yil yanvar oyida Toshkentda "Nashri maorif" jamiyati ochilganida S.Mirjalilov, T.Musaboevlar uning ta'sischilariga aylanadilar[7]. Saidnosir Mirjalilov saxiy va bag'rikeng inson bo'lgan. U ko'plab turkistonlik yoshlarni ilm-fanga, san'at va hunarga ilhomlantiradi. Ularga keragida homiylik, ustozlik qildi. Uning "jinoiy ishi"da bir qator turkistonlik talabalarining Berlindan yo'llagan maktublari mavjud. Xatlar S.Mirjalilovga yuksak ehtirom bilan, ayni paytda, do'stona ohangda yozilgan. Talabalar, avvalo, Germaniyadagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahvol, o'zlarining ilm yo'lidagi harakatlari va faoliyatlari, iqtisodiy holati haqida axborot beradilar. Qiziq jihati, sho'rolar hukumati talabalarni iqtisodiy siquvga olib, ularga pul yuborishning barcha yo'llariga to'siq qo'ygan edi. Shunday bir sharoitda S.Mirjalilov Moskvaga borib, u yerda faoliyat olib borayotgan olmon kompaniyalari bilan kelishib, pul yuborish yo'llarini topadi. Maktublarda maxfiy qilib yozilgan "Man" afandi aynan o'sha kishidir. Saidnosir Mirjalilov homiylik qilgan iqtidorli talabalardan Tohir Shokir (Tohir Chiqatoy (1902-1987) Ufadagi "Oliya" madrasasida, Boku dorumualliminida o'qigan. 1922 yil Germaniyaga kelib, Haydelberg universitetida 1931 yilga qadar falsafa, sotsiologiya va iqtisodiyotdan ta'lim olgan. Bryusseldagi iqtisodiyot fanidan. Saidxonim Sherahmedova (1905-1992)ning 1925 yil 20 yanvar Berlindan yozgan xatida u o'zbeqiymlarga xos shaddodlik bilan boy otaga "dakk" bergani ko'zga tashlanadi: "Qizlaringiz haqqindagi fikringiz bir qadar konservativ fikr ko'rindig'idin men bu fikrga busbutun qarshiyim va har chand hech o'lmazsa asarini anglaya bilajak bir daraja qadar o'qitmog'iniza tarafdoram. Turkistonda bo'lundug'i zamonda so'yladingiz mone'lar Toshkenta keldig'idin so'ngra qolmas deb ideya qildim" deydi. Shubhasiz, Germaniyada tahsil olgan ilk o'zbek qizlari Xayriniso, Maryam va Saidxonimlar o'sha vaqtlarda barcha Turkiston ayollarining faxri edi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, bu xatlar S.Mirjalilovga yetib ham borgan emas. Aksincha, pochtdan to'g'ri maxsus "idora"ga kelib tushavergan[8]. Keyinchalik o'z ustozlarining qamoqqa olinib, mahv etilganini eshitgan shogirdlar sho'rolar mamlakatiga qaytishdan bosh tortganlar. Quyida Germaniyada o'qigan ayrim talabalarining Saidnosir Mirjalilovga Berlindan yuborgan xatlaridan ma'lum qisqartirishlar bilan namunalar keltiramiz:

Aziz do'stim!

Ovro'poda bo'lib turg'on qiziq hodisalarni g'azetalarda o'qimoqda bo'lsangiz ham, bir qancha nuqtalarini qayd etub ketayin. Bu gap Ovro'poning eng qiziq bahs etmoqda bo'lg'oni bir masala bor esa, ul ham Lo'ndara (London) qo'nfironidir. Bu qo'nfironida ishtirok qilg'on davlatlarning raqobati va Amriqoning bunga doxila qiluvchi osmonlarina iste'foda maydoni ochmishki keladir. Ko'raylik nima bo'lar. Ovro'poning har tarafida bosimina botganlarda boshlangan qorishliqlardan olim mutafakkir va siyosiyarlari dunyo osmonining yanada qora bulutlar bilan to'la bo'linganin taxmin qiladirlar. Amaliy sohaga kelsak, tabiblar insonning umrini uzantu chorasini izlar, bu yo'lda muvaffaqiyat nishonalarini topmishlardir. Uning chun oz zamon so'ngra bu yo'ldan qattiq manfaat bo'lulariga inonub turodurlar. Bir olmon kimyogarining simobdan oltin chiqorg'onini yozmishdi. Tamom, Ovro'po va Amriqo kimyogarlari barobar yemak moddalarini daladan bog'chadan emas, kimyo xonalardan topuv choralarini axtara olar. Istadiki yerdagi konferensni eshitadir. Berlindagi bir odam hech bir malolsiz Londun, Parij, hatto Nuyu Yorkdagida teatrni ko'rar, musiqiyini eshitar. Bizda esa quruq so'z bozori. Yaxshi-yaxshi qarorlar. Har sana bir turli maorif tashkiloti, har sana bir imlo, har sana bir alifbo, har sana bir sira eski va yangi maktab masalasi muzokara qilinadir. Bir yil "Ko'mak", ikkinchi yil "Nashri maorif", uchinchi yil... bir yil yangi imlo, ikkinchi yil o'rta imlo, uchinchi yil lotin imlosi... to'rtinchi yil...

Hurmat ila, iningiz Tohir.

Adresim: Heidelberg, Handschuhsheimerlend str. 40.
4/ b gulden. T Ychaku

Darmshtadt 1924/

Muhtaram Saidnosir akam huzurlarina.

Bundan bir qoch avval,

taxminan Sizning Maskovdan Turkistonga ketajagingiz siralari da bir maktub yozmishstim va javobina noil o'labilmadim. Uning javobina intizoram, so'ngra bir doha siza maktub yozmamishstim. Shimdi balki maktubim olmamishingiz zanila va yozamen. Berlinning tumanli havosi va tahsila mone' o'la bilajak qadar g'uriltupi va dabdabali o'lmasi va digar masiya sababli bizim tabdil makoma etmoqa vador etdi. Yoziya do'qtirlarning tavsiyasila sihatimi etmom uchun Tohirilar barobar O'qtoyning (kichik Abdulvahhobi O'qtoy deydilar) bo'lundig'i shaharda 1,5 oy qadar qoldim, yoz siyosati boshlanar-boshlanmas unlarining yoqinida bo'lunadi. Shu Darmshtadt maktabina ko'chdim. Bu amalda Berlin maktabindan farqi o'lmayan oliy muhandis maktabidir. Buroyada kimyo sho'basidayam. Faqat buroya kimyo laboratoriyasinda kelanlar uchun birinchi semestrda yer verilmayajak. Maktabga qadar xususiy laboratoriyalarda tajriba go'ryuram. May oyi bitdi. Pora kelmadi. Va'da etdigim yerlarni porasi mutlaqo berilmagan edi. Ammo buroda hech kimsada pora yo'qdirki, qarz olsam. Talabalardada yo'q edi. Tohirda-da yo'q. Shu orada safot oyiga 28 dollardan beradir, dedilar. Shundan so'ng Tohirdan 40 dollar olib, laboratoriyaga to'ladi. Tohir va O'qtoyda yotoqqa to'ladi, hozirda qarzlirim bor. Bu qarzlirimni ko'pligi shulardandir. Bendin Tolibxo'ja akama, Salimxona, Cho'lpon afandilara va jumla birodarlara salomlar so'ylamakiza iltimos etaman.

Boqiy saodatla: salomat va ofiyatingiz duo etar iningiz Ibrohim o'g'li Sobir.

Darmshtadt, Am Erlenberg 19

Darmshtadt. 15 avgust 1924 yil.

Muhtaram afandim, maktubingizda menim ta'minotim haqqinda cholisha jog'ing'izni eshitib ko'p mamnun bo'ldim. Bizning 6 oyliq ta'minotimiz berilgan deb eshitganingizni bayon qilmishsiz. Bu haqda avvalgi maktubimda yozgandirman, deb o'ylagan edim, ko'rinar ki yozmag'onmen. Bizning 6 oyliq ta'minotimiz berilgan emas. Faqat 4 oyg'a qadar 28 dollardan berilib turilishi teleg'rom ila bildirilgan edi. Shundan kelib, har oyda 28 dollardan olib, bu qadar oz pul ila qast etgan ishlarimizning qaysi birini akmol (tugal) etishimizni bilmaymiz. U vaqt pulsizlik davriga tasodif etgan maktab pullarimizni bermak uchun mundan olingan qarzlirimizni beray desak, yashashga pul qolmaydir. Digar tarafdan olg'on burjlarimizni bergan odamlarda o'z talabalarimizdan bo'lgani uchun unida har holda tez beruv majburiyati his etiladir. Saidnosir aka, afv etingiz. Bu qurg'ur pul masalasi shunday asablarg'a qadar o'rnamshg'onki, inson beixtiyor yana shu haqida yozmaq majburiyatida qolar. Bu yoz laboratoriyada ishlamak manim uchun juda yaxshi fursatdir. Qishda esa darslarim ko'p bo'ladir. Tolibjon akama, Salimxona, Asadullaxona va sevikli shoirimiz Cho'lpona, qar-doshlarimizga yurakdan salomlar! Ortiq joningiz uchun duo idaram!

Buyuk ehtirom ila, iningiz Sobir Ibrohim o'g'li.

6 oktabr, 1925.

Sevikli valaddinim va qardoshlarim:

Bundan bir qancha vaqt avval bir maktubingizni olmishdim. U maktubda-da bu kundun so'ngra tez-tez yozushub turaman, deb va'da etganingiz meni anchagina suyuntirgan edi. Taassufki bu ham og'izda va'da bo'lib qoldi. Hech xabar yo'q. O'shal maktubingizda man afandina yuz dollar yuborajaklari yozilgan edi. Men ham yozub ayta qoldim. Ul kishi Muhammad Zohir akam ila pul ila aloqam yo'q. Uningchun bu pulni bera olmayman. Avvalgi maktubimda bir qadar xasta bo'lg'onimni yozmishstim. Bir o'n besh kun qadar yotib turdim. Emdi yaxshiman. Ishlarimni qilib turaman.

Hurmatlar bilan, Tohir.

Adresim shudir: Heidelberg Sehroders str 6/II b kratz.

Yuqoridagi monand maktublardan ham ko'rinadiki, xalqimizning asl ziyoli va saxovatli kishilaridan bo'lgan Saidnosir Mirjalilov o'sha vaqtda xorijga o'qishga ketgan vatandoshlarimizni imkon qadar moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlab turgan[9]. Saidnosir Mirjalilov 1925 yil 12-dekabr kuni Toshkent shahar, Shayxontohur mavze'si, Tarnovboshi mahallasidagi xonadonidan hibsga olinadi. 1925 yil 13 dekabr kuni to'ldirilgan shaxsiy anketasiga binoan uning oilasi: turmush o'rtog'i Qumrixon, qizlari Zulfiya, Zarifa, Sharifa, Ravza va Muboraklardan iborat edi. S.Mirjalilov hech biri asoslanmagan ayblovlar bilan Solovetsk orollariga qamoqqa hukm etildi. Uch yillik qamoq muddatini o'taganidan keyin 1932 yili yana besh yil muddatga qamaladi[10]. Bir necha marotaba qo'shib berishlar oqibatida Toshkentga farzandlari huzuriga faqat 1936 yildagina qaytib kelishga erishadi. Nihoyat 1937 yil 21 iyul kuni takror hibsga olinib, o'sha yilning 25 oktyabrida otib tashlandi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, XX asr boshlarida Turkiston hududida yuz bergan siyosiy o'zgarishlar bir qancha ma'rifatparvar jadidlarni besabab qatagon qurboni bo'lishiga sababchi bo'ldi. Bu vatanparvar jadidlar o'z millati, elati ta'lim va tarbiya olishi uchun molini, jonini fido qilganliklarini ko'rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Saidnosir Mirjalilov (1884-1937) // <https://ziyouz.uz/ozbek-ziyolilari/saidnosir-mirjalilov/>
2. [Худойкулов М.] Туркестоннинг бой ва қалби гўзал хазинабони // <https://uzhurriyat.uz/2021/11/17/turkistonning-boy-va-qalbi-guzal-xazinaboni/>

3. «Илхом самоварчи» – жадидларга ҳомий бўлган зот // <https://azon.uz/content/views/ilhom-samovarchi-jadidlarga-homiy-bulgan>
4. Саидносирова З. Ойбегим менинг. — Т., 1994. – С. 51.
5. Цитата взята из статьи Б.Ирзаева и У Артыкова «Политические процессы в Туркестане на страницах джадидской печати». См.: «Жадид маърифатпарварлик ҳаракатининг ғоявий асослари». Сборник материалов научной конференции. – Т., 2016. – С. 104.
6. [Ражабов Қ.] Миржалилов Саидносир //Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т. 5. –Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003. –Б. 692.
7. Каримов Н. Ҳаётнинг маъноси. – “Тафаккур” (ж.), 19, № — С. 66-81.
8. “U jadidlarning homiysi edi”. Germaniyada talabalarni o‘qitgani uchun josuslikda ayblanib otilgan jadid Saidnosir Mirjalilov taqdiri // https://daryo.uz/2021/10/25/u-jadidlarning-homiysi-edi-germaniyada-talabalarni-oqitgani-uchun-josuslikda-ayblanib-otilgan-jadid-saidnosir-mirjalilov-taqdiri/?utm_source=@daryo
9. [Ирзаев Б.] Туркистон мухториятининг ҳукумат газначиси Саидносирбой ва Германияда таълим олган талабалар // <https://uzhurriyat.uz/2021/05/26/turkiston-muxtoriyatining-hukumat-gaznachisi-saidnosirboy-va-germaniyada-talim-olgan-talabalar/>
10. Цитата взята из статьи Б.Ирзаева и У Артыкова «Политические процессы в Туркестане на страницах джадидской печати». См.: «Жадид маърифатпарварлик ҳаракатининг ғоявий асослари». Сборник материалов научной конференции. – Т., 2016. – С. 105.



UDK:323/327:94(575,1)

Oybek RASHIDOV,
Toshkent moliya instituti professori, tarix fanlari doktori (DSc)

O‘zMU professori A.Yermetov taqrizi asosida

XX ASRNING 20-YILLARIDA SOVET HOKIMIYATINING O‘ZBEKISTONDAGI KADRLAR SIYOSATI

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekiston SSRda sovet boshqaruvidagi kadrlar siyosati o‘rganilgan. Muallif tomonidan sovet boshqaruvi davrida Markaz tamonidan milliy siyosiy rahbarlar faoliyatiga ishonchsizlik bilan qaralishi, ularning ishlariga asossiz aralashuvlarning bo‘lishida ular kuchli nazorat ostiga olinganligi yoritilgan. Og‘ir siyosiy vaziyatda faoliyat yuritgan mahalliy rahbar xodimlarning ko‘pchiligi Markaz topshiriqlarini bajarish bilan birgalikda mamlakat manfaatlarini ham himoya qilib kelganliklari e‘tiborga olingan.

Kalit so‘zlar: Partiya, bolshevik, milliy ziyolilar, jadidchilik, millatchilik, shovinizm, mahalliy lashtirish, guruhbozlik, rusiyazabon, proletariat.

КАДРОВАЯ ПОЛИТИКА СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ В 20-ГОДЫ XX ВЕКА

В статье изучается деятельность правительство большевиков Туркестанской АССР в области национальной политики. Автором освещается, что при советской власти Центр с недоверием относился к деятельности национальных политических лидеров, наличию необоснованного вмешательства в их дела, в которых они жестко контролировались. Уделено большое внимание деятельности местных руководителей, которые, не смотря на тяжелую политическую ситуацию, наряду с выполнением жестких указаний власти Центра отстаивали интересы родного края.

Ключевые слова: Партия, большевик, национальная интеллигенция, джадидизм, национализм, шовинизм, локализация, кампанейщина, русскоязычный, пролетариат.

PERSONNEL POLICY OF THE SOVIET POWER IN THE 20S OF THE 20TH CENTURY

In the article activity the government of Bolsheviks Turkestan ASSR in the field of national policy is studied. The author lights the period of the Soviet management, her mistrust to local heads both groundless intervention, and rigid control of the Center. Much attention of activity of local heads that, despite heavy political situations, along with performance rigid the indication of the Central power defended interests of the native land is paid.

Key words: Party, bolshevik, national intelligentsia, Jadidism, nationalism, chauvinism, localization, group ideology, rusophone, proletariat.

Kirish. Turkiston mintaqasida sovet hokimiyatining dastlabki yillarida TASSR, BXR, XXSR va keyinchalik O‘zbekiston SSRda bolsheviklarning mahalliy kadrlar orasiga nifoq solishi va ularning bir-biriga qarama-qarshi qilib qo‘yilishi sovet boshqaruvning o‘ziga xos xususiyati edi. Buning oqibatida boshqaruv tizimida faoliyat yuritgan milliy rahbar kadrlar uch guruhga ajraldi. Birinchi guruhga Markaz topshiriqlarini bajarish bilan birgalikda milliy manfaatlarini unutmagan holda ish olib borgan rahbar kadrlarni kiritish mumkin. Ular boshqaruvda boy tarixiy an‘analarni saqlab qolib, uni milliy ruhda rivojlantirish, shu bilan birgalikda bolsheviklar tajribasining kerakli tomonini o‘zlashtirish orqali uni hayotga tatbiq qilish tarafdori bo‘ldilar. Ushbu guruhga kirgan mahalliy kommunistlar yurt kelajagi yo‘lida mustamlakachilik tuzumiga qarshi bo‘lgan yashirin tashkilotlar bilan ham aloqa bog‘lab turganlar. Ikkinchi guruh milliy manfaatlarini unutmagan holda, bolsheviklar milliy siyosatidan og‘ishmasdan, Markaz topshiriqlarini so‘zsiz bajarib kelgan mahalliy kommunistlardir. Ular bolshevikcha g‘oyalarning asl mohiyatini tushunib etmadilar hamda kommunistik partiya oldidagi sadoqatlarini namoyon etdilar. Uchinchi guruhni esa bolsheviklar milliy siyosatiga muxolifatda bo‘lgan rahbar kadrlar tashkil etdi. Ushbu guruhga kirgan kadrlar o‘z navbatida ikkiga ajraldi: 1) Mamlakat hududida yashab, boshqaruvni isloh qilish va undan bolsheviklarni surib chiqarish harakatida bo‘lgan, mavjud tuzumga yashirin muxolifatda bo‘lgan kadrlar; 2) Bolsheviklar g‘oyalari murosasiz munosabatda bo‘lib, mustamlakachilik siyosatining asl mohiyatini oshkor etgan holda vatanni tark

etgan muhojir kadrlar. Bular mamlakat ichidagi yashirin muxolifatchilar, qisman o‘z g‘oyalari maslakdosh bo‘lgan mahalliy kommunistlar bilan ham aloqa bog‘lab turdilar.

1925 yilning 6-12 fevralida Buxoroda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Kompartiyasining I ta‘sis s‘ezdida O‘zbekiston KP(b) tashkiliy jihatdan rasmiylashtirildi. O‘zbekiston KP (b) tashkil etilgan dastlabki yillarda uning tarkibida 20 mingga yaqin kommunist bo‘lib, ular o‘zbeklar (42,16 foiz), qoraqalpoqlar (0,01 foiz), ruslar (40,43 foiz), tatarlar (3,53 foiz), qozoqlar (1,45 foiz), tojiklar (3,42 foiz), qirg‘izlar (1,02 foiz) va boshqalardan iborat bo‘lgan [1]. Kompartiya respublikada sovet boshqaruvi tizimida faoliyat yuritayotgan kadrlarning o‘rmini belgilab, doimiy ravishda o‘zining ta‘sirini mustahkamlab bordi.

O‘zining tarkibiga ko‘plab kommunistlarni birlashtirgan Kompartiya bu paytda respublikada amalda hokimiyatni o‘z qo‘liga olgan. Bolsheviklar har bir xodimdan partiya oldida o‘z sadoqatini namoyon qilishini xohlar va uning yo‘lidan og‘ishganlar ayovsiz jazolangan. Davlat apparati va partiya saflaridagi Markazdan yuborilgan va ba‘zi mahalliy xodimlarning xatti-harakatlari tufayli mamlakat manfaati yo‘lida xizmat qilayotgan kadrlar shubha ostiga olingan. Natijada kommunistik partiya saflarida guruhbozlik, tarafkashlik va o‘zaro janjallar sun‘iy tarzda avj oldirildi. Masalan, shu davrda Samarqand viloyati partiya tashkilotlarida bir guruh bilan ikkinchisi o‘rtasida ziddiyatga kelib chiqib, hatto ular o‘rtasida otishma sodir bo‘lgan[2]. SHuningdek, Surxondaryo viloyatida hokimiyat uchun partiya a‘zolari o‘rtasida ochiqchasiga kurash boshlanib ketgan.

Viloyat ijroiya qo'mitasi raisi Isoxo'jaev jinoyat qidiruv bo'limi boshlig'iga Surxondaryo viloyati partiya komiteti (obkomi) sekretari A.Karimov ustidan yashirin kuzatuv uyushtirishni topshiradi. GPU tomonidan tez orada bu maxfiy holatlar ochib tashlanib, aybdorlar jazolanadi. 1925 yil sentyabrda bo'lib o'tgan O'zbekiston KP(b) MK IV plenumi V.I.Ivanov "o'z ishiga sovuqqon bo'lgan kishilarga nisbatan shafqatsiz bo'lishimiz, boshqalar ishini engil-elpi olib borish mumkin emasligini his qilishlari uchun ba'zilarni hatto o'ldirishga majbur bo'lamiz" degan edi [3].

Davlat idoralarining mahalliy lashtirilishi jarayoni borayotgan bir vaqtda ham Markazdan jo'natilgan rahbarlarning mahalliy kadrlarga bo'lgan munosabati o'zgarmadi. Mazkur sohada eng katta muammolardan biri evropa millatiga mansub xodimlarning mahalliy kadrlarga ishonchsizlik bilan qarashi va ularning erkin faoliyatiga to'sqinlik qilishi bo'ldi. Bunday holat davlat boshqaruvining yuqoridan to quyi bo'g'inigacha bo'lgan barcha tizimida o'zining aksini topgandi. 1925 yil 1 avgustda O'zbekiston SSRda davlat apparatining jamixodimlari 1523 nafar bo'lib, shundan faqat 201 nafari, ya'ni 16,5 foizi o'zbek bo'lgan. 201 kishining 34 foizi mas'ul shaxs, 18 foizi texnik xodim, 6 foizi mutaxassislarni tashkil etgan. SHundan partiya va sovet rahbar xodimlari jami 173 nafar bo'lib, 38 nafari yoki 22 foizi o'zbeklar bo'lgan. O'zbeklashtirish holati shu vaqtda markaziy xo'jalik apparatlarida 27,8 foizni tashkil etgan [4].

Ba'zi muassasalarda faqat evropa millatiga mansub xizmatchilar ishlaganini, mahalliy millatga mansub xodimlarning turli-tuman bahonalar bilan ishga qabul qilinmaganligini ko'rish mumkin. Masalan, Toshkent yangi shahar ijroqo'mi mahalliy ishchilarni xizmatga olmagan. Smeta tuzilganida tajribachilar xarajatining hisobga olinmagani bahona qilinib, ishga qabul qilishning imkoni yo'qligi qayd etilgan [5].

1925 yil 4-5 oktyabr kunlari O'zbekiston SSR MIKning 3-sessiyasida davlat apparatining quyi bo'g'inida sovet boshqaruvini mustahkamlash, mahalliy lashtirish ishlari, ish yuritishda mahalliy tillarning o'rni va kamsonli millatlarining ahvoli kabi masalalar muhokama qilingan. Bunda A.Ikromov O'zbekiston SSR MIK faoliyatiga bag'ishlangan hisobot ma'ruzasida davlat apparatining quyi bo'g'inining sovetlashtirish va sobiq Buxoro respublikasi sovet organlarida "yot elementlar" faoliyatiga to'xtalgan. Mazkur yig'ilishda mahalliy kadrlardan bo'lgan Hakimboev ma'ruzachining ba'zi so'zlariga e'tirozli tarzda fikr bildiradi. U sobiq BXSrdagi faoliyat ko'rsatgan milliy kadrlarni yot elementlar sifatida atash maqsadga muvofiq emasligini sovet apparatida mahalliy kadrlarning etarli darajada tayyorlanmaganligi bilan izohlaydi [6].

Bolsheviklar sovet boshqaruvidagi mahalliy kadrlarning birligiga putur etkazish hamda ular o'rtasida keskinlik vujudga keltirishga urinardi. Ayniqsa davlat apparatidagi mahalliy kadrlarning obro'sizlantirilishi, ularga kuchli bosim o'tkazilishi mamlakatda olib borilayotgan "islohotlar"ning ko'plab xatolarga yo'l qo'yishiga olib keldi. Bunday holat esa sovet boshqaruviga qarshi norozilik va e'tirozlarni keltirib chiqardi. 1925 yil 19-22 noyabrda Samarqand shahrida bo'lib o'tgan O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti plenumi milliy rahbar xodimlardan 18 kishi "Do'stona va samarali ishlash uchun toqat qilib bo'lmaydigan sharoit yuzaga kelganligi munosabati bilan bizni O'zbekistondagi ishdan bo'shatib, RKP(b) MK ixtiyoriga jo'natishimizni so'raymiz. Agar lozim bo'lsa, sababini yanada mufassalroq bayon qilishimiz mumkin" [7] mazmunidagi ariza yozadilar. SHuningdek, ushbu rahbar xodimlar O'zbekistonda olib borilayotgan davlat idoralarining mahalliy lashtirilishi ishlariga etarlicha e'tibor berilmayotganligini alohida qayd etganlar. Bunga bolsheviklar tomonidan siyosiy tus berilib, "18 lar guruhi" va

"aksilin qilobiy" harakat sifatida baho berildi. "18 lar guruhi" va ularning tutgan yo'li kommunistik partiyada juda ko'p muhokama qilingan. Jumladan, 1925 yil 22 noyabrda II umumio'zbek partiya qurultoyida O'zbekiston partiya tashkiloti kotibi V.I. Ivanov so'zga chiqib, respublikani bolsheviklashtirish, partiya tashkilotlarida lenincha o'zakni yuzaga keltirish uchun qurbonlar berishdan boshqa yo'l yo'qligini uqtirib o'tgan [8].

1927 yilning 12 sentyabrda Markaziy o'zbeklashtirish komissiyasi tomonidan O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komiteti mas'ul kotibi Arotskerga 1118-raqamli maxfiy topshiriq hamda uning ko'chirmasi O'zSSR MIK va XKSga yuboriladi. Bunda quyidagilar keltirilgan: O'zbekiston SSR MIK qoshidagi Markaziy o'zbeklashtirish komissiyasi ushbu bilan ma'lum qiladikim, Butun Ittifoq Kommunistik partiyasining O'rta Osiyo byurosi 12-plenumi qarorining 13 moddasida davlat apparatini soddalashtirish va to'g'ri yo'lga qo'yish ishlarini o'tkazadigan vaqtda davlat idoralariga hamda ishlab chiqarishga jalb qilingan mahalliy kadrlarning saqlanishiga alohida diqqat qilish ya'ni nazoratda tutish ko'rsatib o'tilgan. Hozirda aksariyat idoralarda ushbu moddani asos qilib olib, erli millat ishchilarini ishdan bo'shatib yubormoqdalar. Bular O'zbekiston SSR Ishchi-dehqon nazorat xalq komissarligi, Moliya xalq komissarligi, Er ishlari xalq komissarligi, Markaziy Ijroiya Qo'mitasi va boshqalar [9]. Darhaqiqat, bolsheviklar tomonidan davlat idoralarini mahalliy lashtirish siyosati tayotga tatbiq etilgan bo'lsa-da, bu cheklangan tarzda amalga oshirildi. Markaz boshqaruvni to'laonli ravishda mahalliy millat vakillariga berish niyatidan yiroq edi.

Sergo Orjonikidze 1927 yil dekabr oyida bo'lib o'tgan VKP(b)ning XV qurultoyida so'zlagan nutqida O'zbekistondagi SHo'ro hokimiyati boshqaruv apparatining 61,9 foizini ruslar, faqat 24,7 foizini erli millat vakillari tashkil etganligini tan olib aytishga majbur bo'lgan edi [10]. Buning tasdig'i sifatida O'zbeklashtirish komissiyasining 1927 yil hisobotida keltirilgan barcha komissarliklar va boshqarmalarda faoliyat yuritayotgan xodimlar ichida mahalliy kadrlar salmog'iga to'xtalish joizdir. Jumladan, O'zSSR Markaziy hisobot boshqarmasida 80 nafar umumiy xodim bo'lib, shundan 1 nafar mahalliy evrey (yahudiy) o'zbek tilida ish yuritgan. O'zSSR Moliya xalq komissarligi markaziy apparatida 207 nafar xodimdan 22 nafari o'zbek bo'lib, o'zbeklashtirish 10,6 foizni tashkil etishi, ish yuritish esa 100 foiz rus tilida olib borilayotganligi qayd etilgan [11]. O'zSSR Ichki va tashqi savdo xalq komissarligida 52 nafar xodimdan 2 nafari o'zbek bo'lib, ulardan biri komissar, ikkinchisi kollegiya a'zosi hisoblangan [12]. O'zbekiston Ijtimoiy ta'minot xalq komissarligida 13 nafar xodimdan 3 nafari mahalliy kadrlar bo'lib, ular komissar, komissar noibi va tarjimon bo'lgan [13]. O'zbekiston adliya xalq komissarligi markaziy apparatida shtat bo'yicha 37 nafar xodimdan 6 nafari o'zbek bo'lib, mahalliy kadrlarning salmog'i 16 foizni tashkil etgan [14]. YUqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, markaziy boshqaruv organlarida mahalliy kadrlar birinchi va ikkinchi rahbar lovozini egallagan bo'lsa-da, shtat tarkibida mahalliy xodimlarning salmog'i juda past bo'lgan.

1928 yil 31 mayda Birlashgan Davlat siyosiy boshqarmasi (OGPU) tomonidan Butunittifoq Kommunistlar (bolsheviklar) partiyasi Markaziy Komitetiga yuborilgan O'zbekistondagi siyosiy kayfiyat to'g'risida ma'lumotlar berilgan "O'zbek intelligensiyasi orasida shovinizmning rivojlanishi va o'sishi haqidagi agenturaning hujjatli ma'lumotlari" nomli hisobotda mahalliy lashtirish, panio'zbekizm, antisovet targ'iboti va boshqa masalalar ko'rib chiqiladi. Bunda milliy manfaatlarni himoya qilib chiqqan vatanparvarlarning mahalliy lashtirish siyosatining bir yoqlama olib borilayotganligi haqidagi fikrlari keltirilgan. Jumladan,

Munavvar Qori Abdurashidxonov: “Evropaliklarning o‘zlari mahalliyashtirish g‘oyasini o‘zlari inkor qilishadi: mahalliy xodimlarni lavozimlarga tayinlashadi, lekin “mos emas” deb ularni tez haydashadi, milliy kadrlarni tayyorlashmaydi. Bilimli insonlar “ideologiya” sababli chetlashtiriladi, ruslarga esa hech qanaqa to‘siq qo‘yishmaydi” [15].

Ushbu hisobot materiallarida mahalliyashtirish masalasiga milliy matbuotning munosabati ham o‘rganilgan. Jumladan, “Mushtum” jurnalida keltirilgan maqolada shunday deyilgan: “O‘zbek davlat kinosida bor-yo‘g‘i 1ta qorovul o‘zbek. Garchi mahalliyashtirish favqulodda masala bo‘lsa ham lekin unga intilsang millatchilik aybini olasan...” [16].

Mahalliyashtirish ishlari etarlicha nazorat qilinmaganligi va ba‘zi evropa millatiga mansub rahbarlarning e‘tiborsizligini oqlash maqsadida Rossiya kommunistlar partiyasi O‘rta Osiyo byurosining boshlig‘i Zelenskiy shunday degan edi: “Ko‘p o‘rtog‘lar mahalliyashtirish deganda butun idora ishlarini erli xalqqa topshirish deb, yoki ularning hukumat apparatida miqdoriga munosib suratda qatnashishlari deb anglaydilar. Bu usulda ma‘no berish milliy shovinizm ko‘rinishidan boshqa narsa emas. Mahalliyashtirish hukumat apparatini erli xalq manfaatiga yaqinlashtirishdan boshqa narsa emas. Bu yaqinlashtirishga ruslar tomonidan erli xalq tilini o‘rganish yo‘li bilan ham erishish mumkin” [17]. Demak, sovet hokimiyatining O‘zbekistonda yuritgan milliy siyosatida yangi hisoblangan davlat idoralarni mahalliyashtirish

masalasi ham bolsheviklar foydasiga xizmat qilishi belgilangan edi.

1928 yil 11 dekabrda SSSR MIK IV sessiyasi yig‘ilishida SH.Eliava O‘zbekiston SSRda faoliyat yuritayotgan mahalliy kadrlar faoliyatiga ishonchsizlik bildirib, chetdan rusiyazon kadrlarni olib kelishni kun tartibiga qo‘yadi. Uning so‘ziga ko‘ra “O‘zbekiston Respublikasida ishchi proletariati yo‘q. O‘zbekistonda proletariat – bu juda noaniq kategoriya... U erda malakali ishchilar yo‘q. Agar u erda shunday ishchilarning bo‘lishini istasak chetdan rus va ukrainlardan ko‘proq kadrlarni olib borishimiz kerak” [18] deydi. O‘zbekiston SSRda davlat idoralarni mahalliyashtirish uch yillik rejasida asosida erli millatga mansub kadrlar tayyorlanayotgan bu paytda yuqoridagi taklif mantiqsiz ko‘rinardi. Ammo, ilgariydek Rossiya, Ukraina va boshqa sovet respublikalaridan O‘zbekiston SSRga “tajribali” kadrlar muntazam jo‘natilib turildi.

Xulosa. O‘zbekistondagi sovet partiya va xo‘jalik rahbarlari Markaz buyruqlarini bajarishga majbur qilindi. Natijada milliy etakchilar bunday sharoitda milliy masalada adolatli va xolis siyosat yuritishda o‘jiz qolib, bolsheviklar partiyasining ijrochilariga aylanishdi. Davlat idoralarni mahalliyashtirish jarayonida Markazdan jo‘natilgan “tajribali” kadrlar va rusiyazon rahbar xodimlar tomonidan qanchalik to‘sqinliklar bo‘lishiga qaramasdan milliy kadrlar sohani ijobiy tomonga siljitish uchun astoydil kurashdilar.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбек Совет Энциклопедияси. 13 жилд. – Т., 1979. – Б.501.
2. Ҳайдаров М. Ўзбекистонда совет давлати бошқарув тизими: шаклланиши, бошқичлари ва моҳияти (1917–1941 йиллар). – Т.: Abu matbuot-konsalt, 2012. – Б.133.
3. Qatag‘on qurbonlari хотираси davlat muzeyi arxivi, 2040-hujjat, 3-varaq.
4. Норжигитова Н. XX асрнинг 20 – 30 - йилларида Ўзбекистонда сиёсий элитанинг миллий таркиби // “Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар: тарих ва ҳозирги замон” мавзусидаги илмий – амалий анжуман материаллари. – Т., 2003. – Б.127.
5. Murod N. Yerlilashtirishdagi ichki ko‘rinishlar // “Qizil O‘zbekiston”. 1925 yil 7 sentyabr. 219-son.
6. O‘zbekiston MA, R-86-fond, 1-ro‘yxat, 2400-ish, 53-varaq.
7. Ўзбекистонда XX асрнинг 20 – 30-йилларидаги сиёсий ва ижтимоий жараёнлар (Архив ҳужжатлари ва бошқа материаллар асосида). – Т.:Navro‘z, 2014.– Б.3.
8. Qatag‘on qurbonlari хотираси davlat muzeyi arxivi, 2040-hujjat, 3-varaq.
9. O‘zbekiston PAA, 58-fond, 4-ro‘yxat, 494-ish, 46-varaq.
10. Jo‘raev N, Karimov Sh, O‘zbekiston tarixi.O‘zbekistonsovet mustamlakachilik davrida. Ikkinchi kitob. – Т.: Sharq, 2011.– В.350.
11. O‘zbekiston PAA, 58-fond, 4-ro‘yxat, 592-ish, 46-varaq.
12. O‘zbekiston PAA, 58-fond, 4-ro‘yxat, 592-ish, 45-varaq.
13. O‘zbekiston PAA, 58-fond, 4-ro‘yxat, 592-ish, 44-varaq.
14. O‘zbekiston PAA, 58-fond, 4-ro‘yxat, 592-ish, 48-varaq.
15. ЦК РКП (б) – ВКП (б) и национальный вопрос. Кн. 1. 1918-1933 гг. Сборник документов. Составители: Л.С.Гатагова, Л.П. Кошелева, Л.А. Роговая. – Москва.: РОССПЭН, 2005.– С. 575.
16. ЦК РКП (б) – ВКП (б) и национальный вопрос. Кн. 1. 1918–1933 гг. Сборник документов. – Москва.: РОССПЭН, 2005.–С. 577.
17. Junay. Turkistonda yerlilashtirish // “Yaq Tarkistan”. 1930 yanvar №.1.– В.8.Nashrga tayyorlovchi Ayaz Tahir. 1-cild (1-13 sayilar). –Istanbul. 1997.
18. Мустафа Шоқай. Шығармаларының толық жинағы. 12 томдық. Т. IX. – Алматы: «Дайк-Пресс», 2014.–Б.358.



UDK: 902. 6(575.151)

Munira TEMIROVA,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: munira.temirova@mail.ru

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent O.Xamidov taqrizi asosida

SPHEROCONUS VESSELS OR "MERCURY JUMPERS" ARE NAMED

Annotation

This article discusses the similarities and differences between Simobko'zachas, a pottery item common in Central Asia in the Middle Ages, and their regional names.

Key words: Sphericonical vessels, "mercury jug", archaeological terminology, historiography, formal-classification approach, medieval, grenade.

О НАЗВАНИИ СФЕРОКОНИЧЕСКИХ СОСУДОВ ИЛИ «СИМОВКУЗАЧА» (РТУТНЫЕ СОСУДНИКИ)

Аннотация

В данной статье рассматриваются сходства и различия между симобкузачами (ртутные сосудники), керамическим изделием, распространенным в Средней Азии в средние века, и их региональными названиями.

Ключевые слова: Сфероконические сосуды, «ртутный кувшин», археологическая терминология, историография, формально-классификационный подход, средневековые, граната (бомба).

SFEROKONUS IDISHLAR YOKI "SIMOB KO'ZACHA"NING NOMLANISHI XUSUSIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'rta asrlarda O'rta Osiyoda keng tarqalgan kulolchilik buyumi "simobko'zachalar" va ularning hududiy jihatdan nomlanishi, o'xshash va farqli tomonlari haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: Sferokonik idishlar, "simob ko'zacha", arxeologik terminologiya, tarixshunoslik, formal-klassifikasion yondashuv, o'rta asrlar, granata(bomba).

Kirish. O'rta Osiyoning o'rta asrlar davri arxeologiyasida keng tarqalgan sopol idishlardan biri – sferokonik idishlar yoki "simob ko'zacha" lar hisoblanadi. Sferokonik idishlar yoki "simob ko'zacha" lar bu – sopolan ishlangan, qalin, mustahkam, ko'p funksiyali, asosan sferokonik yoki tuxumsimon shaklli, kichik gardish, tor bo'g'izli idishlar hisoblanadi. Uning ost qismi o'tkir shaklli bo'lgani uchun doim yon tomonga yotgan yoki qumga suqilganda tik holda joylashtirish mumkin. Balandligi 8-30 sm atrofida[1,2]. Boshqa sopol idishlardan asosiy farqi uning yuqori haroratda mustahkam qilib pishirilganligi hisoblanadi. Ular musulmon Sharqi – O'rta Osiyo, Kavkazorti, Qrim, Volgabo'yi, Eron, Suriya va Misr mintaqalarida aniqlangan[3]. Ularning xronologiyasi X-XV asrlarni tashkil etadi.

Ushbu idishlar xronologiyasi, idishlarning nomlanishi, shakli, hajmi, tipologiyasi va vazifasi haqida bir qator tadqiqotlar mavjud. Ilmiy tadqiqotning maqsadi bugungi kunda o'zbek tilidagi arxeologik va tarixiy adabiyotlarda keng tarqalgan "simob ko'zacha" larning nomlanishi masalasini o'rganib, o'zimizning talqinimizni taklif etish hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunda ushbu turdagi idishlarning xronologiyasi, tarqalish geografiyasi, tipologiyasi, ornament motivlari turlari, arxeologiyada nomlash masalalari, o'rta asr manbalarida uchraydigan ma'lumotlar va o'rganilish tarixining tadrijiy taraqqiyoti masalalarini majmuaviy holda o'rganishga katta ehtiyoj mavjud. Natijada, ushbu turdagi idishlarning aniq vazifasi haqida bir qator ma'lumotlar olinishiga erishiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'rta asr yodgorliklarida keng tarqalgan ushbu idishlarning nomlanishini o'rganish maqsadida o'rta asrlar kulolchiligi bo'yicha bir qator adabiyotlar tahlili amalga oshirildi. Natijada 7 tildagi 52 ta monografiya va maqolada ushbu turdagi idishlarning nomlanishi o'rganilib, ularning ro'yxati shakllantirildi.

Shuningdek, arxeologik kulolchilik tadqiqiga bag'ishlangan adabiyotlar asosida sopol idishlar nomlash qonuniyatlarini o'rganildi.

Tahlil va natijalar. Sferokonik idishlar yoki "simob ko'zacha" larning nomlanishi masalasini o'rganishdan oldin, arxeologik sopol idishlar shakli tahlilini amalga oshirish usullari taraqqiyotiga e'tibor qaratishimiz lozim.

Yu.B.Setlin tadqiqotlarida, arxeologik sopol idishlar shakli tahlilida 3 xil tadqiqot yondashuvi mavjudligini keltirib o'tgan. Bular emosional-tavsifiy yondashuv, formal-klassifikasion yondashuv va tarixiy-madaniy yondashuv kabilarni o'z ichiga oladi[4,5].

O'rta Osiyoning o'rta asrlar davri arxeologiyasi bir qator adabiyotlar mavjud. Ushbu adabiyotlar sirasiga biz qazishmalar natijasini o'zida aks ettirgan adabiyotlar, shuningdek, qazishmalar natijasida topilgan moddiy madaniyat namunalari tadqiqiga bag'ishlangan adabiyotlar, shuningdek, o'rta asrlar tarixiga oid adabiyotlarni kiritishimiz mumkin.

Sferokonik-idish yoki simobko'zachalarga bag'ishlangan 50 dan ortiq, turli mualliflarga tegishli yettita til (o'zbek, rus, ingliz, fransuz, azarbayjon, isroil ukrain) da yozilgan adabiyotlar bilan tanishish jarayonida, sferokonik-idish yoki simobko'zachalarning 9 xil ko'rinishdagi nomlanishlari ko'rib chiqildi. Bular:

Sfero-konuslar (sfero-konik idish). B.V.Lunin, A.R.Nuretdinova V.A.Gorodsov[6], M.Amindjanova [7], Z.Z.Vinogradov [8], N.M.Djanpoladiyan [9,10], O.L.Vilchevskiy [11], M.B.Borzov [12], L.T.Gyuzaliyan [13], E.V.Rtveladze [14], Sh.R.Xodjavev, T.G.Filimonova, M.R.Axmetzyanov, A.R.Xodjavev [15], Yu.B.Gens [16], L.F.Sokolovskaya, Jean-Baptiste Houal [18], V.Denon [19], P. Simeon [20], Jean-Baptiste Houal, Sterenn Le Maguyer, M.Avissar, E.J.Stern, A.D.Stanica, B.S.Szmoniyewski, [21],

J.Sharvit, S.T.Saipov, V.I.Lipovski, V.D.Jukov, V.L.Shishkin, E.I.Abbasova, A.R.Nuretdinova, T.Dostiyev, Yu.F.Buryakov [22,23], M.A.Bronnikova, I.V.Turova, I.A.Arjantseva, S.B.Bolelov [24], P.P.Valiyev, R.X.Xramchenkova, A.G.Sitdikov [25], F.Sh.Xuzin, S.I.Valiulina, Z.G.Shakirov [26], K.M.Bakymov [27], A.R.Bagautdinov [28], A.A.Matveyev [29], A.I.Xoziyev, A.V.Belyayev va boshq., D.Nicolle [30], M.O.Rousset [31], S.B.Lunina, Z.I.Usmanova, M.Stancheva kabi mualliflar tadqiqotlarida ushbu turdagi idishlar sferononus yoki sferokonik idishlar deb nomlangan.

2. Simobko'zacha. B.V.Lunin, S.Sh.Marfiyev, N.A.Moskalenko [32], N.M.Djanpoladiyan, Sh.T.Xodjaye, T.G.Filimonova, M.R.Axmetzyanov, A.R.Xodjaye, A.A.Grisina [33], A.Omelchenko, V.L.Shishkin, B.X.Matboboyev, G.A.Pugachenkova, [34] kabi mualliflar tadqiqotlarida ushbu turdagi idishlar simob ko'zachalar deb nomlangan.

3. Granata (bomba). M.Avisar, E.J.Stern, D.Nicolle, V.L.Shishkin kabi tadqiqotchilar ishlarida ushbu turdagi topilmalar jangovar granata sifatida tavsiflanadi hamda shunday nomlash taklif etiladi.

4. Kumush suvli idish. A.Omelchenko va boshqa bir qator tadqiqotchilarda ushbu atamadan ham foydalanilgan.

5. Pivo uchun qovoq. A.Ghuchani, S.Adil [35] tadqiqotlarida ushbu idishlar pivo uchun foydalanilganligi ta'kidlangan.

6. Sirlanmagan idish. Charles. K.Vilkinson [36] ushbu idishlarning sifatiga e'tibor berib, ularni sirlanmagan idishlar deya nomlashadi. Haqiqatdan ham sferokonik idishlarning deyarli hammasi sirlanmagan shaklda bo'ladi.

7. Konik tagdonli sopol idish. V.L.Vyatkin [37], A.F.Lixachev, E.Lens [38] arxeologik sopolshunoslik prinsipi asosida ushbu idishlarning tashqi shakli asosida nomlash variantlarini taqdim etishgan. Bunda sopol idishning vazifasidan qat'iy nazar, uning tashqi ko'rinishi ularning nomlanishiga asos bo'ladi.

8. Sferokonik shaklli sirli idish. A.Fedorovich tomonidan ushbu idishlarning ba'zi namunalariga ularning sifatidan kelib chiqib, sferokonik shaklli sirli idish nomi taklif etiladi.

9. Lampa. Ch.K.Vilkinson va boshqalar sferokonik idishlar yoki "simob ko'zacha" larni "lampa" deb o'z tadqiqotlarida nomlashgan.

Xulosa va takliflar. Sferokonik idishlar yoki "simob ko'zacha" larga oid adabiyotlar tahlili ularning 9 xil shakldagi nomlash hozirgi kunda kuzatilishi aniqlandi. Mazkur idishlar turli hududlarda turlicha nomlanganligini ko'rish mumkin. Musulmon sharqida sferokonik idishlarning funksiyasiga e'tibor qaratilgan holda "simob ko'zacha" deya atalgan. Ammo bunday nomlanish hamma hududda ham kuzatilmaydi. Yuqorida ko'rib o'tilganidek buyumning shakliga ko'proq e'tibor qaratilgan va sferokonular deb nomlashgan. Shuningdek, uning boshqa vazifalarga oidligi ta'kidlanib, lampa yoki granata shaklida nomlash ham kuzatiladi. Ushbu kulolchilik mahsuloti faqat simob saqlash va tashish maqsadida foydalangan degan taxmin ham to'liq qo'llab-quvvatlanmasligini ko'rsatadi. Yozma va moddiy manbalarning qiyosiy tadqiqi va tahlili kelajakda ushbu idishlarning nomlanishi va vazifasi haqida yangi ma'lumotlar bersa, ajab emas.

ADABIYOTLAR

- Nuretdinova A.R. Sferokonicheskiye sosudi: problema atribusii // Ucheniye zapiski Kazanskogo universiteta. Seriya Gumanitarniye nauki. 2011. Tom 153, kn. 3. S. 51-62.
- Nuretdinova A.R. Sferokonicheskiye sosudi Sarevskogo gorodisha // Arxeologiya Yevraziyskix stepy. -№4, 2021. S. 130-140.
- Lunin. B.V. K voprosu o funksionalnom naznacheniye sferokonicheskix sosudov v svyazi s odnim rukopisnim istochnikom XVI veka // IMKU. – Vipusk 2. Tashkent, 1961. – S. 256-266
- Setlin Yu.B. Drevnyaya keramika. Teoriya i metodi istoriko-kulturnogo podxoda. M.: IA RAN, 2012. 430 s.: il.
- Setlin Yu.B. Keramika. Ponyatiya i termini istoriko-kulturnogo podxoda. M.: IA RAN. 2017. 346 s.: il
- Gorodsov, V.A. Drevniye musulmanskiye svetilniki v vide sferokonicheskix glinyanix sosudov / V.A. Gorodsov // Trudi GIM. – M.: Izd-vo M. i S. Sabashnikovix, 1926. – Vip. 1. Razryad arxeologicheskix. – S. 149–164.
- Amindjanova M. O nekotoryx steklyannix sosudax Maverannaxra // IMKU – Tashkent: Izd-vo AN UzSSR, 1961. – Vip. 2. – S. 241–255
- Vinogradov Z.Z. Sfero-konicheskiye sosudi s uzkim gorlovim otverstiyem // Kazan. muzeyniy vestn. – Kazan: Pervaya Gos. Tip., 1922. – Vip. 2. – S. 17–119
- Djanpoladyan R.M. Sferokonicheskiye sosudi iz Dvina i Ani // SA. 1958. №1. S. 201–213.
- Djanpoladyan, R.M. Laboratornaya posuda armyanskogo alximika / R.M. Djanpoladyan // SA. – 1965. – № 2. – S. 210–216
- Vilchevskiy O.L. Sferokonicheskiye sosudi v peredneaziatskom traktate po prikladnoy texnologii XII v. // Sovetskaya arxeologiya, 1961. – № 2. – S. 210–212.
- Borzov M.V. Problema drevnosti sifilisa v Sredney Azii. Tashkent: Izd-vo Uzb. gos. NII venerologii i dermatologii, 1936. 126 s
- Gyuzalyan L.T. Nadpisi na dvux sferokonicheskix sosudax iz Baylakana // [Pravoslavniy] Palestinskiy sbornik. Vipusk 13 (76): Pamyatniki pismennosti i literaturi Blijnego Vostoka. M.; L.: Izdatelstvo AN SSSR, 1964. S. 166—170
- Rtveladze E.V. Sferokonicheskiye sosudi iz Madjar // SA. 1974. №4. S. 280–284.
- Xodjaye Sh.R., Filimonova T.G., Axmetzyanov M.R., Xodjaye A.R. Remeslennoye proizvodstvo srednevekovogo Xuttalya. Dushanbe, 2020
- Gens Yu.B. Sferokonicheskiy sosud iz Termeza // SA. – 1969. – № 2. – S. 271–273.
- Sokolovskaya L.F. Neglazurovannaya keramika srednevekovogo Samarkanda, kak faktor ekonomiki gorodskogo remesla (po materialam gorodisha Afrasiab kon. VII – nach. XII vv). Avtoreferat dissertatsii na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata istoricheskix nauk. Tashkent, 1995. 32 s
- Houal, Jean-Baptiste. La céramique antique et médiévale de Termez et de Khaitabad (Ouzbékistan). Regards sur l'Asie centrale du IIIe siècle av. J.-C. au XVIIIe siècle. Hermann, 2021.
- Denon V. Planches du Voyage dans la basse et la haute Egypte. – Paris: Éditeurs Pygmalion / Gérard Watelet, 1990. – 141 p
- Siméon P. Etude du matériel céramic de Hulbuk (Mā warā'al-nahr-Khuttal), de la conquête musulmane jusqu'au milieu du XIe siècle (90/712-441/1050). Contribution à l'étude de la céramics islamik d'Asia centrale, British Archaeological Reports (B.A.R.) Archaeopress, 428 p., London. 2009

21. Stancheva M. Kamenni kalpi za sferokonusi ot Sofiya. Arxeologiya, kn.1
22. Buryakov, Yu.F. Arxeologicheskiye materiali gorodisha Kavardan // IMKU. – 1977. – Vip .13 . – S. 70–87.
23. Buryakov, Yu.F. Raskopki gorodisha Changtepe v Tashkentskom oazise // IMKU. – 1978. – Vip. 4. – S. 103–113
24. Bronnikova M.A., Turova I.V., Arjanseva I.A., Bolelov S.B., Nuretdinova A.R. Multidissiplinariye podxodi v izuchenii arxeologicheskoy keramiki: metodologiya, vozmojnosti, rezultati // Trudi IV (XX) Vserossiyskogo Arxeologicheskogo Sezda v Kazani, Kazan, 2014
25. Valiyev R.R., Xramchenkova R.X., Sitdikov A.G. K voprosu o proizvodstve polivnoy keramiki v srednevekovom Bolgare. Trudi IV (XX) Vserossiyskogo Arxeologicheskogo Syezda v Kazani, Kazan, 2014
26. Xaziyev A.I. Nepolivnaya keramika Kazani i Kazanskogo Kremlya po materialam rabot N.F. Kalinina // Povoljskaya arxeologiya. № 2 (28) 2019. S. 144-155.
27. Bakumsev K.M. Tipi voinskix dospelov u domongolskix bolgar. LI Uralo-Povoljskaya arxeologicheskaya studencheskaya konferensiya (UPASK, 5-8 fevralya 2019 goda). 2019. S. 114-116.
28. Bagautdinov A.R. Texnicheskaya i stroitel'naya keramika Bilyarskogo gorodisha (po materialam XLIV raskopa). LI Uralo-Povoljskaya arxeologicheskaya studencheskaya konferensiya (UPASK, 5-8 fevralya 2019 goda). 2019. 113 114.
29. Matveyev A.A. Sferokonicheskiye sosudi iz materialov Samosdelskogo gorodisha, LI Uralo-Povoljskaya arxeologicheskaya studencheskaya konferensiya (UPASK, 5-8 fevralya 2019 goda) 2019. S. 144-146.
30. Nicolle D. Medieval Islamic Fire Grenades: Further Evidence from a Military Context // Journal of Islamic Archaeology. P. 163-177.
31. Rousset M.-O. Contribution à l'étude de la céramique islamique: analyse du matériel archéologique de Rahba-Mayadin (Syrie, vallée de l'Euphrate), 2008.
32. Marifiyev S.Sh., Moskalenko N.A. K voprosu o naznachenii simobkuzacha i genezise sirkulnogo ornamenta // Material'naya kultura Tadjikistana. – Dushanbe: Donish, 1987. – Vip. 4. – S. 299–312
33. Grisina A.A. Materiali karaxanidskogo vremeni s gorodisha Shashtepe v Tashkente // IMKU. – 1988. – Vip. 22. – S. 131–138.
34. Pugachenkova, G.A. Ishtixanskiye drevnosti (nekotoriye itogi issledovaniy 1979 g.) // SA. – 1983. – № 1. – S. 259–270.
35. Ghouchani A. and Adle C. Sphero-Conical Vessel as Fuqqa a, or a Gourd For “Beyer”. Vol. 9 (1992), pp. 72-92 (21 pages)
36. Wilkinson C.K. Nishapur. Pottery of the Early Islamic Period. New York. 1973.
37. Vyatkin V.L. Afrasiab – gorodishye bilogo Samarkanda: Arxeologicheskii ocherk. – Samarkand: Glavnauka narkomprosa UzSSR, 1926. – 65 s.
38. Lens E. O glinyanix sosudax s konicheskim dnom, naxodimix v predelax musulmanskogo Vostoka // Zap. Vost. otd-niya Imp. Rus. arxeol. o-va. – SPb.: Tip. Imp. Akad. nauk, 1904. – T. XV. – S. 0101–0112.



UDK: 930.677.

Panji XO'SHBOQOV,
Termiz davlat pedagogika instituti Tarix fanlari nomzodi

T.f.d., prof. E.O.Qobilov taqrizi asosida

ЎЗБЕКISTON TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGI

Аннотация

Maqolada Ўzbekiston Respublikasida to'qimachilik sanoati mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda erishilayotgan yutuqlar va soha istiqbollari to'g'risida mulohazalar yuritilgan. Raqobatbardoshlikni, eksport salohiyatini oshirish siyosati o'zining sezilarli darajada mahsulini bermoqda: texnikaviy qayta jihozlangan korxonalarining ko'payishi; import o'rini bosishni ta'minlanishi; eksport hajmining ortishi va boshqalar sohadagi muhim o'zgarishlardir.

Kalit so'zlar: Ўzbekiston to'qimachiligi, to'qimachilik sanoati, raqobatbardoshlik, zamonaviy texnologiyalar, modernizatsiya, yuqori sifat, import va eksport.

КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОДУКЦИИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В статье рассматриваются достижения и перспективы отрасли в повышении конкурентоспособности продукции текстильной промышленности Республики Узбекистан. Политика повышения конкурентоспособности, экспортного потенциала дает свои значительные результаты: увеличение технически переоснащенных предприятий; обеспечение импортозамещения; увеличение объемов экспорта и т.д. Являются важными изменениями в отрасли.

Ключевые слова: Текстиль Узбекистана, текстильная промышленность, конкурентоспособность, современные технологии, модернизация, высокое качество, импорт и экспорт.

COMPETITIVENESS OF TEXTILE PRODUCTS OF UZBEKISTAN

Annotation

The article discusses the achievements and prospects of the industry in increasing the competitiveness of the textile industry of the Republic of Uzbekistan. The policy of increasing competitiveness and export potential gives its significant results: an increase in technically re-equipped enterprises; ensuring import substitution; an increase in export volumes, etc. are important changes in the industry.

Key words: Textile of Uzbekistan, textile industry, competitiveness, modern technologies, modernization, high quality, import and export.

Dolzarbli. Ўzbekiston to'qimachilik mahsulotlarining raqobatbardoshligi mamlakat taraqqiyotining muhim jihati hisoblanadi. So'nggi yillarda Ўzbekiston hukumati to'qimachilik sanoatini rivojlantirish va uning xalqaro bozorda raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha faol qadamlar tashlamoqda.

Ўzbekiston muhim paxta resurslariga ega, bu esa uni strategik jihatdan muhim to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchisiga aylantiradi. Mamlakatimizda paxta yetishtirishdan tortib tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan butun to'qimachilik siklini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratilmoqda. Shu bilan birga, Ўzbekiston to'qimachilik korxonalarini modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va mahsulot sifatini oshirish bo'yicha faol ish olib bormoqda. Bu o'zbek kompaniyalariga yuqori sifatli to'qimachilik mahsulotlarini raqobatbardosh narxlarda taklif qilish orqali jahon bozorida muvaffaqiyatli raqobatlashish imkonini beradi.

Metodlar. Bibliografik tahlil: mavzu doirasidagi monografiyalar, maqolalar va boshqa olimlar nuqtai nazarini qiyoslash va konstruktiv xulosaga kelish, iqtisodiy tahlil: to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, eksport va import qilish, shuningdek korxonalarining raqobatbardoshligi to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil: Ўzbekistonda to'qimachilik sanoatining rivojlanishini boshqa mamlakatlar va mintaqalar bilan taqqoslash va boshqalar.

Tadqiqot natijalari. Ўzbekistonning qulay geografik joylashuvi uning to'qimachilik sanoatida raqobatbardoshligiga ham hissa qo'shmoqda. Mamlakat dunyoning turli mintaqalari

bilan qulay transport va logistika aloqalariga ega, bu esa mahsulot eksportini osonlashtiradi. Bundan tashqari, Ўzbekiston to'qimachilik sanoatiga xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilmoqda, bu yondoshuv ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va mahsulot sifatini oshirishga yordam beradi va o'zbek kompaniyalariga xalqaro bozorda raqobatbardosh bo'lish va iste'molchilar ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Ўzbekiston to'qimachilik mahsulotlarining raqobatbardoshligi ko'plab omillarga, jumladan, xom ashyo, zamonaviy texnologiyalar, mahsulot sifati va mamlakatning geografik joylashuviga bog'liq. Ўzbekiston jahon to'qimachilik bozorida o'z mavqeyini mustahkamlash maqsadida ushbu jihatlarni rivojlantirish ustida muvaffaqiyatli ish olib bormoqda.

Ўzbekiston to'qimachilik sanoatining jahon bozorida raqobatbardoshligini tahlil qilish ijobiy tendensiyalar va keyingi rivojlanish imkoniyatlarini ko'rsatmoqda. Ўzbekistonning asosiy raqobatdosh ustunliklaridan biri bu xom ashyoning mavjudligi va sifati. Mamlakat to'qimachilik sanoatini yuqori sifatli xom ashyo bilan barqaror ta'minlaydigan dunyodagi eng yirik paxta ishlab chiqaruvchilardan biri hisoblanadi. Bu o'zbek ishlab chiqaruvchilariga xalqaro xaridorlar uchun jozibador bo'lgan tabiiy paxtadan foydalangan holda yuqori sifatli mahsulotlar yaratish imkonini beradi.

Ўzbekiston to'qimachilik sanoatini modernizatsiya qilish va zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etishga ham faol sarmoya kiritmoqda. Bu ishlab chiqarish

samaradorligi va sifatini oshirish, shuningdek, taklif etilayotgan mahsulotlar turini kengaytirish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2017-2020 yillarda mamlakatimiz to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatining asosiy kapitaliga 32,4 trillion so'mdan ortiq investitsiyalar kiritilgan, ushbu ko'rsatkich 2020 yilda 12,3 trln. so'mni tashkil etib 2016 yilga nisbatan qariyb 2,5 baravarga oshgan. Shuningdek, sohada yangi obyektlar yaratilib, mavjud korxonalar modernizatsiya qilingan[5].

So'nggi yillarda mamlakat ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va mehnat sharoitlarini yaxshilashda sezilarli yutuqlarga erishildi va yutuqlar natijasi O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda va o'z navbatida O'zbekiston kompaniyalari eksport imkoniyatlarini faol rivojlantirmoqda va xorijlik xaridorlar bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirish imkonini bermoqda.

Davlatning qo'llab-quvvatlashi bilan paxta matolari ishlab chiqarish qayta tiklangani O'zbekiston to'qimachilik sanoatining katta yutuqlaridan biriga aylandi. Shunday qilib, 2020 yilda 85%dan ortiq paxta tolasini qayta ishlanib, mato ishlab chiqarish 3,47 baravar o'sib 118,8 mln.m2 ni tashkil etdi, bu ko'rsatkich 2016 yilda 34,2 mln. m2 ni tashkil etgan. Trikotaj gazlamalar ishlab chiqarish 3 barobardan ortiq oshdi. Shu bilan birga, tayyor trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi oshmoqda, jumladan ichki kiyimlar ishlab chiqarish 1,9 barobar, ustki kiyimlar ishlab chiqarish 115,9 foizga oshgan. Ma'lumki, to'qimachilik va trikotaj sanoati O'zbekistonda eksportga yo'naltirilgan asosiy tarmoqlardan biri hisoblanadi. Yana shunisi ahamiyatliki, ushbu tarmoqda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari bilan sanoat mahsulotlari eksportidagi ulushi bo'yicha boshqa tarmoqlardan sezilarli ravishda o'zib ketdi, jumladan 2016-2020-yillarda ushbu tarmoqning eksportdagi ulushi 25,7 foizdan 45,5 foizga o'sganligini ta'kidlashimiz mumkin[5]126 b.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo markazidagi zamonaviy logistika infratuzilmasi va geografik joylashuvi jahon bozorlari bilan qulay transport aloqalarini ta'minlaydi. Biroq, O'zbekiston to'qimachilik sanoatining raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan bir qancha omillar ham mavjud. Ulardan biri Xitoy, Hindiston, Turkiya va Bangladesh kabi boshqa to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi mamlakatlarning raqobatidir. Ushbu mamlakatlar kuchli sanoat bazasiga va katta ishlab chiqarish hajmiga ega, bu esa jahon bozoridagi konyukturaga salbiy ta'sir etishi mumkin. Shuningdek, o'zbek to'qimachilik mahsulotlari assortimentida xilma-xillik yo'qligi muammo bo'lishi mumkin. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning aksariyati asosan paxta kiyimlari va to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga qaratilgan. Sintetik yoki jun kabi to'qimachilik mahsulotlarining boshqa turlarini ishlab chiqish O'zbekistonning jahon bozoridagi raqobatbardosh ustunligini kengaytirishga yordam beradi.

Umuman olganda, O'zbekiston to'qimachilik sanoatining jahon bozoridagi raqobatbardoshligi yanada o'sish uchun ulkan salohiyatga ega. Mamlakatning yuqori sifatli xom ashyo mavjudligi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va eksport imkoniyatlarini rivojlantirish kabi kuchli tomonlari mavjud. Biroq, mahsulot xilma-xilligi ustida ishlashni davom ettirish va boshqa ishlab chiqaruvchi mamlakatlarning raqobatini yengish bugungi kunda sohadagi ustuvor vazifalardan biri sifatida namayon bo'ladi.

O'zbekistonda to'qimachilik sanoatining raqobatbardoshligini aniqlashda ichki omillar muhim rol o'ynaydi. Ushbu sektorning raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatadigan yana bir nechta asosiy ichki omillar mavjud. Bular:

Birinchidan, rivojlangan infratuzilma: yuqori sifatli infratuzilma, shu jumladan yo'llar, portlar, aeroportlar va aloqa tizimlari to'qimachilik sanoati korxonalarining raqobatbardoshligida muhim rol o'ynaydi. Yaxshi rivojlangan infratuzilma logistika va xom ashyo yetkazib berishni osonlashtiradi, shuningdek tayyor mahsulotni samarali eksport qilish imkonini beradi.

Ikkinchidan, mehnat potensialini rivojlantirish: malakali mehnat resursi to'qimachilik sanoatining muvaffaqiyatli rivojlanishining asosiy omillaridan biridir. O'zbekistonda hukumat kadrlar tayyorlashga faol sarmoya kiritmoqda, ushbu soha xodimlarining malakasini oshirish uchun o'quv dasturlari va treninglar o'tkazmoqda. Xodimlarning bilim darajasi va malakasi to'qimachilik mahsulotlarining sifati va samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi.

Uchinchidan, xom ashyoning mavjudligi: O'zbekiston dunyodagi eng yirik paxta ishlab chiqaruvchilardan biri bo'lib, mamlakatga to'qimachilik sohasida raqobatbardosh ustunlik beradi. Yuqori sifatli va arzon xom ashyoning mavjudligi yuqori sifatli mahsulotlarni yaratishga va O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlarining jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

To'rtinchidan, soha rivojini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash: O'zbekiston hukumati to'qimachilik sanoatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashning turli shakllarini, shu jumladan, soliq imtiyozlari, moliyaviy qo'llab-quvvatlash va investitsiya dasturlarini taqdim etmoqda. Bu ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, raqobatbardoshlikni oshirish va O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlarining xalqaro bozorga chiqishiga xizmat qilmoqda.

Beshinchidan, innovatsiya va texnologik taraqqiyot: to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy omillaridan biridir. O'zbekiston o'z sa'y-harakatlarini uskunalarini modernizatsiya qilish va avtomatlashtirish, raqamlashtirish kabi yangi texnologiyalarni joriy etishga qaratmoqda. Bu ishlab chiqarish sifati va samaradorligini oshirish, shuningdek, xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

Ushbu omillar birgalikda O'zbekiston to'qimachilik sanoatining ichki bozorida va jahon miqyosida raqobatbardoshligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ular sohani rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mahsulot sifatini oshirish va raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, O'zbekistonning to'qimachilik sanoatidagi mavqeiini mustahkamlash uchun infratuzilmani rivojlantirish, inson resurslari, innovatsiyalar va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga investitsiyalar kiritishni davom ettirish muhimdir.

Xulosa. O'zbekistonda to'qimachilik sanoatining raqobatbardoshligini oshirish uchun quyidagi choralarni ko'rish mumkin:

Uskunalar va texnologiyalarni modernizatsiya qilishga investitsiyalar: ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va ishlab chiqarish vaqtini qisqartirish uchun zamonaviy uskunalar va texnologiyalarga investitsiyalarni davom ettirish kerak.

Innovatsiyalarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash: to'qimachilik sanoatida innovatsiyalarni rag'batlantirish raqobatchilardan farq qiladigan yangi mahsulotlar, ishlab chiqarish usullari yoki xizmatlarini yaratishga yordam beradi. Hukumat innovatsion loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash va soliq imtiyozlarini taqdim etishi mumkin.

Sifat va standartlarni takomillashtirish: mahsulot sifati raqobatbardoshlikning asosiy omilidir. O'zbekiston xalqaro standartlar va sertifikatlariga rioya qilishga intilishi, shuningdek, ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida sifat

nazoratini takomillashtirish bo'yicha faol ish olib borishi kerak.

Inson kapitalini rivojlantirish: to'qimachilik sanoatida malakali mehnat salohiyatini tayyorlash va rivojlantirish raqobatbardoshlikning muhim omilidir. Ta'lim, kasbiy rivojlanish va soha xodimlarini tayyorlashga sarmoya kiritish lozim.

Mahsulot turlarini kengaytirish: mahsulotni diversifikatsiya qilish o'zbek to'qimachilik mahsulotlariga bo'lgan talabni oshiradi. Bu nafaqat paxta mahsulotlarini ishlab chiqarish, balki jun, ipak, sintetik materiallar va boshqalar kabi boshqa to'qimachilik turlarini ishlab chiqish ham muhim vazifalardan biridir.

Logistika infratuzilmasini takomillashtirish: transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish mahsulotlarni xalqaro bozorlarga samarali yetkazib berish va logistika xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish: O'zbekiston to'qimachilik sanoatiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, sifatni yaxshilash va eksport imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi.

Ushbu chora-tadbirlar O'zbekiston to'qimachilik sanoatining raqobatbardoshligini mustahkamlash, mahsulot sifatini oshirish, sotish bozorlarini kengaytirish va diversifikatsiya qilish, shuningdek, yangi hamkorlar va investorlarni jalb yetishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. <https://review.uz/oz/post/toqimachilik-sanoatini-yuksaltirish>.
2. <https://yuz.uz/news/mamlakatimizdan-7-oy-davomida-1-mlrd-dollarlik-toqimachilik-vatikuv-trikotaj-mahsulotlari-eksport-qilindi>.
3. Фойдаланилган адабиётлар:
4. Фармон (2017) Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Тўқимачилик ва тикувтрикотаж саноатини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5285-сон Фармони, 14.12.2017 йил.
5. Фармон (2022) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28.01.2022 йилдаги “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ПФ-60- сон Фармони.
6. Щиборщ К.В. (2000) Интегрированная система управления промышленных предприятий России. // Менеджмент в России и за рубежом. -№4.
7. Бегалов Б.А. (2013) Основные тенденции развития инновационной экономики// Экономический вестник Узбекистана, № 3-4, с. 107-110;
8. Ёдгорова Ш.Х. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда тўқимачилик саноатини ривожлантириш йўллари. // “Иқтисодий тараққиёт ва таҳлил” журнали, 2023й. № 1, 119-130 б.



Rasuljon YUSUPOV,

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti dotsenti, t.f.n

E-mail: rasuljon979956768@gmail.com

Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti S.Yusupova taqrizi asosida

YANGI O'ZBEKISTONNI QURISHDA QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLANISHNING RAVNAQI

Аннотация

Ushbu maqolada O'zbekistonni rivojlantrish borasida ishlab chiqilgan 2017-2021 yillarni rivojlantrish "Xarakatlar strategiyasi", 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi va "O'zbekiston-2030" strategiyasini ustuvor yo'nalishlari va qator maqsadlar keltirib o'tilgan. Ustuvor yo'nalishlardan biri qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgani alohida e'tirof etilgan.

Kalit so'zlar: Taraqqiyot, strategiya, referendum, konstitutsiya, ijtimoiy himoya, davlat, organi, sud-huquq, isloh, rivojlantrish, kasb, subyekt, ustivor, yo'nalish.

СТО ШАГОВ В ПОСТРОЕНИИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА И РАЗВИТИЕ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация

В данной статье перечислены приоритеты и ряд целей "стратегии действий" по развитию Узбекистана на 2017-2021 годы, новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы и стратегии "Узбекистан-2030". Отдельно признается, что одним из приоритетов является обеспечение верховенства закона.

Ключевые слова: Прогресс, стратегия, референдум, Конституция, социальная защита, государство, орган, судебная реформа, развитие, профессия, предмет, приоритет, направление.

A HUNDRED STEPS IN THE CONSTRUCTION OF A NEW UZBEKISTAN AND THE PROSPERITY OF LEGAL EDUCATION

Annotation

This article highlights the development strategy of Uzbekistan for 2017-2021, the development strategy of Uzbekistan for 2022-2026, the development strategy of New Uzbekistan for 2022-2026 and the strategy of Uzbekistan-2030, as well as a number of goals. It is especially noted that one of the priority areas is aimed at ensuring the rule of law.

Key words: Progress, strategy, referendum, Constitution, social protection, state, body, judicial and legal reform, development, profession, subject, priority, direction.

Kirish. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan yurtimizni xalqaro siyosiy maydonda, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy madaniy sohalarida o'z mavqeyiga ega bo'lishi borasida O'zbekistonni rivojlantrish borasida ishlab chiqilgan. 2017-2021 yillarni rivojlantrish "Xarakatlar strategiyasi", 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi va "O'zbekiston-2030" harakatlar strategilarida keltrilgan sud-huquq sohasini isloh qilishda muxim ahamiyat o'rin tutishi kasb etib kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. 2017-2021 yillarni rivojlantrish "Xarakatlar strategiyasi";

-davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustivor yo'nalishlari;

-qonun ustuvorligini taminlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustivor yo'nalishlari;

-iqtisodiyotni rivojlantrish va liberallashtirishning ustivor yo'nalishlari;

-ijtimoiy sohani rivojlantrishning ustivor yo'nalishlari;

-xavfsizlik, millatlararo totyvlilik va diniy bag'rikenglikni taminlash hamda cnuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustivor yo'nalishlar.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi yetita ustivor yo'nalishida esa:

-inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantrish orqali xalqparvar davlat barpo etish;

-mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantrish;

-milliy iqtisodiyotni rivojlantrish, uning o'sish suratlarini zamon talablari darajasida ta'minlash;

-adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantrish;

-ma'naviy taraqqiyotni ta'minlanishi, ushbu sohani tubdan islox etish va yangi bosqicnga olib cniqish;

-umumbashariy muammolarga milliy manfaatlardan kelib cniqqan xolda yecnim topisn;

-mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa saloxiyatini kucnaytrish, ocniq va pragmatik faol tashqi siyosat olib boorish.

Shu harakatlar strategiyasi asosida fuqarolar huquqiy madaniyatini boyib borishida prezidentimiz farmonlar va qarorlari alohida o'rin kasib etib, joylarda fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltrishda targ'ibot ishen guruxlarni tasiri sezilmoqda, natijada so'nggi yillarda sudlarning shaffofligi va ochiqligini ta'minlash yo'lida muhim qadamlar qo'yildi. Jumladan jamoatchilik va matbuot uchun ham erkin faoliyyat yuritishi ucnuh eshiklar keng ochildi. Ilgarilari ommaviy axborot vositalari, internet nashrlari va keng jamoatchilik vakillari sudga kiritilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani O'zbekistonni rivojlantrish borasida ishlab chiqilgan strategik

yo'nalishlar tahlil, xronologik izchilik, qiyosiy tahlil usullaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini alohida o'rin egallashi bilan axamiyat kasib etadi, va unda ishonchli himoya qilish kafolatlarini kengaytirish, ularning odil sudlovga erishish darajasini, sud ish yurituvining samaradorligi va sifatini oshirish, nomzodlarni tanlash va sudyalik lavozimiga tayinlash tizimini yanada takomillashtirish sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning eng muhim yo'nalishlari sifatida belgilangan [1] muhim ahamitga ega bo'ldi.

Biz rivojlanish darajasi bo'yicha dunyoning "Top" mamlakatlari qatoriga kirishni maqsad qildik va bu maqsadga erishish uchun bizga yaxshi ishlab chiqilgan dastur lozim bo'ldi. Ushbu dasturni ishlab chiqish uchun mutaxassislar va keng jamoatchilik fikri o'rganildi va kelib tushgan ko'plab takliflar ko'rib chiqildi. Ayni vaqtdagi muammolar, kamchiliklar va kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammo va kamchiliklar hisobga olingan holda "O'zbekiston-2030" strategiyasi ishlab chiqildi. Shu munosabat bilan muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan 2023 yil 11 sentyabrda "Harakatlar strategiyasi to'grisida" gi Farmoni imzolandi. U shunday so'zlar bilan boshlangan:

"2023 yil 30 aprelda o'tkazilgan referendumda umumxalq ovozi berish orqali O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi Yangi O'zbekistonni barpo etishning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq o'tkazilgan prezidentlik saylovi yana bir bor jamiyatimizning siyosiy yetukligi, Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarni xalqimiz to'liq qo'llab-quvvatlaganidan dalolat bermoqda.

Shu bilan birga, yangilangan konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini takomillashtirish va amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish talab etilmoqda"[2].

Barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish, xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish, mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash ko'zda tutilgan "O'zbekiston-2030" harakatlar strategiyasidada 5 ta ustuvor yo'nalish va 100 ta maqsad o'z aksini topgan. Ustuvor yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

-har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish;

-barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash;

-suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish;

-qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish;

-"xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan 2-ilovada ko'rsatilgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Respublika komissiyasi tarkibi tasdiqlandi. Komissiya raisi vazifasi esa O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov zimmasiga yuklatildi[3].

Konstitutsiyamizning 2-moddasida davlat xalq irodasini ifoda etishi, uning manfaatlariga xizmat qilishi. davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'ul ekanliklari qayd etilgan[4]. Strategiyadagi asosiy yo'nalishlardan biri qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat hokimiyatini tashkil etishga qaratilgan buning yaqqol na'munasidir.

Ushbu ustuvor yo'nalish jami 16 ta maqsaddan iborat va ikki qismga bo'linadi:

Xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish va jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirish bo'yicha islohotlar;

Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimidagi islohotlar.

Birgina sud hokimiyatining mustaqilligini kuchaytirish va uning faoliyatida ochiqlikni ta'minlash orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish to'grisidagi maqsadda quyidagi qator vazifalar keltirilgan:

Tadbirkorlik subyektlariga nisbatan ko'rilyotgan jinoyat ishlarining 100 foizida himoyachi yoki jamoat himoyachisi ishtirokini ta'minlashga erishish;

Sud tizimini boshqarishga sudyalarning o'zini o'zi boshqarish tamoyilini ko'laqonli joriy etish hamda sudyalarning hamjamiyati organlari tizimini to'liq shakllantirish;

Jahon odil sudlov loyihasining Huquq ustuvorligi indeksi bo'yicha 0,64 ballni to'plashga erishish;

Boshqaruv sifati indikatorlarining Huquq ustuvorligi yo'nalishi bo'yicha 61,5 ballni to'plashga erishish.[5]

Xulosa va takliflar. Zero hamma sohada, ayniqsa huquq sohasida uzoqni ko'rib ish qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon bilan hamnafas bo'lish esa davr talabiga aylangan. Davlat va huquq sohasida katta va muhim o'zgarishlarni amalga oshirish uzoq vaqt talab etadi, bu talab etishga, tarix ko'zgusi sabog' dasturdir. Shunga umid qilamizki ushbu strategiya yakuniga ko'ra biz anchagina bugungi kundanda barcha yo'nalish va tarmoqlar qatori sud-huquq tizimida ham yanada rivojlangan Yangi O'zbekistonni va fuqarolari huquqiy madahiyati ravnaq topga yurtini shakllanganini ko'ramiz deb xisoblaymiz.

ADABIYOTLAR

1. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi-T.-"O'zbekiston",2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "Harakatlar strategiyasi to'grisida" gi Farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-son " " O'zbekiston-2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora tadbirlari tog'risida" gi Qarori
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-T.-"O'zbekiston",2023.-128 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "Harakatlar strategiyasi to'grisida" gi Farmoni.



UDK:314.930.

O'tkir YAKUBOV,

Termiz davlat pedagogika instituti dotsenti, geografiya fanlari nomzodi

G.f.n., dots. Q.Allanov taqrizi asosida

“KATTA QIRG‘IN”NING DAXSHATLI OQIBATLARI

Annotatsiya

Mazkiur maqolada 1937 yildagi “Katta qirg‘in”ning kechishi va daxshatli oqibatlari to‘g‘risidagi tarixiy hujjat va manbalar tahlil qilingan hamda o‘sha davrdagi millat tarixi haqida fikr yuritiladi. “1937 yildagi Buyuk Terror” Sovet Ittifoqida Stalin rejimi tomonidan amalga oshirilgan siyosiy repressiya davrini anglatadi. O‘sha paytda aholiga, ayniqsa ziyolilarga, harbiy va siyosiy muxolifatchilarga qarshi ommaviy hibslar, sud jarayonlari va qatag‘onlar uyushtirilgan. Millionlab odamlar hibsga olingan, o‘limga hukm qilingan, lagerlarga yoki surgunga yuborilgan. Ularning aksariyati Stalin rejimining befarqligi, xatolari va yovuzligi qurbonlari bo‘lgan. Bu davr sobiq “Ittifoq” tarixida chuqur iz qoldirdi va XX asrdagi siyosiy qatag‘onlarning eng shafqatsiz siyosatlaridan biri bo‘lgan.

Kalit so‘zlar: “Katta qirg‘in”, “Katta terror”, “Bolshevizm”, qatag‘on qilinganlar, ommaviy kasalliklar, ochlik, tozalash siyosati.

УЖАСНЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ “БОЛЬШОЙ РЕЗНИ”

Аннотация

В этой статье анализируются исторические документы и источники о ходе и ужасных последствиях "великой резни" 1937 года и размышляется об истории нации в то время. "Большой террор 1937 года" относится к периоду политических репрессий, проводимых сталинским режимом в Советском Союзе. В то время были организованы массовые аресты, судебные процессы и репрессии против населения, особенно интеллигенции, военных и политических противников. Миллионы были арестованы, приговорены к смертной казни, отправлены в лагеря или ссылку. Большинство из них стали жертвами безразличия, ошибок и зла сталинского режима. Этот период оставил глубокий след в истории бывшего "Союза" и был одной из самых жестоких политических репрессий в 20 веке.

Ключевые слова: “Большая резня”, “большой террор”, “большевизм”, репрессированные, массовые болезни, голод, политика чисток.

THE TERRIBLE CONSEQUENCES OF THE “GREAT MASSACRE”

Annotation

This article analyzes historical documents and sources about the course and terrible consequences of the "great massacre" of 1937 and reflects on the history of the nation at that time. The "Great Terror of 1937" refers to the period of political repression carried out by the Stalinist regime in the Soviet Union. At that time, mass arrests, trials and repressions were organized against the population, especially intellectuals, military and political opponents. Millions were arrested, sentenced to death, sent to camps or exile. Most of them were victims of the indifference, mistakes and evil of the Stalinist regime. This period left a deep mark on the history of the former "Union" and was one of the most brutal political repressions in the 20th century.

Key words: “The Great Massacre”, “the great terror”, “Bolshevism”, the repressed, mass diseases, famine, the policy of purges.

Dolzarbliqi. Sovet hukumati o‘zining olib borgan bosqinchilik, talonchilikdan iborat siyosatini yashirish maqsadida mahalliy xalq nomidan “bosmachilar”dan xalos qilish bo‘yicha O‘rta Osiyo siyosiy bosh boshqarmasiga qizil armiya qo‘mondonlari nomiga maxsus xatlar, murojaatnomalar uyushtirib, yangi kuchlarni safarbar etish masalasida foydalananganlar. Bunday chaqiriqlardan so‘ng qizil armiya qo‘shinlari ayovsiz tarzda terror uyushtirish, ommaviy qirg‘in o‘tkazish, ko‘zga ko‘ringan mahalliy xalqning ibratli odamlaridan o‘ch olish, qirib tashlash vositalarini ishga solganlar.

Eng achinarlisi siyosiy boshqarmaning maxsus ko‘rsatmasi bilan “Xurrambekka yordam berish” bahonasida butun boshli “qo‘ng‘irot” urug‘i qabilalariga nisbatan qirg‘in siyosati o‘tkazilib, minglab begunoh kishilar qirib tashlangan. 1926 yil bahorida mustabid tuzim siyosati ta‘sirida Surxondaryo vohasini “bosmachilik”dan ommaviy tozalash siyosati o‘tkazilgan. Ochlik, qashshoqlik turli xil ommaviy kasalliklar va tinimsiz qirg‘inlar qurboniga aylangan voha (Surxondaryo) aholisining soni 1920 yilga nisbatan uchdan bir qismga kamaygan. O‘z navbatida 1926 – 1930 yillarda aholining o‘ziga to‘q qismi deyarli tugatilib, bir qismi jon saqlash uchun Afg‘oniston orqali xorijga qochib ketgan

bo‘lsa, ikkinchi qismi qirib tashlangan yoki Rossiyaga majburiy ko‘chirilib, qatag‘on qilinib quloq sifatida majburiy ko‘chirilgan[1].

Metodlar. Maqolani tayyorlashda tarixiy qiyoslash, bibliografik tahlil, statistik tahlil usulilaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari. 1937 yil 30 iyul kuni SSSR kompartiyasi markaziy qo‘mitasi va NKVDning “Sobiq quloq qilinganlar, jinoyatchilar va boshqa sovetlarga qarshi unsurlarni qatag‘on qilish operatsiyasi haqida”gi N – 00447 sonli buyrug‘i tasdiqlangan. “Sovet Ittifoqi” qatag‘on qilinuvchilar ro‘yxatini “NKVD maxsus uchligi” deb ataluvchi uchliklar shakllantirila boshlangan. N – 00447 sonli buyruqda odamlarni qamoqqa olishda prokurorlar sanksiyasi shart emasligi kiritilgan va mahalliy prokuratura vakllari “Katta terror” bilan bog‘liq rasmiylashtirish ishlarni bilan shug‘ullangan xolos.

1939 yil fevralida NKVDning mintaqaviy bo‘limlarida sovet tuzumiga qarshi tashkilotlarga a‘zolikda ayblanganlar bir yil o‘tib tashlangan va oqlanmagan. Sovet hukumati mahalliy ziyoliylarni turli lavozimlarga o‘tkazib “katta terror”da ishtirokchi qilib qo‘ygan. Masalan, Akmal Ikromov 1929 yil O‘zSSR kompartiyasi markaziy qo‘mitasining birinchi kotibi etib tayinlangan. U “katta terror”

boshlanishidayoq Respublika Markaziy qo'mitasi birinchi kotibi sifatida "maxsus uchlik" tarkibiga kirgan. Shu sababli, 1937 yilning sentyabriga qadar, ishdan olunguncha barcha qamoq va otuv hujjatlarini chiqarishda ishtirok etishga majbur bo'lgan.

Umuman, mahalliy aholining ziyoliy, o'ziga to'q fuqarolarini qirishni mahalliy rahbarlarning qo'li bilan amalga oshirishga erishgan. Akmal Ikromovning o'zini esa, 1938 yilning 15 martida "aksinqlobiy" terrorchi tashkilotga a'zo sifatida ayblab Moskvada otib tashlangan. Akmal Ikromovdan keyin, Usmon Yusupov (Apresyan Darenik bilan) maxsus uchlikning ikkinchi a'zosi sifatida uning barcha hukm chiqarilgan yig'ilishlarida qatnashgan. U. Yusupov "katta terror" tugaganidan keyin ham 1950 yilgacha Markaziy qo'mita rahbarligida qolgan.

Akmal Ikromov ishdan olinganidan so'ng Jo'ra To'rabekov bir oz muddat ya'ni 1937 yilning 5 sentabridan 21 sentabrigacha (16 kun) O'zbekiston SSR kompartiyasi markaziy qo'mitasi birinchi kotibi vazifasini bajaruvchi sifatida ishlagan. U 1937 yil 12 sentabrdagi O'zSSR "uchligi" yig'ilishida ishtirok etgan va 117 nafar fuqaroning otishga hukm qilinishida ishtirok etgan. 1937 yil 21 sentabrda ishdan olinganidan so'ng noyabr oyida "xalq dushmani" sifatida qoralangan va 1939 yil mart oyida otib tashlangan, keyinchalik ham oqlanmagan.

O'sha davrda Sodiqjon Boltayev O'zSSR kompartiyasi markaziy komitetining ikkinchi kotibi bo'lib ishlagan va o'z navbatida maxsus uchlikning uchinchi a'zosi bo'lgan, ammo qatog'on siyosatida katta rol o'ynamagan. 1937 yilning 28 avgustida ishdan bo'shatilgan, shu kuni "sovet hokimiyatiga qarshi unsur" sifatida qamoqqa olingan. So'ngra 1938 yilning mart oyida otib tashlangan.

"Uchlik"ning to'rtinchi a'zosi Sulton Segizbayev 1937 yilning 5 oktabrida O'zSSR xalq komissarlari soveti raisi bo'lib ish boshlagan, u 1938 yilning iyun oyiga qadar "katta terror"ning eng qizg'in davrlarida ishlagan. Segizbayev mingdan ortiq O'zbekiston fuqarolariga o'lim hukmi chiqarilgan yig'ilishlarda qatnashgan. 1938 yilning iyul oyida ishdan bo'shatilgan va bir yildan keyin otib tashlangan.

"Uchlik"ning beshinchi a'zosi Abduraxmon Abdujabborov O'zSSR xalq komissarlari soveti raisi lavozimiga 1938 yilning 23 iyulida Segizbayev o'rniga tayinlangan. A. Abdujabborov 1938 yilning 4 oktabridan 16 oktabrigacha har kuni o'tkazilgan yig'ilishlarda qatnashgan va bu yig'ilishlarda 507 nafar O'zbekistonlik otuvga hukm qilingan. "Katta terror" davrida (1937-1939yy.) O'zSSR uchligi tomonidan 41 mingdan ortiq kishi qamoqqa olingan va 7 mingga yaqin kishi otib tashlangan.

jadval

1937 yil dekabr oyidagi ayiblov ishlari natijalari

Qaror soni	Yig'ilish sanasi	Ayblanuvchilar soni	O'tishga hukm qilinganlar	10 yilga kesilganlar	8 yilga kesilganlar	Qamoq joyidan ozod etilganlar	Izoh
44	01.12.1937y.	146	14	96	36	-	
45	01.12.1937y.	118	34	74	9	1 kishi o'lgan	
46	01.12.1937y.	171	67	94	9	1	
47	02.12.1937y.	146	51	92	3	-	
48	02.12.1937y.	110	14	76	20	-	
49	02.12.1937y.	114	21	82	11	-	
50	04.12.1937y.	131	14	113	4	-	
51	04.12.1937y.	110	16	91	3	-	
52	04.12.1937y.	95	40	50	5	-	
53	07.12.1937y.	220	12	149	58	1	1 ayol
54	07.12.1937y.	232	13	160	58	1	1 ayol
55	07.12.1937y.	230	3	155	68	4	1 ayol
56	08.12.1937y.	203	4	104	94	1	
57	08.12.1937y.	147	-	91	56	-	
58	08.12.1937y.	204	2	152	49	1	
59	09.12.1937y.	212	3	200	9	-	1 ayol
60	09.12.1937y.	206	2	148	56	-	
61	09.12.1937y.	209	8	154	35	10	
62	10.12.1937y.	205	56	149	-	-	1 ayol
63	10.12.1937y.	201	4	137	47	13	
64	10.12.1937y.	219	2	203	11	3	2 ayol
65	27.12.1937y.	15	12	3	-	-	1 ayol
Jami:		3644	392	2572	646	34/1	

*Jadval tarixiy arxiv hujjatlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1937 yil dekabr oyida O'zbekistonda NKVD uchligi tomonidan 1-10 dekabr kunlari davomida 3081 kishiga va so'ngra yana 27 dekabr kuni 11 kishiga jami 3092 kishiga jinoiy ish ochilgan.

2-jadval

1937 yil dekabr oyidagi ayiblov ishlarining mintaqalar bo'yicha natijalari

№	Mintaqalar	O'tishga hukm qilinganlar	10 yilga kesilganlar	8 yilga kesilganlar	Qamoq joyidan ozod etilganlar	Jami
	Andijon	51	464	109	1	625
	Buxoro	121	242	48	-	411
	Surxondaryo	16	201	91	-	308
	Samarqand	16	134	16	13/1o'lgan	180
	Xorazm	20	130	94	1	245

	Qashqadaryo	8	149	35	9	201
	Yuqori Chirchiq	-	7	15	-	22
	Qoraqalpog'iston	10	142	18	-	170
	Toshkent	9	30	2	-	41
	Qo'qon	17	228	14	3	262
	Farg'ona	7	89	19	4	119
	Namangan	19	198	3	-	220
	Chirchiq	3	16	11	-	30
	Ogqo'rg'on	-	8	-	-	8
	Qurama	1	8	3	-	12
	Kalinin	1	15	12	-	28
	Parkent	2	22	4	-	28
	Orjonikidze	-	10	21	-	31
	Chinoz	2	36	2	-	40
	Yangiyo'l	3	28	9	-	40
	Quyichirchiq	1	20	5	-	26
	O'rtachirchiq	-	9	3	-	12
	Pskent	-	24	14	-	38
	Bekobod	3	23	6	-	32
	Xovost	-	38	22	1	61
	Jizzax	1	14	7	-	22
	Forish	4	26	2	1	33
	Mirzacho'l	-	22	10	-	32
	Zomin	4	19	1	1	25
	Oltiariq	6	13	10	-	29
	Toshloq	-	31	7	-	38
	Marg'ilon	2	26	8	-	36
	Toshkent temir yo'li	2	6	8	-	16
	SSSRning boshqa shaharlaridan	32	22	-	-	54
	O'zSSRning boshqa shaharlaridan	31	126	12	1	161
	Jami:	392	2567	643	35/1-36	3644

*Jadval tarixiy arxiv hujjatlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jumladan, 11.12.1937 yilda – 306 kishiga, 02.12. 1937 yilda – 303 kishiga, 04.12. 1937 yilda – 205 kishiga, 07.12. 1937 yilda – 504 kishiga, 08.12. 1937 yilda – 472 kishiga, 09.12. 1937 yilda – 621 kishiga, 10.12. 1937 yilda – 625 kishiga, va so'ngira 27.12. 1937 yilda yana – 11 kishiga jinoiy ish ochilgan.

Qizig'i shundaki, jinoiy ish ochilganlar soni 3092 tani tashkil etib, 3644 kishiga ayblov e'lon qilingan. Masalan, 07.12.1937 yilda jinoiy ishlarni ko'ruvchi uchta guruhning birida – 220 ta, ikkinchisida – 232ta, uchinchisida esa – 232ta ish bir kunda ko'rib chiqilgan, o'sha kuni ayblanganlarning 65 nafari otishga hukm qilingan, 464 nafari 10 yilga, 184 nafari 8 yilga kesilgan.

Shu narsa dahshatliki, hali 1937-1938 yillardagi siyosiy qatag'on boshlanmagan va bo'lajak jabirdiydalarning aybdor ekanligi masalasi hali aniqlanmay turib, NKVD organlari yaqin kelajakda qamoqqa olinadigan kishilar ro'yxatini tuzishga kirishgan. 11 jildni tashkil etadigan bu ro'yxatlarning birinchisi 1937 yil 27 fevralda tasdiqlangan bo'lsa, eng so'ngisi VKP(b) siyosiy byurosi a'zolari tomonidan 1938 yilning 29 sentabrida imzolangan.

1937 yil dekabr oyida hukm chiqarilganlardan 392 kishi otilgan, 2572 kishi 10 yilga va yana 646 kishi 8 yilga ozodlikdan mahrum etilgan. Bir nafar odam tergov davomida o'lgan. Ayblangan 3644 kishidan 95 kishi “aybsiz” deb topilib ozodlikka chiqarilgan bo'lib, jami ayblanganlarning 1 foizga yaqinini (0,96%) tashkil etgan xolos.

Ayblanganlar okrug, shahar va rayonlar kesimida tahlil etilganda ulardan eng ko'plari Andijon (625 kishi), Buxoro (411 kishi), Surxondaryo (308 kishi) mintaqalariga to'g'ri kelgan. Otishga hukm qilinganlarning eng ko'pi Buxoro mintaqasiga (121kishi) to'g'ri kelib jami otishga hukm etilganlarning 30,8 foizi to'g'ri kelgan. Keyingi o'rin Andijon mintaqasiga tegishli bo'lib, 51 kishi ya'ni respublika bo'yicha jami otishga hukm etilganlarning 13,0 foizini tashkil etgan.

Ayblanganlarning 10 yil muddatga kesilganlar salmog'i Andijon (464kishi) respublika ko'rsatkichiga nisbatan 18,0 foiz, shunga muvofiq ravishda Buxoro (242 kishi) 9,4 foiz, Qo'qon (228 kishi) 9,2 foiz, Surxondaryo (201kishi) 8,1 foizni tashkil etgan. Respublika bo'yicha otishga hukm etilgan 9567 kishi mahalliy aholi vakllari bo'lib, respublikaning 35 ta mintaqasi vakllari bo'lgan.

Ayblanganlarning milliy tarkibi tahlil etilganda, 44-65 qarorlar (22 ta qaror) bo'yicha ayblanganlardan otishga hukm qilinganlarning 298 nafari (76 foiz)ni o'zbeklar, 62 nafari (15,8 foiz)ni ruslar, 8 nafari (2 foiz) qoraqalpoqlar, 7

nafari (1,7foiz) tatarlardan iborat bo'lgan. Shuningdek 10 yil muddatga kesilganlarning 2098 nafari (81,5 foizi) o'zbeklar, 267 nafari (10,3 foizi) ruslar va 104 nafari (4 foizi) qoraqalpoqlar bo'lgan.

Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, N.S.Xrushchyov tomonidan ham imzolangan yana bir necha ro'yxatlar bo'lgan, ammo ular Xrushchyovning KPSS markaziy komitetiga rahbarlik qilgan yillarida kuydirib tashlangan. Shu ro'yxatlarga asoslanib aytish mumkinki, “Katta qirg'in” davrida qirib tashlash lozim bo'lgan kishilar ro'yxatini tuzish 1936 yilning ikkinchi yarmida boshlangan. Binobarin, “Katta qirg'in”ni amalga oshirish g'oyasi siyosiy byuro va shaxsan uning rahbari Stalinda 1936 yildayoq baydo bo'lgan[2].

Akademik A.N.Yakovlev o'zining “Bolshevizm – XX asrning ijtimoiy kasalligi” maqolasida quyidagilarni yozadi: “Bolshevizm amaliyotlari uchun javobgarlikdan qochmasligi kerak, sudsiz qatl qilishdagi quloq eshitmagan sohtalashtirishlar, sohta ayblovlar, tergov va sudsiz hukmlar, qiynoqlar, konslagerlarni tashkil etish, shu jumladan: garovga olingan bolalar uchun, tinch aholiga qarshi zaharli gazlardan foydalanganligi uchun... lekin Stalinning go'sht maydalagichida 20 milliondan ortiq odam vafot etdi”[3].

Chop etilgan hujjatlarga ko'ra, SSSR ichki ishlar komissari Nikolay Yerjovning 1937 yil, 30 iyuldagi N-00447 sonli “Sobiq quloq qilinganlar, jinoyatchilar va boshqa sovetlarga qarshi unsurlarni qatag'on qilish operatsiyasi haqida”gi buyrug'ida operatsiyani amalga oshirishning tartibi bayon etilgan bo'lib, daxshatli operatsiyani hayotga tatbiq qilishning dahshatli manzarasini ifodalaydi.

Mazkur buyruq sobiq “Ittifoq”ning boshqa mintaqalarida 1937 yilning 5 avgustidan amalga oshirila boshlagan bo'lsa, O'zbekistonda operatsiya shu yilning 10 avgustidan amalga oshirila boshlagan. Qatag'on qilinganlar asosan ikki toifaga bo'lingan: a) birinchi toifaga zudlik bilan xibsga olinishi kerak bo'lgan va “uchlik”da ko'rib chiqilib, otishga hukm qilinishi lozim bo'lgan eng “xavfli elementlar” kiritilgan; b) ikkinchi toifaga ijtimoiy xavflilik darajasi pastroq, ammo “shubxaliroq elementlar” xibsga olinishi va ular 8 yildan 10 yilgacha lagerlarda saqlanishi ko'zda tutilgan.

Avvaliga O'zSSRda birinchi toifa bo'yicha 750 kishi, ikkinchi toifa bo'yicha 4000 kishi reperessiya qilinishi tasdiqlanib, haqiqatda 1937 yilning 30 sentabrida birinchi toifa bo'yicha 4750 kishi va ikkinchi toifa bo'yicha 8000 kishi, hammasi bo'lib 12750 kishi repressiya qilinishi tasdiqlangan. Biroq, 30 sentabrda jami 10700 kishi xibsga olingan, shundan: “sobiq quloqlar” – 5924 kishi, “jinoyatchi” deb topilganlar

1679 kishi, boshqa “aks inqlobiy elementlar” – 3097 kishidan iborat bo‘lgan. Sudlanganlarning jami 10700 kishidan birinchi toifadagilar ya’ni otishga hukm qilinganlar 3613 kishini, ikkinchi toifadagilar ya’ni 8 yildan 10 yilgacha qamalganlar 7087 kishini tashkil qilgan. Shu jumladan, birinchi toifaga ko‘ra ayblanganlarning 1376 nafari “sobiq quloqlar”, 352 nafari “jinoatchilar”, 1285 nafari “aks inqlobiy elementlar” deb topilgan; ikkinchi toifadagilarning 4547 nafari “sobiq quloqlar”, 727 nafari “jinoatchilar”, 1812 kishi boshqa “aks inqlobiy elementlar” deb topilib qoralangan[4].

Xulosa. 1937 yilda O‘zbekistonda yuz bergan “Katta terror” aholi o‘rtasida ommaviy qatag‘onlarga olib kelgan.

Biroq, ushbu davrda O‘zbekistonda qurbonlar va hibsga olinganlar soni bo‘yicha aniq statistik ma’lumotlar to‘liq emas. Buning sababi shundaki, Stalinning “repressiv mashinasi yaxshi ishlagan” va ko‘pincha hibsga olinganlarni ularning soni va taqdirini mavhumlash maqsadida uchun bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirgan yoki ko‘plab hujjatlar hukumat tomonidan maxsus yo‘q qilingan. Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, hibsga olinganlar soni taxminan 1,5 million kishini tashkil qilgan, yuz minglab odamlar qatl yetilgan yoki lagerlarda va surgunlarda vafot yetgan.

ADABIYOTLAR

1. Турсунов С., Рашидов Қ. Бойсун. “Академнашр” нашриёти, 2011й. 82-83 бетлар.
2. Наим Каримов. 1937 – 1938 йиллардаги катта киргиннинг фожеали оқибатлари. www. Ziyouz. com kutubxonasi. Тошкент. 2015 йил, 3-бет.
3. Стефан КУртуа, Николя Верт, Жан Луи Панне, Анджей Пачиновский, Карел Бартошек, Жан Луи Марчолен. Чёрная книга коммунизма. Издание 22/Пер. Сфр. -вкн.:Три века истории. – М., 2001, стр. 12.
4. Трагедия советской деревни. Коллективизация и раскулачивание: Документы и материалы в 5 томах. 1927 – 1939. Том 5, 1937 – 1939. Книга 1, 1937. – М.: РОССПЕН, 2004, стр. 370-373.